



ЎЗБЕКИСТОН ҚАҲРАМОНИ СУЙИМА
ҒАНИЕВА ХОТИРАСИГА БАҒИШЛАНГАН
АНЪАНАВИЙ “ЁШ НАВОИЙШУНОСЛАР”
ИЛМИЙ-АМАЛИЙ АНЖУМАНИ

МАҚОЛАЛАР Тўплами

2021 йил 5 май

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI
SHARQSHUNOSLIK INSTITUTI**

**O‘ZBEKISTON QAHRAMONI
SUYIMA G‘ANIYEVA XOTIRASIGA
BAG‘ISHLANGAN AN‘ANAVIY
«YOSH NAVOIYSHUNOSLAR»
ILMIY-AMALIY ANJUMANI
MAQOLALAR TO‘PLAMI
II**

Toshkent – 2021

«Yosh navoiyshunoslar»: maqolalar to‘plami. Mas’ul muharrirlar G.Rixsiyeva, J.Jo‘rayev. – Toshkent: TDSHU, 2021. – 92 b.

Ushbu to‘plamda «Yosh navoiyshunoslar» mavzuidagi Respublika ilmiy-amaliy anjumaniga yuborilgan ilmiy maqolalar jamlangan. To‘plamda Alisher Navoiy adabiy-ilmiy merosining mumtoz adabiyotimizdagi o‘rni va bugungi ahamiyati, shuningdek, shoir ijodiga bog‘liq holda matnshunoslik masalalari, tilshunoslik va adabiyotshunoslik, shuningdek, Navoiy asarlarini o‘qitish muammolari haqida yoshlar nigohi bilan so‘z yuritiladi. Kitob yetishib kelayotgan yosh navoiyshunoslarning bugungi holati va istiqboli borasida muayyan tasavvurini o‘zida jamlagani bilan ahamiyatga ega. To‘plam filolog mutaxassislar, ilmiy tadqiqotchilar, magistr va bakalavr talabalar hamda keng o‘quvchilar ommasiga mo‘ljallangan.

Mualliflar qarashlari va asarlar nomlaridagi imlo tahririyat nuqtai nazaridan farq qilishi mumkin.

Mas’ul muharrirlar:

Gulchehra Rixsiyeva, Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti rektori
Jaloliddin Jo‘rayev, filologiya fanlari doktori

Tahrir hay‘ati:

Qudratulla Omonov, filologiya fanlari doktori, professor
Dilnavoz Yusupova, filologiya fanlari doktori
Rixsitilla Alimuxamedov, filologiya fanlari doktori
Maryam Ishmuhamedova, filologiya fanlari nomzodi, dotsent
Otabek Jo‘raboyev, filologiya fanlari nomzodi, katta ilmiy xodim
Olim Davlatov, filologiya fanlari bo‘yicha PhD
Oysara Madaliyeva, stajyor o‘qituvchi, kichik ilmiy xodim
Nigora Xadjiyeva, stajyor o‘qituvchi

Taqrizchilar:

Qosimjon Sodiqov, filologiya fanlari doktori, professor
Salimaxon Eshonova, filologiya fanlari nomzodi

SO‘Z BOSHI

NAVOIYSHUNOSLARNING YANGI AVLODINI TARBIYALASH YO‘LIDA

Hozirga kelib, dunyo navoiyshunosligining uchinchi mingyillik bo‘lag‘asidagi yangi davri boshlandi. Mumtoz merosni talaba-yoshlarga o‘rgatishda oliy ta‘lim tizimi qaysi yo‘ldan ketishi to‘g‘risida bir qator savollar turibdi. Ana shu so‘roqlarga javob topish maqsadida “9 may – “Xotira va qadrlash kuni” arafasida XX asr o‘zbek navoiyshunosligining dovrug‘li vakili, O‘zbekiston qahramoni, Beruniy nomidagi Davlat mukofoti sovrindori, professor Suyima G‘aniyeva xotirasiga bag‘ishlangan an‘anaviy “Yosh navoiyshunoslar” ilmiy-amaliy anjumanining ikkinchisi o‘tkazildi.

Ushbu anjuman Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti va O‘zR FA Sharqshunoslik instituti hamkorligida tashkil etildi.

Anjuman bo‘lajak navoiyshunoslarning ilmiy bahs va munozara maydoni o‘laroq Alisher Navoiy merosi yoshlar talqinida, hazrat Navoiy asarlarining ahamiyati, adibning ijodi, asarlari poetikasi, til va uslub xususiyatlari, Suyima G‘aniyevaning navoiyshunoslikdagi o‘rni singari masalalarga bag‘ishlangan ilmiy chiqishlari tinglandi.

Suyima G‘aniyevaning xotirasiga bag‘ishlab o‘tkazilgan qo‘lingizdagi anjuman to‘plamida yoshlarning navoiyshunoslikning turli tuman yo‘nalishlariga bag‘ishlangan eng sara yigirmaga yaqin maqolalari o‘rin oldi.

Yosh navoiyshunoslarning har yili o‘tkaziladigan ushbu an‘anaviy anjumani navoiyshunoslik ostonasida turgan izlanuvchilar, magistr va talabalar uchun bahsu munozara, munozarash maydoni sifatida bo‘lg‘usi navoiyshunoslarning yangi avlodini tarbiyalashda o‘z o‘rniga ega bo‘ladi.

Anjuman tashkilotchilari

ALISHER NAVOIY VA TOSHLIJALI YAHYOBEY SHAXSIYATI: MUSHTARAK VA FARQLI JIHATLAR

Musulmon Sharqi epik poeziyasi tarixi xamsachilik an'anasi bilan chambarchas bog'liq. Dastavval XII asrda vujudga kelgan xamsa janri sakkiz asrga yaqin vaqt davomida yuzlab javob dostonlarga ega bo'ldi. Sharq adabiyotida birinchi bo'lib «Xamsa» yozgan shaxs buyuk ozarbayjon shoiri *Nizomiy Ganjaviy*dir. U 1170–1204-yillar oraliq'ida birin-ketin 5 ta doston yaratdi, bu dostonlar shoir vafotidan so'ng yaxlit bir to'plamga birlashtirilib, «Panj ganj» («Besh xazina») deb atala boshlandi va keyinchalik «Xamsa» nomi bilan mashhur bo'ldi. [Yusupova, 2016: 98] An'anani davom ettirgan holda bir necha asrlar davomida yuzlab shoirlar muayyan tarzda “Xamsa” yaratishga muvaffaq bo'ldilar. Lekin mashhur xamsanavislar safidan joy olish barchaga ham nasib etmagan. Alisher Navoiydan so'ng unga ergashib, turkiy tilda “Xamsa” yozgan turkiy shoirlardan biri Toshlijali Yahyo Beydir. U XVI asr Usmonlilar davrida yashab ijod etgan shoir, devon va “Xamsa” sohibi hisoblanadi. Yahyo Bey 1498-yilda tug'ilgan. U o'z asarlarida Sangiston, Toshlijoy (toshli yerlar)dan ekanligini e'tirof etadi. Toshlijali taxallusi ham shundan kelib chiqqan. Bolaligida Usmonlilar davlatiga qarashli harbiy bo'linma – Yanicharlar bo'linmasiga olib kelinadi. Ijod bilan birga jangovarlikni ham o'zida tarbiyalab boradi. Toshlijali Yahyobey Sulton Sulaymon taxtga o'tirgani-dan so'ng ijodkor sifatida ham nom qozona boshlaydi.

Yahyo Bey devon sohibi bo'lsa-da, uning turkiy adabiyotdagi asosiy o'rnini “Xamsa” belgilab berdi, desak, mubolag'a bo'lmaydi. Shoirning o'ziga xos xususiyatlardan biri shundaki, u nafaqat “Xamsa”sida, balki g'azallarida ham sodda va tushunarli uslubdan foydalan-gan. Xamsanavislikda Yahyo Beyning yutug'i shundaki, u o'zidan avval yaratilgan “Xamsa”lardan farqli o'laroq, o'z “Xamsa”sini yangicha voqealar va uslub bilan yozdi. O'z asarlari debochalarida shoir buni ta'kidlab o'tadi.

Yahyo Bey qalami o'tkir ijodkor, qilichi o'tkir sarkarda bo'lgan. U o'zining devoni hamda masnaviylarida o'zi haqida so'z yuritar

ekan, jasurligi va janglarda ko‘rsatgan qahramonliklari haqida faxr bilan yozadi:

*İki hüner verdi bana Zü'l-celâl
Biri şecaât biri fazl-u kemâl (“Gulshan ul-anvor”)*

Toshlijali asarlarida, xususan, qasida, musammat va “Xamsa”sida o‘zining askarlik, shoirlik faoliyati haqida juda ko‘plab ma’lumotlar keltiriladi.

Alisher Navoiyning hayoti va ijodi haqida eng ishonchli va asosli ma’lumotlar, albatta, o‘zining asarlarida keltirilgan. Navoiy garchi o‘z tarjimayi holini maxsus yozib qoldirmagan bo‘lsa-da, lekin shoirning deyarli barcha asarlarida uning shaxsiyati, ijodiy va ijtimoiy faoliyati haqida muayyan fikrlar keltiriladi. Xususan, «Vaqfiya», «Munshaot» asarlarida ulug‘ shoirning ijtimoiy faoliyati aks etsa, «Majolis un-nafois», «Xamsa», «Munojot», «Xazoyin ul-maoniy» kabi asarlarida shaxsiy hayoti, «Muhokamat ul-lug‘atayn», «Xamsat ul-mutahay-yirin», «Holoti Sayyid Hasan Ardasher» kabi asarlarida shoir qalamiga mansub ba’zi asarlarning yozilish tarixi bilan bog‘liq ma’lumotlarni uchratamiz [Yusupova, 2016: 98].

Alisher Navoiyning hayoti bilan bog‘liq masalalar, shuningdek, uning o‘z zamondoshlari Abdurazzoq Samarqandiyning «Matla’yi sa’dayn va majmayi bahrayn», Mirxondning «Ravzat us-safo», Xondamirning «Xulosat ul-axbor», «Makorim ul-axloq», «Habib us-siyar», Zayniddin Vosifiyning «Badoye’ ul-vaqoye’», Davlatshoh Samarqandiyning «Tazkirat ush-shuaro», Muiniddin Muhammad al-Zamjiy al-Isfizoriyning «Ravzat ul-jinnot», Abdurahmon Jomiyning «Bahoriston», Zahiriddin Muhammad Boburning «Boburnoma» kabi tarixiy va tazkira asarlarida uchraydi.

«Majolis un-nafois» hamda «Nasoyim ul-muhabbat» tazkiralarda otasini she’rsevar va darveshparvar, ijod va irfon ahliga muhabbatli inson sifatida xotirlaydi. Alisherning tog‘alari Mirsaid Kobuliy va Muhammad Ali G‘aribiy ham tab’i nazmga ega bo‘lib, zullisonayn shoir bo‘lishgan. Bo‘lajak shoir ana shunday muhitda, alohida tarbiya va nazoratda o‘sadi. Kichiklik chog‘idan o‘z davrining mashhur olim-u fozillari davrasida bo‘ladi.

Bu ikki ijodkorning hayot yo‘lini muayyan tarzda qiyoslaydigan bo‘lsak, ular orasida o‘zaro mushtarak jihatlarni kuzatishimiz mumkin

bo‘ladi. Yuqorida biz Yahyo Beyning harbiy sohada ham muayyan tarzda muvaffaqiyatga erishganligi haqida gapirdik. Bizda, garchi, Alisher Navoiyning harbiy mahorati bilan bog‘liq jihati chuqur o‘rganilmagan bo‘lsa ham, Xondamirning “Makorim ul-axloq” asarida quyidagi voqea keltirilganiga guvoh bo‘lamiz. Alisher Navoiy podshoh Husayn Boyqaro saroyida faoliyat yuritgan paytda nafaqat podshohning yaqin maslahatchisi, balki harbiy yurishlarda ham yaqin hamrohi bo‘lgan. Xususan, uning Mirzo Yodgorni yengganligi bilan bog‘liq voqea shoirning buyuk harbiy mahoratidan dalolat bersa, asarda keltirilgan Mavlono Soni‘iy bilan bog‘liq hikoyat uning adolatsizlikka qarshi murosasiz davlat arbobi ekanligini ham ko‘rsatadi. Bu haqda Xondamir shunday yozadi:

“Zolim kishilardan bo‘lgan va bir qancha vaqt a‘lo hazrat saroyida vazirlik kabi yuqori darajaga yetishgan Mavlono Soni‘iy boshiga katta salla o‘rab yurardi. Kunlardan bir kuni uning noma‘qul ishlari olam sohibqironining quyoshdek nur sochuvchi ko‘ngliga ma‘lum bo‘lgach, undan g‘azablanib, uning boshidan sallasini olib tashlashlarini buyurdilar. Shunda o‘sha yerda bo‘lgan tengsiz Amir iqboli baland podshohga yuzlanib, quyidagi misrani tilga oldilar:

Misra:

Chu bori sar sabuk kardiy, sabuk kun bori gardan ham.

(Mazmuni: Boshidagi yukni yengillatgan ekansan, endi bo‘ynidagi yukni ham yengillatgin, ya‘ni, sallasini olib tashladingmi, endi kallasini ham olib tashla.)”[Xondamir, 2018: 35]

Manbalarda Yahyo Beyning Sulton Sulaymon davrida adolatsizlikka qarshi ko‘plab she‘rlar yozganligi, bu borada murosasiz bo‘lganligi haqida ko‘plab ma‘lumotlar bor. Ayniqsa, Sulton Sulaymon og‘li Shahzoda Mustafoni qatl ettirganidan so‘ng yozgan marsiyasi buning yaqqol isbotidir. Marsiyadan parcha keltiramiz:

*Meded meded bu cihanım yıkıldı bir yanı
Ecel celâlîleri aldı Mustafa Hânı
Tohındı mihr-i cemâli bozuldı erkânı
Vebale koydılar âl ile Al-i Osmânı
Geçerler idi geçende o merd-i meydânı
Felek o canibe döndürdi şâh-ı devrânı
Yalancımın kun bühtanı bugz-ı pinhânı
Akıtdı yaşumımı yakdı nâr-ı hicrânı*

*Cinayet etmedi cânî gibi anın cânı
Boguldı seyl-i belâya tagıldı erkânı*

Har ikkala ijodkor o‘z ijodiy faoliyatlarini bevosita kichik she‘rlar yozishdan boshlashgan. Va ikkalasining ham devon sohibi bo‘lganligi, va keyinroq, muayyan tajribaga ega bo‘lgandan kein “Xamsa” yozishga kirishganligi ham ularning ijodiy faoliyatida ham umumiy o‘xshashliklar borligini ko‘rsatadi. Yahyo Bey Toshlijalining “Gulshan ul-anvor” dostoni bevosita Alisher Navoiyning “Hayrat ul-abror” dostoni ta’sirida yaratilganligini uning kirish qismidagi ba’zi baytlardan bilishimiz mumkin:

*Mîr Nevāyi gül-i bî-hârdur
Hamsesi bir nāfe-i Tātār“dur
Sözleridür ışk odınıñ şarşarı
Her biri baħr-ı ğazelüñ gevheri*

Xulosa qilib aytganda, Yahyo Bey Toshlijali Usmonli turklar adabiyotida podshohning eng yaqin kishilardan biri sifatida, ham davlat arbobi, ham ijodkor sifatida faoliyat yuritgan bo‘lsa, Alisher Navoiy Xurosonda Husayn Boyqaroning “amiri muqarrabi” va ijodkor shaxs sifatida faoliyat yuritdi. Ularning har ikkalalari ham buyuk ijodkor bo‘lish bilan birga, kuchli davlat arbobi va harbiylik sohasida yaxshi malakaga ega bo‘lgan shaxslar edi. Har ikkala ijodkor xamsanavislikda o‘z o‘rni va yo‘nalishiga ega bo‘lgan shaxslar sifatida adabiyot tarixida nom qoldirdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Алишер Навоий. Ҳайратул аброр. МАТ. 20 жилдлик. 7-жилд. – Тошкент: Фан, 1991. – Б. 480.
2. Юсупова Д. Ўзбек мумтоз ва миллий уйғониш адабиёти (Навоий даври). Тошкент: Tamaddun, 2016. – Б. 302.
3. Taşlıcalı Yahya. Gulşan ul-anvar. Ayşe Sağlam. – Diyarbakir, 2016. – Б. 380.
4. Ayşe S. Taşlıcalı Yahya Bey ve Hemsesi. Doctora Tezi, 2016. – Б. 1100.
5. Хондамир Ғиёсиддин бинни Ҳумомиддин. Макорим ул-ахлоқ (Яхши хулқлар) / Форсчадан К.Раҳимов таржимаси. Тошкент: Гафур Ғулом, 2015, – Б. 230.

SHARQ MUMTOZ ADABIYOTIDA QOFIYANING O'RNI ("Xamsa" tarkibidagi dostonlar misolida)

Mumtoz adabiyotimizda qofiyaning o'zak tarkibiga ko'ra farqlanuvchi to'rt xil turi mavjud bo'lib, ular: mujarrad, murdaf, muqayyad va muassas deb nomlanadi. Ushbu qofiya turlarining badiiy asarda tutgan o'rnini ham turlicha. Har qanday lirik asarda ijodkor ifodalamoqchi bo'lgan fikr muayyan ma'noda baytlardagi qofiyalarning qo'llanilishiga ko'ra o'z ifodasiga egadir. Xususan, Navoiy ijodida mazkur qofiya turlarining barchasida samarali ijod qilingan. Biz so'z yuritmoqchi bo'lgan Alisher Navoiyning "Xamsa" asari tarkibiga kiruvchi "Farhod va Shirin" va "Layli va Majnun" dostonlarida ham yuqoridagi fikrimizning tasdig'ini kuzatishimiz mumkin. "Farhod va Shirin" dostoni 54 bob, 5782 baytdan iborat, "Layli va Majnun" dostoni esa 38 bob, 3623 baytni tashkil etadi.

Biz shu o'rinda har ikki dostonidagi ayrim boblarining statistikasini keltirish orqali tahlil qilishni rejalashtirdik. Dostonidagi har bir bob o'ziga yarasha maqsad va vazifada bunyod bo'lgan. Navoiyning "Farhod va Shirin" dostonidagi birinchi va ikkinchi boblar Allohga hamd bo'lib, biz quyida birinchi hamdning qofiya tuzilishini keltiramiz:

3-jadval:

1-bob: hamd

| <i>T/r</i> | <i>Qofiya turlari</i> | <i>Qo'llanishi</i> | <i>Foizi</i> |
|-------------------|------------------------------|---------------------------|---------------------|
| 1 | Mujarrad | 36 | 50 |
| 2 | Murdaf | 27 | 37,5 |
| 3 | Muqayyad | 5 | 6,9 |
| 4 | Muassas | 4 | 5,5 |
| | <i>Jami</i> | <i>72 bayt</i> | |

Xuddi mana shu bobning qofiya tizimi "Layli va Majnun" dostonida qay holda ifodalanishini quyidagi jadval yordamida ko'rib chiqamiz va uning o'ziga xos xususiyatlarini tahlil qilamiz:

4-jadval:

| <i>T/r</i> | <i>Qofiya turlari</i> | <i>Qo‘llanishi</i> | <i>Foizi</i> |
|------------|-----------------------|--------------------|--------------|
| 1 | Mujarrad | 42 | 56 |
| 2 | Murdaf | 19 | 25,3 |
| 3 | Muqayyad | 7 | 9,3 |
| 4 | Muassas | 7 | 9,3 |
| | Jami | 75 bayt | |

Har ikki dostonning ham mujarrad va murdaf qofiya turlarida deyarli farqlar sezilmaydi, biroq muassas qofiya turi “*Layli va Majnun*” dostonida muqayyad qofiya bilan aynan bir xil qo‘llanilganligini guvohi bo‘lishimiz mumkin.

Shu o‘rinda savol tug‘ilishi shubhasiz. Nega “*Layli va Majnun*” dostonining hamd qismida muassas va muqayyad qofiyalar “*Farhod va Shirin*” dostoniga qaraganda qo‘llanilish jihatdan ko‘proq hajmni egallagan? Bevosita yuqorida ta’kidlagan nazariyamizga qaytamiz, ya’ni “*qofiya vazn va ritmni yuzaga keltiruvchi asosiy vosita hamdir*”. Bilamizki, “*Farhod va Shirin*” dostoni “...ishqiy sarguzasht dostonlar uchun mo‘ljallangan *hazaji musaddasi mahzuf* vazni (ruknlari va taqti’i: mafoiylun mafoiylun fauvlun V– – – V– – – V– –) da yozilgan”¹. Hazaj bahrining ushbu sodda vazni yozuvchiga qofiyalarni yuzaga keltirishda qiyinchilik tug‘dirmaydi, balki sarguzashtlarni yorqin bo‘yoqlarda akslantirish uchun ham xizmat qilgan. Shuning uchun ushbu doston yozilishida muassas va muqayyad qofiyalardan ko‘proq qo‘llashga ehtiyoj tug‘ilmagan deb o‘ylaymiz.

Mazkur vaznning ilk bor qo‘llanilishi Xorazmiy ijodiga borib taqaladi. U o‘zining o‘zbek adabiyotida ilk noma janriga oid “*Muhabbatnoma*” asari bilan mazkur vazni qo‘llagan va aynan mana shu dostondan so‘ng turkiy adabiyotimizda ishqiy dostonlar mazkur vaznda yaratilishi odat tusiga aylangan. Hazaj bahrining ushbu sodda vazni yozuvchiga qofiyalarni yuzaga keltirishda qiyinchilik tug‘dirmaydi, balki sarguzashtlarni o‘ynoqi vaznda akslantirish uchun ham xizmat qiladi. Faqat bugina emas, dostondagi vaznning tuzilishiga e’tibor qaratganimizda, ruknlarning joylashuvi ham ayni fikrimiz dalilidir. Yana bir bor doston yozilishiga asos bo‘lgan vaznga e’tiborimizni qaratamiz:

¹ Sh.Sirojiddinov, D.Yusupova, O.Davlatov. Navoiyshunoslik. – T.: “TAMADDUN”, 2018.

V--- V--- V--

chizmada keltirilgan vaznning cho‘ziq bo‘g‘inlar soni qisqa bo‘g‘inlarga nisbatan anchagina katta qismni tashkil etadi. Yana shu bilan birgalikda oxirgi (V- – *fauvlun*) mahzuf rukni qofiyalanuvchi so‘zlar qaydli qofiya turi orqali yuzaga kelganida, maqsur (V- ~ *mafoiyl*) shaklini oladi. Ayni vaziyatda bu kabi cho‘ziq unli va cho‘ziq hijolarning mavjudligi doston baytlarining musiqiylikka yaqin va o‘ziga xos ohangga ega bo‘lishiga zamin yaratadi. Ayan shu fikrni “*Layli va Majnun*” dostonida qo‘llanilgan “...hazaj bahrining *hazaji musaddasi axrabi maqbuzi mahzuf* (ruknlari va taqti’i: maf’ulu mafoilun fauwlun, -- V / V – V – / V – –) ga nisbatan ham aytishimiz mumkin. Dostonda mazkur vazn bilan birga qo‘shimcha tarzda *hazaji musaddasi axrami ashtari mahzuf* (ruknlari va taqti’i: maf’ulun foilun fauwlun, – – – / – V – / V – –) vaznining ham qo‘llanilganligini kuzatish mumkin²”. Demak, she’riy o‘lchov tarkibida qisqa bo‘g‘inlar sonining ko‘proq qo‘llanilishi ohangga yengillik va o‘ynoqilik bag‘ishlasa, cho‘ziq bo‘g‘inlar miqdorining yetakchilik qilishi natijasida esa sokin va vazmin ohang vujudga keladi. Bu ko‘proq lirik qahramonning qalb nolalarini izhor qilayotganida yana ham yorqin gavdalanadi. Mazkur dostonida muassas va muqayyad qofiyalardan ko‘proq qo‘llanish vazn talabi bilan sodir bo‘lib, shu bilan birga, asarning ma’lum bir g‘oyalarini ochishga ham xizmat qilgan. Bu kabi qofiyalangan holatlar, eng avvalo, hamd qismidan boshlanadi. Navoiy o‘zidagi qalb kechinmalarini Haq taolaga bayon qilish o‘rinlari, ya’ni *hamd*, *na’t* hamda *munojot* qismlarida bu kabi holatlarni kuzatamiz. Dostonning asosiy qismlariga murojaat qilganimizda ham ayni shu holat yuz beradi, ya’ni qahramonlarning ruhiy iztiroblari ayni mana shu qofiya turlari bilan o‘z aksini topganligiga guvoh bo‘lamiz. Biz yana yuqoridagi fikrimizni tasdiqlagan holda bu kabi qofiyaviy o‘zgarishlar vazn va ritm talabi bilan yuzagan kelgan hodisa ekanligini ta’kidlab o‘tmoqchimiz.

Dostonda keltirilgan misralarda mujarrad qofiyaning qo‘llanilishi baytlarning shakily go‘zalligiga ham xizmat qilgan. Lekin biz baytlarning shakily go‘zalligigina shoir mahoratidan deb ayta olmaymiz, negaki Navoiy ijodidagi qofiya nazmning ham shakily, ham ma’naviy tomoni bilan mutanosibdir. Doston va uning boblari mazmuni qofiya-

² Sh.Sirojiddinov, D.Yusupova, O.Davlatov. Navoiyshunoslik. – T.: “TAMADDUN”, 2018.

ga emas, balki qofiya ularga bo‘ysunadi. Baytlarni qofiya emas, baytlar qofiyani vujudga keltiradi. Ular bir-biri bilan uyg‘unlik kasb etadi. Buni “*Layli va Majnun*”dan olingan quyidagi parcha orqali kuzatamiz:

*Qilmay da’viyi xush adoliq,
Arz ayla, Navoiyo, gadoliq.
Yo Rab, eshigingda ul gadomen,
Kim boshtin ayoqqacha xatomen.*

Misralardagi *ado-gado*, *gado-xato* so‘zlari mujarrad qofiyaning birinchi turi orqali yuzaga chiqqan hamda ushbu so‘zlar ohangdoshlik kasb etish bilan bir qatorda lirik qahramon ruhiyatini ham ifodalashga xizmat qilgan. Navoiy Allohga munojot qilar ekan, o‘zining pushaymonlik, mahzunlik holatini mujarrad qofiya orqali yuzaga keltiradi. Lekin bu holatni ifodalash uchun Navoiy aynan mujarrad qofiyani qo‘llashni niyat qilgan deya olamizmi? Bizningcha, quyilib kelayotgan misralar o‘ziga xos ohang, ritm va qofiya orqali birlashib, yuqoridagi manzarani hosil qilgan va misralarda hosil bo‘lishi kerak bo‘lgan mazmun mujarrad qofiyani talab qilgan.

Dostonda qo‘llanilish jihatdan murdaf qofiya ikkinchi o‘rinni egallaydi. Murdaf qofiya orqali ifodalangan quyidagi baytlarga e’tibor qaratamiz:

*Holing nedurur firoqim ichra?
Fikring nedur ishtiyoqim ichra.*

*...Hajr o‘ti taningni kuydurur chog‘,
Kim sochar ekin ul o‘tqa tufrog‘?*

*Qum uzra yiqilsa jismi zoring,
Kim bor ekin anda g‘amgussoring?*

Mazkur baytlar dostonning XXVI bobidan olingan bo‘lib, Laylining Majnunga yuborgan nomasidan parcha hisoblanadi. Bunda Navoiy ham chiroyli shaklni, ham benazir mazmunni, ham to‘g‘ri uslubni bir jabhada birlashtira olgan. Qofiyaga olingan so‘zlar *firoq* va *ishtiyoq*. Ushbu so‘zlar faqatgina qofiya talabi bilan emas, balki

mazmun jihatdan ham bir-birini talab qilgan. Ikkinchi baytda vaqt (*kuydurur chogʻ*) va unga davo boʻluvchi (*tufrogʻ*) soʻzlari birgalikda qoʻllanilgan va biri ikkinchisini toʻldirgan. Keyingi baytda *zor* va *gʻamgussor* soʻzlari oʻzaro qofiyani hosil qilgan hamda mazkur baytlar murdaf qofiya orqali koʻngil kechinmalari, ruhiyat tasvirini oʻquvchiga ochib bergan.

Muqayyad va muassas qofiyalarning qoʻllanilish oʻrinlari yuqoridagi ikki qofiya turiga nisbatan oz miqdorni kasb etsa-da, lekin ularning ham doston xususiyatini ochishdagi oʻrni oʻziga xosdir. Mujarrad va murdaf qofiya turlari birgalikda butun bir bobda qoʻllanilgan, ammo qolgan ikki qofiya boblardagi ayrim oʻrinlarda baytga ulugʻvorlik, maʼlum maʼnoda esa taʼkidlab koʻrsatiluvchi holatlarni ifodalashda foydalanilgan.

Navoiy ijodida har bir unurning oʻziga xos oʻrni boʻlgani kabi qofiya ham uning ifodalamoqchi boʻlgan fikrini maʼlum maʼnoda oʻzida mujassamlashtiradi. Shuningdek, qofiya ritmik muvozanatni vujudga keltirishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Qofiyani chuqurroq oʻrganish davomida ijodkorning ifodalamoqchi boʻlgan maqsadlarini teranroq anglashimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Абдурахмон Жомий. Рисолаи аруз / Таржимон, шарҳ ва изоҳлар муаллифи Д.Юсупова. – Тошкент: TAMADDUN, 2014. – Б. 100.
2. Алишер Навоий. Хамса: Ҳайрат ул-аброп. Фарҳод ва Ширин. ТАТ. 10 жилдлик. – Тошкент: Фафур Фулом номидаги НМИУ, 2011. Ж.6. – Б. 808.
3. Алишер Навоий. Хамса: Лайли ва Мажнун. Сабъаи сайёр. ТАТ. 10 жилдлик. – Тошкент: Фафур Фулом номидаги НМИУ, 2011. Ж.7. – Б. 679.
4. Акбарова М. Алишер Навоий ғазалларида қофия: Филол. фан. номз. дис. ... автореф. – Тошкент, 1997. – Б. 26.
5. Рустамов А. Навоийнинг бадий маҳорати. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1979. – Б. 216.
6. Юсупова Д. Алишер Навоий “Хамса”сида мазмун ва ритмнинг бадий уйғунлиги. – Тошкент: MUMTOZ SOʻZ, 2011. – Б.144.
7. Ҳожиаҳмедов А. Шеърӣ санъатлар ва мумтоз қофия. – Тошкент: Шарқ НМК, 1998. – Б.158.
8. Sh.Sirojiddinov, D.Yusupova, O.Davlatov. Navoiyshunoslik. – T.: “TAMADDUN”, 2018. – Б. 518.

“TARIXI ANBIYO VA HUKAMO” ASARINING MANBASHUNOSLIKDA TUTGAN O‘RNI

Alisher Navoiy ijodiga nazar tashlansa, uning mavzu tanlashdagi o‘ziga xosligi ko‘zga tashlanadi. Adibning filologik asarlari o‘zining betakrorligi, adabiy mavzudagi asarlari badiiyati bilan ajralib tursa, tarixiy mavzudagi asarlari ham uslub, ham badiiyat jihatidan o‘zga-cha. Muallifning “Tarixi anbiyo va hukamo” asari islom dini tarixi bilan bog‘liq rivoyatlar va adabiy asarlarni, xususan bir qator payg‘ambarlar hayotini, qator Yevropa donishmandlarini bilib olish uchun muhim manbadir. “Ayni vaqtda Alisher Navoiyning bu asarlari o‘zbek badiiy nasrining qadimiy va go‘zal namunalaridir”³.

Navoiyning o‘zbek tili va adabiyotiga qo‘shgan hissasi, uning turkiy tilni misli ko‘rilmagan cho‘qqiga olib chiqqani bilan o‘lchanadi. Alisher Navoiy davriga qadar eng yaxshi adabiyot namunalari, xususan, tazkiralalar, asosan, arab va fors-tojik tillarida yozilgan edi. XV asrga qadar turkiy tilda yozilgan tazkiralalar nihoyatda kam bo‘lgan. Eng yirigi Rabg‘uziyning “Qisas ul-anbiyo” asaridir.

Alisher Navoiy o‘z oldiga turkiy tilning butun bor imkoniyatini yuzaga chiqarishni maqsad qilgan edi. Va bu yo‘lda u turkiy tilida tarix, falsafa va adabiyot sohalariga daxldor tazkiralarni maydonga keltirdi. “Bular tarix va falsafaga oid “Tarixi anbiyo va hukamo”, “Tarixi muluki Ajam”, avliyolar, shayxlar faoliyatiga bag‘ishlangan “Nasoyim ul-muhabbat” hamda zamondosh shoirlardan bahs yurituvchi “Majolis un- nafa’is”dir. Shuni eslatish joizki, bulardagi mushtarak xususiyat voqea va shaxslar faoliyati zikr qilinganligida ko‘rinsa-da, ammo har bir asarning mavzui bilan bog‘liq o‘ziga xos tuzilishi va bayon uslubi bor. Shu jihatdan bu asarlarning har biri alohida ilmiy-adabiy yodgorlik sifatida qaraladi”⁴.

“Tarixi anbiyo va hukamo” – “Payg‘ambarlar va hukmdorlar tarixi” deb nomlanuvchi bu asar aslida Alisher Navoiy tomonidan

³ http://ziyouz.com/index.php%3Foption%3Dcom_content%26task%3Dview%26id%3D5182

⁴ Valixojayev B. Nizomiddin Mir Alisher Navoiy (Davri, zamondoshlari, hayoti, faoliyati, merosi). <http://kh-davron.uz/kutubxona/alisher-navoiy/botirxon-valixojayev-alisher-navoiy-davri-4.html>

“Zubdat ul-tavorix” (“Tarixlar qaymog‘i”) deb atalgan asarning birinchi qismidir. Asarning yozilish tarixi 1485-1498-yillar oralig‘ida deb taxmin qilinadi.

“Tarixi anbiyo va hukamo” ikki qismdan iborat bo‘lib, birinchisida Odam ato avlodlaridan chiqqan payg‘ambarlar, jumladan Nuh, Ibrohim, Ismoil, Ya‘qub, Yusuf, Dovud, Sulaymon va Iso kabilarning faoliyatidan hikoya qilingan. Misol uchun:

*Odamniki, haq lutf ila mavjud etti,
Majmu‘i mulk xaylig‘a masjud etti.
Oxir tanidin ruhni manqud etti,
Ul nav‘ki, nobud edi, nobud etti⁵.*

Ikkinchi qismda Luqmoni Hakim, Fishog‘urs, Suqrot, Aflotun, Aristotilis, Buzurjmehr va boshqa hakim – faylasuflar haqida muxtasar so‘z yuritilgan.

Misol uchun:

*Luqmonniki ba‘zi dedilar payg‘ambar,
Ba‘zi dedilar hakimi pokiza siyar.
Uch ming yashabon bu dayrni qildi maqar,
Ming muncha ham o‘lsa, qilg‘uluqdur bu safar⁶.*

“Asarning payg‘ambarlarga bag‘ishlangan qismida qismida Yusuf a.s. zikrining avvalida o‘zining ijodiy niyatini ifoda etib, “umr omon bersa, turk tili bila... bu qissa nazmin ibtido qilib, intihosiga yetkur-gay”, - deb ham yozadi. Ammo bu nazmiy qissa yozilmagan”⁷.

“Tarixi anbiyo va hukamo asari” Alisher Navoiyning payg‘ambarlar va olimlar haqida nihoyatda chuqur bilimga ega ekanligini namoyish etadi. Ulug‘ mutafakkir bu sohadagi bilimlarini bayon etish bilan, o‘tgan buyuk siymolar haqida hikoya qilish, ularning hikmatomiz so‘zlarini keltirish bilan yoshlarni komil inson bo‘lib yetishuvlari

⁵ Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami. 16-jild. Tarixi anbiyo va hukamo. – Toshkent: Fan, 2000. – B. 99-100.

⁶ O‘sha asar. – Toshkent: Fan, 2000. – B. 166.

⁷ Valixo‘jaev B. Nizomiddin Mir Alisher Navoiy (Davri, zamondoshlari, hayoti, faoliyati, merosi). <http://kh-davron.uz/kutubxona/alisher-navoiy/botirxon-valixojayev-alisher-navoiy-davri-4.html>

lozimligini uqtirganday bo‘ladi. Shunisi diqqatga sazovorki, asarda tilga olingan shaxslar – payg‘ambarlar ham, hakim-faylasuflar ham Sharq va G‘arbga mansub ulug‘ siymolardir. Demak, Alisher Navoiy asarda umuminsoniy qadriyatlar haqida so‘zlaydi va ulardan bahramand bo‘lishga da‘vat etadi.

Kitobning diqqatga sazovor jihati shundaki, Alisher Navoiy barcha dinlar payg‘ambarlariga birdek hurmat va ehtiromda bo‘lgan. Masalan, “Dovud binni Isho” – “Dovud Ishoning o‘g‘li” hikoyasida Dovud payg‘ambar haqida quyidagilarni bayon qiladi:

*Dovud binni Iysho a. s. Yahudo avlodidindur. Aning zikri ijmoili bila o‘tti. Juzviy tafsil zarurdur. Ashmuil a.s. zikri dog‘i aning zikrida lozim kelur. Va Dovud a. s. ahvolining tafsili bukim,, Iyshoning o‘n uch o‘g‘li bor erdi. Dovud a.s. Borchadin kichikroq erdi va haqir jussaroq erdi va girih manzarroq erdi va Iysho ani shubonliqqa ta‘yin qilib erdi va anga ajib holot mushohada bo‘lur erdi*⁸.

Dovud payg‘ambar davrida Bani Isroilda (yahudiylar o‘rtasida) o‘lat tarqalgani va bu ofatdan odamlar o‘lgani haqida hikoya qilinadi. Ana shu paytda u (Dovud payg‘ambar) va uning maslakdoshlari Baytul Muqaddas (Quddus) shahrida tepalikka ko‘tarilishadi va bosh kiyimisiz o‘latni to‘xtatishni so‘rab Allohga yolvorishadi. “Bosh kiyimsiz ibodat” dalilining o‘zi shoirning boshqa din va uning payg‘ambariga hurmatini bildiradi⁹.

Nasroniy dini payg‘ambari Iisus haqida Alisher Navoiy shunday yozadi: Iso ta‘limotidan biri Alloh – Xudoning bittaligi va uning bilan insonning mushtarakligidir. Aynan u ma‘lum vaqtdan keyin yangi, so‘nggi payg‘ambar Muhammad paydo bo‘lishini oldindan xabar qilgandi. Yaratganning so‘zi: “Va Maryamning o‘g‘li Iso aytadi: “*va iz qola Isabnu Maryama yo bani isroila inni rasulullohi ilaykum musaddiqan limo bayna yadayya minat-tavroti va mubashshiran birasulin ya‘ti min ba‘dismuhu Ahmadu*”¹⁰, ya‘ni: “Eslang, Iso binni Maryam: “*Ey Bani Isroil, albatta, men Allohning sizlarga (yuborgan)*

⁸ Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami. 16-jild. Tarixi anbiyo va hukamo. – Toshkent: Fan, 2000. – B. 154.

⁹ Xidirnazarov S. Alisher Navoiyning “Tarixi anbiyo va hukamo” asari nima haqda so‘zlaydi? <http://zarnews.uz/uz/post/alisher-navoiyning-tarixi-anbiyo-va-hukamo-asari-nima-haqda-sozlaydi>

¹⁰ Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami. 16-jild. Tarixi anbiyo va hukamo. – Toshkent: Fan, 2000. – B. 174.

payg'ambaridurman. (Men) o'zimdanda oldingi Tavrotni tasdiqlaguvchi va o'zimdanda keyin keladigan Ahmad ismli bir payg'ambar haqida xushxabar berguvchi bo'lgan holda yuborildim... " ("Saf" – 6) ”¹¹.

Muqaddas Qur'on bunga guvohlik beradi, deb yozadi Alisher Navoiy. Muqaddas Iso yerdagi ne'matlardan foydalanmagan. Uning ustida chopon, qo'lida bitta tayog'i bo'lgan xolos. Doimiy yashash joyiga ega bo'lmagan, hamma vaqt kezib yurgan. Yegulik topish, kundalik zarur narsalarga ega bo'lish haqida qayg'urmagan. Duch kelgan taomni tanovul qilib, qanoatlanib ketavergan. Piyoda yurish mashaqqatidan xalos bo'lishi uchun unga eshakda yurishni taklif qilishganda u rad etgan. Unga doimo bir joyda yashashni taklif etishganda, yana rad qilgan. U bo'ydoq hayot kechirish e'tiqodi bilan shuhrat qozongan. Uning ko'rsatgan mo'jizasidan biri – ko'rshapalak yaratgani hisoblanadi. U uning shakl-shamoyilini loydan yaratgan va nafasidan unga jon kirgan.

Kitobning ikkinchi bo'limi “Hukamo zikri” – “Olimlar haqida ma'lumotlar” deb ataladi. Unda mitti hikoyalar tarzida Jolinus – Galej, Fishogure – Pifagor, Batlimus – Ptolomey, Jomosp, Balinos – Pliniy, Aflotun – Platon, Suqrot – Sokrat, Aristotalis – Aristotel kabi qadimgi dunyo olimlari haqida ma'lumotlar keltiriladi.

Ushbu kitobni o'qish, o'quv masalalarida Navoiy ijodi o'rganilayotganda o'quvchilarga mazmun-mohiyatini chuqur tushuntirish ular-da diniy va dunyoviy bilimlarni puxta egallashda katta yordam beradi.

Demak, “Tarixi anbiyo va hukamo” asari Alisher Navoiyning umumiy tarixni muxtasar tarzda o'zbek tilida yozish niyatining birinchi qismini tashkil etib, unda umumbashariy tarixga bir nazar tashlangan va payg'ambarlar hamda faylasuf hakimlardan ayrimlari to'g'risida fikr yuritilgan.

Asarning manbashunoslikdagi o'rni shunda ko'rinadiki, adib har bir payg'ambar va hukmdorga o'ziga xos yondashgan, ularning tarixini muxtasar ochib berishga harakat qilgan. Bunda muallif o'zidan avval yaratilgan manbalarga bevosita murojaat etgani, tarixni yaxshi o'rgangani qo'l kelgan. Shu bois ham bu asar payg'ambarlar tarixini o'rganishda muhim manbalar qatoriga qo'shilgan.

Asar adabiy manbashunoslik jihatidan ham o'rganilishga loyiq deb hisoblaymiz, zero muallif uslubi bizni shu qarorga kelishimizga

¹¹ O'sha asar. – Toshkent: Fan, 2000.

turtki bo‘ldi. Asarda tarixiy hikoyalar keltirilar ekan, muallif ora orada she‘riy parchalar ham keltirib o‘tgan. Bu she‘rlar o‘zining mazmuni va badiiyligi bilan har bir o‘quvchini o‘ziga jalb etadi. Shu bois ham asar adabiy manbashunoslik tadqiqi obyektini bo‘la oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alisher Navoiy. Tarixi anbiyo va hukamo. Mukammal asarlar to‘plami. 16-jild. – Toshkent: Fan, 2000.
2. Valixo‘jaev B. Nizomiddin Mir Alisher Navoiy (Davri, zamondoshlari, hayoti, faoliyati, merosi). <http://kh-davron.uz/kutubxona/alisher-navoiy/botirxon-valixojayev-alisher-navoiy-davri-4.html>
3. http://ziyouz.com/index.php%3Foption%3Dcom_content%26task%3Dview%26id%3D5182
4. Xidirnazarov S. Alisher Navoiyning “Tarixi anbiyo va hukamo” asari nima haqda so‘zlaydi? <http://zarnews.uz/uz/post/alisher-navoiyning-tarixi-anbiyo-va-hukamo-asari-nima-haqda-sozlaydi>

FAYZULLAYEVA Sevara,

Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti magistranti

AVAZ O‘TAR IJODIDA ALISHER NAVOIY AN‘ANALARI

XIX asr ikkinchi yarmi XX asr boshlarida Xorazm tarixida badiiy ijod rivojlangan davr bo‘ldi. Adabiyot musiqa va badiiy ijodning ko‘pgina sohalarida iste‘dodlar yetishib chiqib, Xorazm adabiy muhitini vujudga keltirdi. Bu adabiy muhitda ko‘plab ma‘rifatparvar ijodkorlar: Shermuhammad Munis, Muhammad Rizo Ogahiy, Komil Xorazmiy, Muhammad Rahimxon Feruz, Ahmad Tabibiy, Muhammad Yusuf Bayoniy, Mutrib Xonaxarobiy, Muhammad Yusuf Chokar, Abdu-razzoq Faqiriy, Safo Muranniy, Komiljon Devoniy kabi shoirlar sermahsul ijod qilishdi. Ular orasida shoir Avaz O‘tar o‘g‘li ijodi o‘zining teran mazmuni, janr xususiyatiga ko‘ra rang-barangligi bilan alohida ajralib turadi. Uning lirik merosida ko‘p asrlik adabiy an‘analarga izdoshlik, ularni mazmunan boyitish va shaklan takomillash-tirishga qaratilgan yangicha yondashuvni ko‘rishimiz mumkin. Sharq mumtoz adabiyotiga xos bo‘lgan hazrat Alisher Navoiy ijodiga izdoshlik Avaz O‘tar she‘riyatida ham asosiy o‘rin egallaydi. Profes-sor A.Hayitmetov buni alohida ta‘kidlab shunday deydi: “Avaz O‘tar

o'g'lining she'riy merosi Alisher Navoiyning lirik merosi hajmiga yaqin bo'lib, o'zbek adabiyoti tarixida Navoiydan keyin lirika sohasida bunchalik sermahsul ijodkor kam" [1, 1997: 42].

Avaz O'tar she'riyatida Alisher Navoiy ijodiy an'analari uch usulda davom etgani kuzatiladi:

1. G'azallariga tatabbular bitish.
2. Muxammaslariga taxmislari bog'lash.
3. Navoiy "Xamsa"sigacha izdoshlik.

Avaz O'tar ijodining ilk davrlaridanoq Navoiy g'azallaridan ilhomlanib, ularga tatabbu bog'laganini guvohi bo'lamiz. Bu orqali Avaz O'tar buyuk shoir ijodxonasidan saboq olib, she'riyatdagi mahoratini oshirgan. Tatabbu so'zining lug'aviy ma'nosiga qaraydigan bo'lsak bu so'z "biror narsaning ketidan tushish", "izidan borish"ni anglatadi. Adabiyotshunoslikda esa adabiy istiloh sifatida biror shoir she'ridan ta'sirlanib undagi vazn, qofiya, radif va obrazlar tizimini saqlagan holda asarlar yaratish ekani ma'lum. Avaz O'tarning Navoiy g'azallariga bitgan tatabbulari uning she'riyatdagi mahoratini ko'rsatgan. Bunday g'azallar shunchaki ijodiy an'ana mahsuli emas, balki Navoiy g'azallaridagi mavzu va uning mazmun mohiyati, poetik mukammalligi uni hamisha o'ziga rom etib kelganligini ko'rishimiz mumkin. Jumladan, Navoiyning "Shayx" radifli g'azaliga yaratgan tatabbusi bunga dalildir. "Shayx" radifli g'azali "Navodir ush-shabob" devonidan 112-raqam ostidan o'rin olgan. Avaz O'tarning Navoiy g'azaliga bog'lagan tatabbusida shoir g'azalining shakl belgilari; vazn, qofiya, va radif, mazmuni, obrazlari, shuningdek, tasviriy vositalari ham saqlanganini ko'ramiz. Avaz O'tar g'azali quyidagi matla' bilan boshlanadi.

*Ichib tinmayin dayr aro boda shayx,
May uchun qilur rahn sajjoda shayx.*

G'azal mutaqoribi musammani mahzuf vaznida yozilgan. G'azaldagi shayx bosh obrazi Navoiy g'azalida ta'kidlangan soxta shayx. Navoiy shayxlarni avval ikkiga: asl shayxlar hamda soxta shayxlarga bo'lib oladi. Avaz O'tar ham g'azalda soxta shayxni nazarda tutganligini aynan matla'dan bilib olishimiz mumkin. Matla' mazmuni quyidagicha: shayx mayxonada betinim may ichib joynamozini garov-

ga qo‘yadi. Navoiy g‘azali sof tasavvufiy ruhda yozilgan. Buni g‘azalning birinchi misrasidanoq bilishimiz mumkin.

*Meni ishqdin man etar soda shayx,
Dema soda shayx, aytkim, loda shayx.*

Matla‘da tilga olingan shayx ishqni inkor etadi. Bu orqali Navoiy soxta shayxni tanqid qiladi. G‘azalning ikkinchi misrasida esa shoir ruju san‘atidan foydalanib soda shayxni yanada kuchliroq salbiy bo‘yoq bilan loda shayx deydi.

*Ne mumkin yorug‘likki andin esa,
Jaholatni rohida aftoda shayx.*

Ikkinchi misrada Avaz O‘tar jaholat yo‘liga mukkasidan ketgan shayxdan qanday yorug‘likni kutish mumkin deydi. Navoiyda esa bu ma‘no quyidagicha izohlangan edi.

*Yorug‘luq emas mumkin andinki, bor,
Zalolat tariqida aftoda shayx.*

Tasvvuf kishilari ko‘nglida o‘zgacha yorug‘lik bo‘ladi. Bu yorug‘lik ilohiy ishqdan hosil bo‘lgan bo‘ladi. Yuqoridagi baytda esa soxta shayxdan yorug‘lik kutib bo‘lmaydi, chunki u zalolatga mukkasidan ketgan. Zalolat – e‘tiqoddan adashish, yo‘lni yo‘qotish degani.

*Surarga riyo zavraqin har sari,
Asosin qilur o‘ylakim xoda shayx.*

Shayx o‘z hassasini ikkiyuzlamachilik qayig‘ini har tomon suradigan xoda ya‘ni eshkak qilib olgan. Ushbu bayt mazmuni deyarli ustozniki bilan bir xil. Navoiy bunday deb yozgan edi.

*Riyo bahri ichra ta‘ma zavraqin,
Solibtur asodin tutub xoda shayx.*

Ushbu baytlar qiyosi bu she‘r Avazning ilk o‘rganish davri ijodiga mansubligini ko‘rsatadi. Ikkala g‘azalning umumiy mazmun mohi-

yati bir xil, ya'ni oddiy xalq o'zini shayx ko'rsatib yurgan soxtakor, hiylagar, tamagir kimsalardan ogoh bo'lishi kerak. Ularga ergashib ketish jamiyatning buzilib ketishiga sabab bo'lishi mumkinligi aytilgan. Maqta'da Avaz O'tar shunday deydi:

*Avaz xizmat aylab duosini ol,
Jahon ichra topsang bir ozoda shayx.*

Bayt mazmuni, lirik qahramon ya'ni shoir o'ziga murojaat qilib agar jahon ichra bir haqiqiy shayxni topsang, unga xizmat aylab duosini ol deb ta'kidlaydi.

Avaz O'tar Navoiydan qariyb besh asr keyin ijod qilgan bo'lsa ham hazrat ta'kidlagan soxta shayxlar u yashagan davrda ham jamiyatni orqaga tortadigan jaholatga sababchi kishilar sifatida e'tirof etadi. Shoir ularga ergashib ketish jamiyat uchun og'ir og'riqlar paydo qilishi, kutilmaganda ijtimoiy- siyosiy muammolar tug'dirishini juda yaxshi bilgan.

Xulosa qilib aytganda, Avaz O'tar she'riyatda Alisher Navoiy ijodini munosib davom ettirdi. Shoir asarlaridagi yetakchi g'oyalarni o'z zamonasi talabiga moslab rivojlantirdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abduqodir Hayitmetov. Avaz lirikasida janr rang-barangligi. Adabiy merosimiz ufqlari. – Toshkent: O'qituvchi, 1997. – B. 42-47.
2. Alisher Navoiy. Navodir ush-shabob. Mukammal asarlar to'plami. Yigirma tomlik. To'rtinchi tom. – Toshkent: Fan, 1989. – 526 b.
3. Avaz O'tar. Saylanma. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1984. – 366 b.

*MAMAJONOVA Mashhura,
Namangan davlat universiteti magistranti*

NAVOIY SHE'RIYATIGA XOS AYRIM JUFT SO'ZLAR XUSUSIDA

Ulug' shoir Alisher Navoiy o'zining o'lmas she'riy va nasriy asarlarida ona tilimizning beqiyos so'z boyliklari, cheksiz ifoda imkoniyatlarini bor jozibasi va latofati bilan alohida yuksak did orqali namoyon etgan. Yildan yilga uning serqirra ijodiy merosini har

tomonlama chuqur o'rganish, uni targ'ib qilish bo'yicha salmoqli ishlar ko'lami ortib bormoqda. Shoir tavalludining 580 yilligi munosabati bilan prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan qabul qilingan qarorda: **"...yangi Uyg'onish davri – Uchinchi Renessans poydevorini yaratayotgan bugungi kunda Alisher Navoiyning bezavol adabiy merosi misolida o'zbek adabiyoti va madaniyatini chuqur o'rganish va ommalashtirish har qachongidan ham muhim ahamiyat kasb etmoqda"** [1,1] degan masalaning navoiyshunos tadqiqotchilar oldiga ko'ndalang qo'yilishi esa ularga, xususan, yosh izlanuvchilar zimmasiga Alisher Navoiy asarlarida teran ifoda topgan milliy va umuminsoniy g'oyalarning jahon tamaddunida tutgan o'rnini, shuningdek, mutafakkirning adabiy-ilmiy merosini mamlakatimizda va xalqaro miqyosda yanada chuqur tadqiq qilish bilan bog'liq yuksak mas'uliyatli vazifani yuklaydi.

Alisher Navoiy leksikasi tadqiqi bo'yicha ishlarda tadqiqtalab masalalarning talaygina ekanligini kuzatish mumkin. Shulardan biri juft va takroriy so'zlar masalasidir. Shoir asarlari leksikasida juft va takroriy so'zlar salmoqli o'rin egallaydi. Mazkur so'zlarning asar ta'sirchanligi, jozibadorligi va o'qishlilikini ta'minlashdagi roli o'ziga xosdir. Shuningdek, ularning leksik-semantik, grammatik, badiiy-uslubiy xususiyatlarini yoritilishi ijodkorning so'z qo'llash borasidagi nozik didi va so'zga talabchanligidagi yangi qirrasini ko'rsatib beradi.

Shoir ijodida hozirgi o'zbek adabiy tilida barcha turkum doirasida uchraydigan juft so'zlarning turlarini uchratish mumkin. Qismlarni esa, asosan, *-u* bog'lovchisi orqali bog'lanadi. Masalan, *o'l-u quruq, dard-u balo, mehr-u vafo* kabi. Hozirgi o'zbek tilida esa bunday birikish ayrim holatlardagina kuzatiladi.

Hozirgi o'zbek adabiy tilida ba'zi juft so'zlar qismlarining o'rnini almashtirib qo'llash mumkin bo'lsa-da (*asta-sekin, sekin-asta*), aksariyat juft so'z qismlarining o'rni qat'iy belgilangan va ularning o'rnini o'zgartirib bo'lmaydi. Navoiy g'azallarida bu qat'iylik belgisi sezilmaydi:

*Ko'z-u o'g'zingdin ketarga bor-u yo'q oshub-u ranj,
Sabr-u ishqim sadqa, ya'nikim yo'q-u borim fido.* [2,49]

"Bor-u yo'q" ixtiyotida bo'lgan hamma narsa ma'nosini ifodalab, hozirgi o'zbek tilida *bor-yog'I* shaklida qo'llanadi.

*Chiqdi jondin paykar aylab, noz-u husn aylab,
Zor ul paykarga jon, vola bu husn-u noza. [2,109]*

Keltirilgan misollarda juft soʻz qismlarining oʻrni shunchaki almashibgina qolmay, oʻziga xos badiiy yuk tashishga xizmat qiladi. Sheʼriy asarlarda soʻz oʻrinlarining bunday almashinuvi tard-u aks deb yuritiladi, yaʼni sheʼr misralarining birinchisida yonma-yon kelgan soʻzlar, yoki soʻz birikmalarining ikkinchi misrada oʻrin almshtirib qoʻllanishi bilan bogʻliq sheʼriy sanʼat tard-u aks hisoblanadi [3,89].

Gʻazallarda soʻzlarning juftlashuvi polisemantik soʻzlarning xususiy semalarini oydinlashtirishda ham ahamiyatlidir. Bu oʻziga xoslik shoir sheʼrlarida uchraydigan *aql* soʻzi misolida yorqin namoyon boʻladi. Kishining fikrlash qobiliyatini ifodalovchi *aql* soʻzi) oʻziga xos sinonimlari bilan munosabatga kirishib juft soʻz hosil qiladi. Juftlashish natijasida umumlashtirish, jamlash munosabati bilan birgalikda qismlar oʻrtasidagi umumiylik-xususiylik munosabatlari ham kuzatiladi.

Es-hush maʼnosi:

*Soqiyo netkay meni ul nav qilsang mastkim,
Aql-u hushimdin nishon, balkim asar ham boʻlmas. [2,46]*

Idrok etish bilan bogʻliq **fahm, farosat** maʼnosi:

*Chiqdi aql-u fahm ila sabr-u koʻngul tan mulkidin,
Chiqmayin har lahza zahmat berguchi jondur manga.*

Donishmandlik maʼnosi:

*Aql-u donnish lofini urgan kʻngul yigʻlay yuruy,
Ul parivash hajrida devona boʻldi oqibat. [2,79]*

Keltirilgan misollarda *aql* soʻzi *hush, fahm, farosat, donnish* soʻzlariga nisbatan umumiy tushuncha ifodalasa, quyidagi juft soʻz tarkibida xususiylik maʼnosini kasb etadi:

*Soqiyo day shiddatidin aql-u his betob erur.
Chorasi jomi bilurin ichra laʼli nob erur. [2,168]*

His sezgi demakdir. Navoiy sezgining oʻnta turini farqlaydi. Beshta tashqi (koʻrish, eshitish, hidlash, sezish, totish) va beshti ichki (mushtarak his, hayol, bahm, hofiza, tasarruf qilish) [3,774]. Demak, ular orasida fikrlash bilan bogʻliq aqliy sezgi (hayol) his qilishning bir

turi – xususiy belgisi hisoblanadi. Quyidagi keltirilgan baytda esa *aql* so‘zi ma’nolari bir-biriga yaqin bo‘lgan so‘zlarning juftlash tamoyiliga ko‘ra *din* so‘zi bilan juft so‘z hosil qilgan.

*Ey Navoiy aql-u din yag‘mo qilur davron mayi,
Chiq ravon bu bazmdin filjumla hushing boride.* [2,45]

Demak, eski o‘zbek tilini har tomonlama rivojlantirgan katta fasohat egasi Alisher Navoiy she’riy devonida birgina *aql* so‘zini o‘ziga xos ma’nolari noziklari bilan birga juft qo‘llaydiki, bu shoirning so‘z qo‘llashdagi yuksak mahoratidan darak beradi. Hozirgi o‘zbek adabiy tilining leksik qatlamini boyitishda shoir tomonidan qo‘llangan juft so‘zlarning o‘rni beqiyos.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Мирзиёев Ш. “Буюк шоир ва мутафаккир Алишер Навоий таваллудининг 580 йиллигини кенг нишонлаш тўғрисида”ги қарор // Халқ сўзи, 2020, 19.10.
2. Шоабдурахмонов Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: Ўқитувчи, 1980.
3. Алишер Навоий. “Ғаройиб ус-сиғар”. Мукамал асрлар тўплами. 20 жилдлик, 3-жилд. – Тошкент, 1980.
4. Бафоев Б. Навоий асарлари лексикасининг баъзи масалалари // Навоий ва ижод сабоқлари. – Тошкент: Фан, 1981.
5. Навоий асарлари луғати. Тузувчилар: Шамсиев П., Иброҳимов С. – Тошкент, 1972.

*NAFASOVA Muxlisa,
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti talabasi*

“SADDI ISKANDARIY” DOSTONIDA QO‘LLANILGAN ARABCHA VA FORS-TOJIKCHA O‘ZLASHMALAR

Alisher Navoiy nafaqat o‘zbek tili, balki fors-tojik tillari shu bilan birga arab tilini ham yaxshi bilgan. Shoir ilmiy asarlarni arab tilida va badiiy asarlarni, doston-u to‘rtliklarni fors-tojik tilida yozish an’anaga aylangan bir davrda o‘zbek tilining ham badiiy, ham ilmiy asarlar yaratish uchun o‘ziga xos boy imkoniyatlarga ega ekanligini isbotladi.

Navoiy arab, fors-tojik hamda o‘zbek tillarining bir-biridan farqli, o‘xshash va o‘ziga xos jihatlarini ochib bergan. U fors-tojik yozuvchilari, so‘z san’atkorlari bilan ijodiy musobaqalashdi, bahslashdi. Bu musobaqada katta muvaffaqiyatlarga erishib, o‘zbek tilining leksik hamda grammatik boyliklarini, o‘ziga xos til xususiyatlarini namoyish etdi.

Alisher Navoiy o‘zining “Mezon ul-avzon” asarida shunday yozadi “...Ajam shuarosi va fors fusahosi har qaysi uslubdakim, so‘z arusg‘a jilva va namoyish berib erdilar, turk tili bila qalam surdum va har nechuk qoidakim, ma’ni arkabig‘a ziynat va oroyish ko‘rguzub erdilar, chig‘atoy lafzi bilan raqam urdum”. Shunday ekan, Alisher Navoiy o‘z asarlarida o‘zbek tilining leksik boyliklaridan, til xususiyatlaridan, antonim, sinonimlari va omonimlaridan, xalq maqollari hamda matallaridan, frazeologik birikmalaridan, jumla tuzilishidan keng foydalangan.

O‘zbek tili davrlar, asrlar mobaynida shakllanib, sayqallanib, boyib bordi. Buning asosiy sababi o‘zbek tiliga boshqa tillardan kirib kelgan, ya’ni o‘zlashgan so‘zlardir. O‘zlashma so‘zlar, turli tillardan kirib kelgan so‘zlar bo‘lib, bular quyidagilar: arab, fors-tojik, rus, fransuz, ispan, ingliz va boshqalar hisoblanadi.

Alisher Navoiy o‘zbek tili leksik jihatdan fors-tojik tilidan boy ekanligini ham ta’kidlaydi. Shoir “Saddi Iskandariy” dostonida o‘zbek tilining o‘ziga xos leksik xususiyatlarini ko‘rsatar ekan, o‘z navbatida arab, fors-tojik tilining leksik boyliklaridan ham foydalanadi. Bundan tashqari, ayrim tushunchalarni ifodalash uchun boshqa tildan so‘z olish zarur va shart deb bildi. Chunki arabcha, forsha, tojikcha so‘zlarni ko‘proq ishlatishni o‘sha davr adabiy janr va uslubi ham talab qilar edi.

Darhaqiqat, “Navoiy arab tilidan so‘ng uch (turkiy, forsiy va hind) tilini “asl va mo‘tabar” deb hisoblab, ushbu tillarning kelib chiqishi Nuh payg‘ambarning uch o‘g‘li - Yofas, Som va Horun bilan bog‘lanishini aytib o‘tadi. Abu Turk laqabi bilan mashhur bo‘lgan Yofas payg‘ambarlik toji bilan sarafroz va rasullik mansabi bilan mumtoz etilganligini ta’kidlaydi”¹². “Saddi Iskandariy” dostonida fors-tojik so‘zlari muhim o‘rin tutadi. O‘zlashma so‘zlar bir necha

¹² Navoiyshunoslik (Darslik)/ Shuhrat Sirojiddinov, Dilnoza Yusupova, Olimjon Davlatov. Toshkent: Tamaddun, 2018. 214-bto

turlarga bo‘linadi. Dostondagi o‘zlashmalarni guruhlarga bo‘lish orqali ularni tavsiflash maqsadga muvofiq bo‘ladi, deb hisoblaymiz.

1) *Shaxs oti va kasb oti kabi arabcha, fors-tojikcha o‘zlashmalar:*

Muhandis shiori taammul ishi,
Tahammulliq ul nav’ bo‘lmay kishi¹³.

Berib bu tazavvujga payvand ham,
Padid aylading necha *farzand* ham.

Biriga hajar jismidin to‘shadur,
Anga naqd balkim *jigargo‘shadur*. (9-b)

Ani *qurratul-aynu* farzand etay,
Ko‘zum nurini anga payvand etay. (292-b)

Lakal-hamd, yo Akramal-Akramin,
Karam Ahlin etgan *gadoyi* kamin. (11-b)

Agar qilmading zuhdu toat nasib,
*Habibing*din etgil shafolat nasib. (16-b)

Vale chunki xurshiding etti zuhur,
Kavokib *sipoh*in nihon qildi nur. (21-b)

Beshinchiga chun yetkurub gomni,
Qilib bandai amri *Bahrom*ni. (25-b)

Keltirilgan baytlarda مهندس – *muhandis*; binokor mutaxassis ya’ni injener, فرزند – *farzand*; bola, جگرکوشه – *jigargo‘sha*; eng yaqin kishi, to‘g‘ishgan kishi, قرّة العين – *qurratul-aynu*; ko‘z ravshanligi, ko‘z qorachig‘i, majoziy farzand ma’nosida, كدا – *gado*; gadoy, tilanchi, حبيب – *habib*; sevikli, do‘st, سپاه – *sipoh*; armiya, askar, بهرام – *Bahrom*;

¹³ Алишер Навоий. Садди Искандарий. Мукаммал асарлар тўплами. 20 томлик. Т. 11. Тошкент: Фан, 1992. 5-бет. (Bundan keying misollar ushbu nashrdan olinib, qavs ichida sahifasi ko‘rsatib boriladi).

qadimgi Eron shohlaridan biri kabi soʻzlar qoʻllanilgan¹⁴. Yuqorida berilgan soʻzlardan مهندس, مقرة العين va حبيب soʻzlari arabcha, qolgan soʻzlar forscha oʻzlashmalar hisoblanadi. *Qurratul-aynu* soʻzi majoziy maʼnoda qoʻllanilgan boʻlib bu soʻz izofa birikmasi hisoblanadi. Bundan aniq boʻladiki, Navoiy nafaqat bir soʻzdan iborat oʻzlashmalarni qoʻllagan balki qaratqich qaralmish munosabatiga asoslangan izofalardan foydalanganligini guvohi boʻlishimiz mumkin. Darhaqiqat bu leksemalar oʻzbek tilida mavjud boʻlib, bugungi kunda ham keng qoʻllaniladi.

2) *Narsa-predmet otlari kabi arabcha, fors-tojikcha oʻzlashmalar:*

Boʻlub *Xoʻshagʻ* a dona *gavhar* kibi,
Ne *gavhar* kibi, balki *axtar* kibi. (26-b)

Dema *jom* ila *mayki*, nazmi ravon,
Yer-u koʻk elin ayladi notavon. (51-b)

Yana qoldi Feruzi Hurmuzgʻa toj,
Oʻkush tojvarlardin oldi *xiroj*. (87-b)

Kezib uch kun ul yerda *xanjar* ila,
Nishona bitilgan namudor ila. (303-b)

Baytlarda خوشه – *Xoʻsha*; boshq, bosh; Eski astronomiyaga koʻra osmonning oʻn ikki burjidan oltinchisi (sunbula), كوهر – *gavhar*; inju, dur, yoqut, olmos; asl, nasl-nasab, kelib chiqish; asosiy xususiyat; mohiyat, asli maʼno, asos, اختر – *axtar*; yulduz, جام – *jom*; qadah, may piyolasi, مى – *may*; ichkilik, boda, sharob, خراج – *xiroj* arabcha soʻz boʻlib, xalqdan undiriladigan soliq hisoblanadi, خنجر – *xanjar*; qon toʻkuvchi *xanjar*, tigʻ, majoziy maʼnoda esa sevgilining kiprigi singari soʻzlardan foydalangan.¹⁵ Bu soʻzlar tilimizda keng qoʻllanilmoqda.

3. *Makon-joy maʼnosidagi arabcha, fors-tojik soʻzlari:*

Chu javlongahi boʻldi bu tiyra farsh,
Burun hamlada farshdek qoldi *Arsh*. (24)

¹⁴ Навоий асарлари луғати. Тузувчилар: П.Шамсиев. С.Иброҳимов – Тошкент Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти 1973.

¹⁵ Навоий асарлари луғати. Тузувчилар: П.Шамсиев. С.Иброҳимов – Тошкент Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти 1973.

Gahi *masjid* ichra alolo solib,
Xarobot aro goh g‘avg‘o solib. (41-b)

Bug‘uyu maral – *nayiston*ida sayd,
Shakardin borining ayog‘ida qayd.

Keltirilgan misralarda عرش – *Arsh*; osmonning eng yuqorisi, majoziy eng yuqori joy ma’nosida; مسجد – *masjud(masjid)* sajda qilinadigan, namoz o‘qiladigan makon; خرابات – *Xarobot*; vayrona joy, majoziy mayxona, maykada; نيستان – *nayiston*; forsha so‘z bo‘lib qamishzor, to‘qay degan ma’noni anglatadi.¹⁶ *Arsh, Masjid, Xarobot* so‘zlari arab tilidan o‘zlashgan leksemalar hisoblanadi. Alisher Navoiy arab, fors-tojik tillarini mukammal bilgani holda bu tillarda bizga juda ko‘plab bebaho xazinalar qoldirgan. Buning yaqqol misolida Akademik B.Valixo‘jayev “Devoni Foni” nusxalarini o‘rganib chiqib, ulardagi she‘riy janrlar miqdorini quyidagicha deb ko‘rsatadi: 10 qasida, 554 g‘azal, 1 musaddas, 1 marsiya, 72 qit‘a, 73 ruboiy, 16 ta‘rix, 373 muammo, 9 lug‘z. Olim ularning miqdorini 1109 ta deb belgilab, umumiy hajmi 6179 bayt ekanligini ta’kidlaydi.

“Navoiy “Muhokamat ul-lug‘atayn”da turkiy va o‘zi mukammal bilgan forsiy tilni o‘zaro chog‘ishtirish yo‘lidan borib, ikki tilning leksik va poetik imkoniyatlarini ilmiy nuqtai nazardan asoslab beradi. Asarda turkiy va forsiy tillar fonetika, leksik va morfologiya doirasida o‘zaro qiyoslanadi. Shuningdek, shoir turkiy va forsiy tillar leksikasini qiyoslash uchun turli sohalarga doir narsa-buyum, tabiiy hodisalar va hayvonlarning forsiy tilda mavjud bo‘lmagan turkiy tildagi nomlarini berib, ularning ba‘zilari forsiy til leksikasi tarkibiga kirganligini aytib o‘tadi”¹⁷.

Xulosa qilib aytganda, “Saddi Iskandariy” dostoni nafaqat o‘zbek tili rivojiga, balki arab, fors-tojik tillari rivojida tamal toshi hisoblangan eng muhim manba hisoblanadi. Asarni qancha ko‘p o‘rgansak, uning bebaho xazinalaridan shuncha bahramand bo‘lamiz. Eng ahamiyatli jihati shundaki, Navoiy boshqa xamsanavislardan farqli o‘laroq

¹⁶ Навоий асарлари луғати. Тузувчилар: П.Шамсиев. С.Иброҳимов – Тошкент Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти 1973.

¹⁷ Navoiyshunoslik (Darslik)/ Shuhrat Sirojiddinov, Dilnvoz Yusupova, Olimjon Davlatov. Toshkent: Tamaddun, 2018. 215-216-betlar.

turkiy tilda yozib, uning til xususiyatlarini mukammal tarzda yoritib berdi.

Alisher Navoiy dostonida o‘zbek tilining til xususiyatlari tarkibiga kiruvchi leksik boyliklaridan, ya’ni sinonimlar va omonimlardan, antonimlardan, boshqa tillardan kirgan o‘zlashma leksemalar, turli xil izofali birikmalardan, xalq maqollar va matallaridan, frazeologik, idiomatik birikmalardan, jumla tuzilishidan keng foydalangan. Bundan tashqari, ushbu doston to‘laqonli ravishda o‘zbek adabiyotining ko‘z-gusi hisoblanadi. Davrlar bilan bog‘liq fonetik va grammatik o‘ziga xosliklar, avvalo so‘zda aks ettiriladi. Buni yaxshi anglagan Navoiy so‘zlar ma’nosiga juda katta e’tibor berib, mantiqiy xulosalar chiqargan. Men esa Navoiyning “Saddi Iskandariy” kabi ulkan dostonini o‘rganish jarayonida arabcha, forsha, turkiycha so‘zlarga alohida e’tibor qaratib, ehtiyotkorlik bilan ish tutishga harakat qildim. Ya’ni imkon qadar so‘zlar ifodalagan to‘g‘ri ma’nomlarni izlab topishga, ba’zida esa ishonchli manbalar asosida ma’lumotlar olishga harakat qildim. Alisher Navoiyning “Saddi Iskandariy” dostoni o‘zbek tili leksikologiyasi, morfologiyasi, morfemikasiga oid buyuk lingvistik tadqiqotlarga tamal toshini qo‘ya oladi deyish mumkin. Umuman olganda, Alisher Navoiy ushbu doston orqali falsafiy-diniy g‘oyalarni, fikr-mulohazalarni g‘oyat go‘zal, mukammal tarzda bayon etgan. Doston tilini o‘rganish esa Navoiy asarlarining bizga ma’lum bo‘lmagan qirralarini kashf etishimizda, shoir asarlari ruhini tushunishimizda yaqindan yordam beradi.

*NE`MATOVA O`g`iloy,
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti talabasi*

“SAB’AI SAYYOR” DOSTONIDA SINONIMLAR QO‘LLASH MAHORATI

Alisher Navoiy nafaqat buyuk shoir, balki tilshunos olim sifatida ham dovrug‘ taratgan. O‘zining asarlarida forsiy va arabiy so‘zlardan foydalanish bilan birga o‘zbek tilining ulardan aslo qolishmasligini isbotlab beradi. Hali o‘zbek tilining izohli, dialektik, imlo lug‘atlari yaratilmagan bir davrda Navoiy turkiyzabon xalqlar ummonida mohir g‘avvos kabi suzib, o‘zbekona xazina yarata oldi. Buning yaqqol

ifodasini allomaning nazmiy va nasriy asarlarida to‘laqonli ko‘rishimiz mumkin. Shu o‘rinda tadqiq etilayotgan “Sab’ai sayyor” dostonida ham juda go‘zal va mohirona qo‘llangan so‘z san‘atini ko‘ramiz.

Badiiy va tarixiy asarlar leksikasining eng ustuvor jihati ularda lingvistik omil hisoblangan sinonimik paradigma, omonimlar, antonimlar, sinonimlar va polisemantik so‘zlarning to‘g‘ri va o‘z o‘rnida ishlatilinishi bilan uzviy bog‘liq.

Sinonimlar haqida so‘z yuritganda eng avvalo, uning mohiyati va mazmunini aniq-tiniq belgilab olish darkor. Sinonimlar – talaffuzi, yozilishi har xil, birlashtiruvchi ma‘nosi bir xil (umumiy) bo‘lgan, qo‘shimcha ma‘no nozikligi, emotsional bo‘yog‘i, qo‘llanishi kabi bir qator xususiyatlari bilan o‘zaro farqlanadigan so‘zlardir¹⁸. Sinonimlar tilning boy ekanini, taraqqiyot darajasini ko‘rsatib turuvchi hodisalardan biri hisoblanadi. Sinonimlar yordamida nozik ma‘no qirralari anglatiladi, voqelikka turlicha baho, munosabat ifodalanadi. Sinonimlardan birini tanlab ishlatish bilan voqelikning ma‘lum bir qirradi bo‘rttirilib ko‘rsatiladi. Sinonimlarni ishlatishda har gal ular orasidagi ayirmalar bilan hisoblashishga to‘g‘ri keladi. O‘z fikrini anglatishda, voqelikka o‘z munosabatini ifodalashda yagona o‘rinli leksemani sinonimlari orasidan tanlab ola bilish kerak¹⁹. Shu bilan bir qatorda sinonimlar so‘zlarning ma‘no jihatidan o‘zaro o‘xshashligini ta‘minlaydi.

Ma‘lumki, so‘zlarning semantik munosabati sinonimiyani belgilovchi asosiy shart hisoblanadi. Ayni mana shu jihatdan sinonimlar tizimli taqsimlanadi. Bunda qatordagi so‘zlar ma‘nosining o‘zaro qanday aloqada bo‘lishi muhim hisoblanadi²⁰.

Alisher Navoiyning badiiy matnda o‘ziga xos poetik aktuallashuv vositalaridan biri –sinonimlardan foydalanish mahorati buyuk ijodkor asarlarini o‘rganishga yo‘naltirilgan ilmiy izlanishlarda, monografik tatqiqotlarda o‘z aksini topgan²¹. Darhaqiqat, Navoiy sinonimlarga juda ko‘p va xo‘p murojaat qilgani uning so‘z boyligi cheksizligidan

¹⁸ Ўзбек тили синонимларининг изоҳли луғати/ Ҳожиёв А. –Тошкент: Ўқитувчи, 1974. – 308 б

¹⁹ Hozirgi adabiy o‘zbek tili (Darslik)/ Rahmatullayev SH. –Toshkent: Universitet, 2006. – 476 б

²⁰ Алишер Навоий тарихий асарлари лексикаси (Дис.)/ Абдувалиева Д. –Тошкент, 2017. –92 б

²¹ Навоий асарлари лексикаси/ Вафоев Б. –Тошкент : Фан, 1983. –124 б

dalolat berib, ma'nodosh so'zlarning polisemantik va poetik xususiyatlarini namoyon qilar ekan, ularni ona tilining boyliklaridan biri deb hisoblaydi. Xususan, Navoiy "Sab' ai sayyor" dostonida ham ko'plab sinonimik so'zlarni ishlatib, asarni yanada mukammal va jozibador bo'lishiga erishgan. Biz darsliklar orqali juda yaxshi bilamizki, sinonimlar barcha so'z turkumlarida sermahsuldir. Bunga misol qilib ot sinonimlar, sifat sinonimlar, olmosh sinonimlar, fe'l sinonimlar, ravish sinonimlar, yordamchi so'zlarni ta'kidlash joiz. Dostondan keltirib o'tiladigan parchalar orqali bu masalaga atroflicha yondashamiz.

Biz ko'plab asrlarda, ayniqsa, tarixiy asarlar matnida *Xudo* so'zining turli xil leksemalar orqali ifoda etilganligini ko'ramiz. Dostonning quyidagi baytlarida ham aynan mana shunday hodisa namoyon etilgan:

Ey xudovandlar xudovandi,
Yo'q xudolikda kimsa monandi²².

Ushbu baytda Navoiy Allohga murojaat etadi va keyingi baytlarda shu so'zni qayta-qayta takroridan uzoqlashib, sinonim leksemalardan foydalanadi:

Neki maxluq ichiga qotilg'on,
Sen yaratg'on, alar yaratilg'on. [9-b]
To ne etgay angaki o'zga iloh,
El degay: Loiloho illalloh. [10-b]

Qodiro, ul zaifi osiymen
Ki, boshimdin-ayoq maosiyman. [10-b]

Ulki, sendek boshimda *xoliq*dur,
Men demoqlik, ne behayolikdur. [10-b]

Yo Rab, oshuftamen fig'onima yet,
Karam aylab xatolarim afv et. [12-b]

²² Алишер Навоий. Сабаи сайёр. Мукаммал асарлар тўплами. 20 томлик. Т. 10 – Тошкент : Фан, 1992. 10- бет. (Bundan keyingi misollar ham ushbu nashrdan olinib, qavs ichida sahifasi ko'rsatib boriladi).

Misollar orqali *Xudo* soʻzi baytlarda turlicha tarzda ifoda etilganligini koʻrdik, Yaʼni, *Yaratgan, Iloh, Qodir, Xoliq, Rab* soʻzlari Alloh maʼnosida qoʻllanilib, leksik sinonimiyani tashkil etgan. Albatta, bu soʻzlarning hammasi ham turkiycha emas. Masalan: *Iloh, Qodir, Xoliq* soʻzlari arabcha, *Xudo* soʻzi esa forschadir. Shunday boʻlishiga qaramay bu soʻzlar oʻzbek tiliga oʻz maʼnosida kirib kelgan va sheʼriyatda ham samarali qoʻllangan. Bu soʻzlarni toʻgʻri tanlay bilish, oʻz navbatida shoirning isteʼdodidan darak berib, uning uslub jihatidan naqadar katta mahoratga ega ekanligiga ishora qiladi.

Alisher Navoiy sinonimlarni qoʻllashda mislsiz kashfiyotlarni amalga oshiradi. Biz oʻrganayotgan soʻzlar esa dengizdan bir tomchi, xolos. Yuqorida aytilganidek, sinonimlar soʻz turkumlari doirasida sermahsullikka ega. Keyingi baytlar hamohangligida ot sinonimlarga murojaat etiladi:

Shohlar qulligʻin koʻrub margʻub,
Anga darveshlik boʻlub matlub. [60-b]

Xonlar uzra etib atosi aning,
Xon bin xon ato atosi aning. [60-b]

Bu ikki baytdagi “*shohlar*” va “*xonlar*” soʻzlari oʻzaro sinonimlikni hosil qilgan. Sinonimik mikrotuzilma koʻpincha sinonimik qator deb nomlanadi. Bu til hodisasini sinonimik uya deb ham nomlash mumkin. Sinonimik uya til taraqqiyotiga bogʻliq holda oʻzgarishi mumkin: ayrim sinonim isteʼmoldan chiqib, uyadan ham chiqib ketadi, uyaga yangi sinonim qoʻshiladi²³. Mana shu qoidaga asosan, bugungi kun davr va siyosat jihatidan bu ikki soʻz ishlatilish darajasi yoʻqolib, uning oʻrniga *davlat rahbari, prezident* kabi yangi soʻzlarning kirib kelishi bilan bogʻliq hodisalar tilimizda aks etmoqda. Demak, ijtimoiy tuzumning oʻzgarishi ham qaysidir maʼnoda tilga ham oʻz taʼsirini oʻtkazmay qolmaydi.

Sinonimik uyani hosil qilishda ayniqsa, oʻrin-joy maʼnolari ham keng ahamiyatga ega. Masalan, *dasht, choʻl, biyobon, yobon, sahro* kabi soʻzlarning umumiy maʼnosi - suvsiz joy, gul-u giyoh oʻsmay-

²³ Hozirgi adabiy oʻzbek tili (Darslik)/ Rahmatullayev SH. –Toshkent: Universitet, 2006. – 476 b.

digan, qum va tuproq to‘la yer kabilarni ifodalasa-da, ishlatilish darajasiga ko‘ra farqlanadi. Masalan, *dasht*, *cho‘l*, *biyobon*, *yobon*, *sahro* sinonimlaridan *cho‘l* chegaralanmagan hisoblanadi. Ya‘ni bu so‘z dominantik xususiyatga ega. Dominanta deb, odatda sinonimik uyadagi leksik ma‘no mundariyasi barcha sinonimlar uchun umumiy, baho semasi betaraf, umumnutqqa xos leksema tanlanadi²⁴. Shunga ko‘ra, *biyobon*, *yobon*, *sahro* leksemalari asosan badiiy nutqda keng qo‘llanilsa, *cho‘l* va *dasht* so‘zlari uslub tanlamasligi bilan ham ajralib turadi. Dostonda esa bu so‘zlardan unumli foydalanganligini uchratamiz:

Qurtdek bo‘ri birla to‘ldi *yobon*,
Dema qo‘y, balki tu‘ma bo‘ldi shubon. [110-b]

Har necha kezdi dasht-u *sahroni*,
Topmadi zod sarv-u ra‘noni. [120-b]

Dasht aro bo‘yla erdi oshubi,
Joni g‘am xaylining lagadko‘bi. [122-b]

Ul *biyobon* ichinda afg‘onda,
Balki bir shahr eli biyobonda. [122-b]

Sinonimlar tuzilishi jihatidan uchta asosiy guruhga ajraladi: 1) Sodda sinonimlar, 2) murakkab sinonimlar, 3) birikmali sinonimlar²⁵.

1) Sodda sinonimlar asosan o‘zakning o‘zidan tashkil topganligi bilan ajralib turadi. Dostonda keltirilgan bu baytda aynan sodda sinonimlar ishtirok etgan:

Topmag‘on tab‘i *pok*-u xotiri *sof*,
Ki, aning da‘bi bo‘lmag‘ay insof.

Baytda qo‘llanilgan *pok* va *sof* so‘zlari sodda sinonim turkumiga kiradi. Bu xil sinonimlar tub sinonimlar deb ham yuritiladi²⁶.

²⁴ Hozirgi adabiy o‘zbek tili (Darslik)/ Rahmatullayev SH. –Toshkent: Universitet, 2006. – 476 b.

²⁵ Хозирги ўзбек адабий тили. I қисм. Ф. К. Камолов.–Тошкент: Фан, 1966. 137-бет.

²⁶ Ўша китоб, ўша бет.

2) Murakkab sinonimlar. Bu xil sinonimlarning ayrimlari qo‘shma so‘zlardan tashkil topadi. Shuningdek, murakkab sinonimlarning ba`zilari juft holda ishlatiladi, ba`zilari esa nutqda paralleldir²⁷.

Gulga chun berdi tob *husnu-jamol*,
Anga bulbulni qildi sheftai hol. [7-b]

Yuqoridagi baytda *husnu-jamol* so‘zlari juft holda aks ettirilgan. *Husnu-jamol* so‘zi uchun *chiroy* so‘zi dominanta hisoblanadi. Bundan tashqari asarda *qad-qomat*, *or-nomus*, *baxt-saodat*, *balo-ofat*, *kuch-quvvat* kabi juft leksimalar qatnashgan.

3) Birikmali sinonimlar orasida so‘z birikmalari orqali ifodalangan sinonimlar ham uchraydi²⁸. Masalan:

Ota dunu o‘g‘ul *sharif o‘lmoq*,
Bu *latif o‘lmoq*, ul kasif o‘lmoq. (73-b)

Bu ikki so‘z Alisher Navoiy asarlari lug‘atida *go‘zal o‘lim topmoq*, *sharafli o‘lim topmoq* degan ma’nomlarni anglatadi. Mana shu jihatdan sinonimlar fikrni nutqda aniq, butun tafsilotlari bilan ifodalashda, ta’sirchan bayon qilishda uslubning xilma-xil, rangdor va ravon chiqishida katta ahamiyatga ega. Demak, sinonim so‘zlar ma’noda umumlashtiruvchi so‘z atrofida guruhlanishi bilan xarakterlanadi. Alisher Navoiy ham “Sab’ai sayyor” dostonida sinonimlarning turli variantlaridan keng foydalangan.

Taniqli navoiyshunos olim Botirxon Akrom Navoiy to‘g‘risidagi juda qimmatli fikrlarni keltiradi: “Navoiydek sohir so‘z san`atkori uchun hatto adabiy iste`moldagi me`yor-mezonlar, an`anaviy usullar, vositalar kifoya qilmasa hech ajab emas. Zero, daho shoirlarning ijodiy xayoli eng yuksak avj darajalarda, samoviy mintaqalardagina o‘zining munosib, butun va yorqin obrazli ifodasini topishi mumkin²⁹. Albatta, Navoiy ulug‘ tilshunos olim sifatida yozgan asarlari bilan ham adabiy tilimizning taraqqiyotiga ulkan hissa qo‘shgan.

²⁷ O‘sha kitob, o‘sha bet.

²⁸ O‘sha kitob, o‘sha bet.

²⁹ Fasohat mulkinging sohibqironi. Botirxon Akrom.–Toshkent: O‘zbekiston, 2016. – 20-bet.

NAVOIY LIRIKASIDA G‘AZALI MUSAJJA’

Lirik mahorat kashfiyotchisi Alisher Navoiy poetikasining asl mohiyati - falsafiy estetika va boshqa qarashlarning yuksak poetik darajada turishi bilan ajralib turadi. U so‘z ustasi, balki yuksak mahorat sohibidir. Bu buyuk siymo lirikani ijtimoiy muhit, falsafiy va yuksak qarashlar bilan yaqinlashtirdi. Uning poetikasi janrlar rang-barangligi, mavzu doirasining kengligi bilan xarakterlanadi.

Navoiy g‘azal olamiga yangi tasvir-u yaratishlarni olib kirdi. Uning g‘azal janridagi kashfiyotlaridan biri musajja’ g‘azalida namoyon bo‘ladi.

Tarixiy manbalarda musajja’ haqida ma’lumotlar uchramaydi. Alisher Navoiyga qadar ham Hofiz Xorazmiy ijodida g‘azal baytlarida badiiy san’at shaklida qo‘llangan. Keyin Sayfi Saroyi ijodidagi bir g‘azali musajja’ usulida bitilgan. Is’hoqov Yoqubjon musajja’ni qofiya bilan bog‘liq badiiy san’at desa – [1, 114-b], Anvar Hojiahmedov qofiya turi deb atagan – [2, 226-b], ba’zi manbalarda g‘azal turi sifatida ko‘rsatilgan. Turkiy she’riyatda musajja’ Navoiydan oldingi ijodkorlar ijodida badiiy san’at sifatida qo‘llanilgan. Navoiy ijodida g‘azali musajja’ shaklida uchraydi. Aynan ijodkor mahorati ham shunda, butun g‘azal qurilishini musajja’ qofiyasida yozib, yuksak mahorat bilan yangi ma’nodagi g‘azal yaratdi.

Navoiy ijodidagi g‘azali musajja’ni o‘rganish bugungi kun uchun noyob va mumtoz ilmni o‘sha davrdagi, bugungi kundagi o‘rnini belgilash, muallif badiiy mahoratini ochish, mumtoz namunalar bilan tanishish dolzarbligi bilan birga, muhim ahamiyatga egadir.

Muallifning musajja’ g‘azallari rajazi musammani solim va hazaji musammani solim vaznlarida yozilgan. Ushbu vaznlarning tanlanishi g‘azalning og‘ir, salobatli, xush ohang qilish bilan birga, falsafiy, ishqiy, vazmin ruhda bo‘lishini ta’minlagan:

Chin odamiyda yo‘q vafo, ko‘r ul pariy ishqiy aro,
Javlongahim dashti fano, vayronayi g‘am maskanim.

(“G‘aroyib us-sig‘ar”, 424-g‘azal)

Yoki:

Vayronadur maskanim, andim manga bisyor g‘am,
Ohim bila eshikta o‘rt, ashkim bila devor nam.

(“G‘aroyib us-sig‘ar”, 415-g‘azal)

Yoki:

Ham ahvoli tabohimdin, ham ohi umr koshimdin,
Ham otluq dudi ohimdin qorarib kulbai ahzon.

(“Navodir ush-shabob”, 335-g‘azal)

Ushbu g‘azallardan olingan baytlarda ishq o‘ti va oshiq holati tasvirida “vayronayi g‘am maskanim”, “vayronadur maskanim” va “kulbai ahzon” kabi iboralarni ko‘ramiz. Shoir nafaqat ishq ko‘yida, balki o‘tkinchi olamda vayrona maskani, ko‘ngli to‘la g‘amligini uqtiradi. Yor hajrida vasl ishtiyoqi bilan yongan oshiqning o‘tli dudi-yu, ohi falakka yetgan. Kamtarin qalb egasi bo‘lgan ijodkor vafosiz dunyodan va visol ummidida ozurda.

Navoiy musajja’ g‘azallarida hazin oshiq holati va ishq harorati aksini topgan. Uning yaratilqlaridan biri baytda asosiy qofiyadan tashqari qo‘shimcha qofiya “bisyor”, “devor” so‘zlari qo‘llanilib, qo‘sh qofiyalik bilan uyg‘unlashib, ishqiy kayfiyatning hazinligini oshirganligidir.

Miskin Navoiy bersa jon, ey diyda, har dam to‘kma qon,
Ul har necha qilsa fig‘on, sen asrag‘il zinhor dam.

(“G‘aroyib us-sig‘ar”, 415-g‘azal)

Baytda ichki qofiya tarkibida ham qo‘shimcha qofiya “bersa”, “qilsa” so‘zlarining qo‘llanilishi jodkor mahoratining yana bir qirrasini namoyon qilgan. Muallif o‘ziga qilgan murojaatida ozi ni miskin deb atashi taqsir badiiy san‘atini ham yuzaga keltirgan. Agar oshiq jon bersa ham, diyda sen fig‘on qilma deyishining zamirida tasavvufiy ma‘no bor, ya‘ni haqiqiy oshiq uchun o‘lim vasl umidi ekanligini anglaymiz.

Ijodkorning bu turdagi g‘azallarining aksariyati “G‘aroyib us-sig‘ar” devonida jamlangan. Shoirning musajja’ g‘azallarida mat‘ladan keyingi baytlarda ichki qofiyalanish boshlangan. Devonlarini ko‘zdan kechirish jarayonida musajja’ g‘azalning ma‘lum baytlarida ham qo‘llanganining guvohi bo‘ldik:

Fig‘onimdin falak g‘amgin, sirishkimdin jahon rangin,
Na dardim o‘tig‘a taskin, na hajrim dardig‘a darmon.
(“Navodir ush-shabob”, 491-g‘azal)

Baytda musajja’ qofiyalar bilan birga, misralarning ichki bo‘linishi “g‘amgin”, ”rangin” va ”taskin” “Fig‘onimdin” va “sirishkimdin”, ikkinchi misrasida “dardim” va “hajrim”, “o‘tig‘a” va “dardig‘a” so‘zlari (asosiy qofiya esa “darmon”) qo‘shilib, g‘azalda ifodalanayotgan g‘oyaning yuzaga chiqishini va ta’sirchanligini ya’nada oshirgan. Buni esa haqiqiy badiiy yaratq desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Oshiqning ishq ichra g‘ami shunchalar kuchliki, fig‘onidan falak, ko‘z yoshidan jahon rangdor, na dard o‘tig‘a taskin bor, na hajr dardiga darmon bor.

Navoiy lirikasini o‘rganish va ayri janrlarini tahlil qilishda, har taraflama, ya’ni germenevtik metod ilmiy metodologik asos qilib olindi.

Ijodkorning mahorati har bir janrda, har bir badiiy tasvirda aksini topgan. Shu kabi g‘azali musajja’da ham shoirning poetik novatorligi va yana bir mahorat qirrasini namoyon bo‘ladi. Navoiy musajja’ qofiyani g‘azal janrining turi sifatida shakllantirib, yuksak badiiy mahorati bilan yangi bosqichga olib chiqdi. Turkiy she’riyatda Navoiy boshlab bergan an’anani Muhammad Fuzuliy davom ettirdi. Zahiriddin Muhammad Bobur uni davom ettirish bilan birga, yanada boyitdi va vazn jihatdan ham, qofiya jihatdan ham mukammallashtirdi. Musajja’da ichki qofiya g‘azal mat’lasidan ham boshlanishini ijod namunalari bilan asoslab berdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Is’hoqov Y. So‘z san’ati so‘zligi. Toshkent: O‘zbekiston, 2014. – B. 318.
2. Hojiahmedov A. Mumtoz badiiyat malohati. Toshkent: Sharq, 1999. – B. 238.
3. Alisher Navoiy. Xazoyin ul-maoniyy. Toshkent: Fan, 1988. – B. 486.
4. Alisher Navoiy. G‘aroyin us-sig‘ar. Toshkent: Fan, 1988.- B. 486.
5. Alisher Navoiy. Navodir ush-shabob. Toshkent: Fan, 1988. – B. 446.
6. Is’hoqov Y. Navoiy poetikasi. Toshkent: Fan, 1983. – B. 167.
7. Yusupova D. Aruz alifbosi. Toshkent: Fan, 2018. – B. 166.

NAVOIY LIRIKASI – SHARQ LIRIKASINING YANGI BOSQICHI

Navoiy lirikasi faqat mavzu doirasining kengligi, g'oyaviy dunyosining boyligi bilangina emas, ayni zamonda, chuqur fikrlar silsilasining original ifodasini ta'min etgan yuksak badiiy fazilatlar bilan ham diqqatga sazovordir. Alisher Navoiy arab, fors va turkiy poeziyaning boy tajribalarini o'zlashtirib olish bilan cheklanib qolmadi, balki mavjud an'analarning eng ilg'or jihatlarini yanada yuqori bosqichga ko'tardi, va eng muhimi, Sharq she'riyatiga xos badiiyat xazinasini poetik durdonalarning go'zal namunalari bilan boyitdi. Navoiyning lirik she'rlari gumanist mutafakkir g'oyalarining iste'dodli san'atkor mahorati bilan mutanosib tushishi va tabiiy ravishda qo'shib ketishining haqiqiy namunasi hisoblanadi. Binobarin, Abdurahmon Jomiy va Mirzo Bobur ta'rifi har qanday mubolag'adan xoli bo'lgan adolatli, lekin muxtasar bahodir.

Navoiy lirikasining asosiy fazilatlaridan biri she'rning tub mohiyatini tashkil etgan mazmun – g'oyaning o'ziga xos shaklda namoyon bo'lishida ko'rinadi. Bu esa, o'z navbatida, har bir fikr uchun unga muvofiq keladigan janrni tanlash va uning hajmini ham asosiy maqsadning mukammal ifodasiga mos qilib belgilashda ko'zga tashlanadi. Navoiy g'azallari orasida 7, 9, 11 baytli she'rlar asosiy qismni tashkil qilsa ham, ularning har biri mazmun taqozosi bilan tanlangan.[3: 35] Jumladan, ishqiy mavzu uchun kichikroq shakl, falsafiy-ijtimoiy fikrlar ifodasi uchun esa hajman kattaroq g'azallar asos qilib olingan.

Shoir devonida muhim o'rin tutgan qit'alarning ko'pchiligi ikki baytdan iborat bo'lgani holda mazmun taqozosi bilan g'azal hajmiga teng (7-11 baytli) qit'alar ham uchraydi. Xullas, she'riy shakl masalasiga Navoiy ijodiy yondashib, mazmun va poetik janrlar uchun xos umumiy me'yor talablari asosida ish ko'rgan. Lirik she'rning kompozitsiyasi masalasida ham Navoiyning novatorligi, lirika taraqqiyotidagi buyuk xizmati diqqatga sazovor.

Avvalo, shuni ta'kidlash kerakki, Navoiyning har bir she'ri mazmunan va shaklan mutanosib bo'lib, boshdan oxiriga qadar mantiqiy izchillikka ega bo'lgan yaxlit bir asar bo'lishi lozimligi haqidagi

ajoyib mulohazasi rasmiy jihatdan gʻazallar haqida bayon qilingan boʻlsa ham, mohiyat eʼtibori bilan barcha lirik janrlar uchun taalluqli. Chunki shoir devonidagi qaysi bir janrga murojaat qilmang, ularda ijodkor estetik tamoyillarining yorqin ifodasini koʻrish mumkin.

Ikkinchi tomondan, Navoiyning chuqur maʼnoga ega boʻlgan mazkur mulohazasi umumlashgan xarakterda boʻlib, ijod jarayonida u mazmun va muallifning shaxsiy uslubi taqozosiga koʻra xilma-xil aspektda namoyon boʻlishi mumkin [6: 67]. Buning ajoyib isbotini Navoiyning oʻz sheʼrlarida, xususan, uning gʻazallari misolida aniq koʻrish mumkin. Muhim tomoni shundaki, Navoiy gʻazaliyotining oʻziga xos fazilatlari, shoir novatorligining yorqin qirralari uning zamondoshlari diqqatini ham oʻziga tortgan va ular ijodiyotiga samarali taʼsir koʻrsatgan. Jumladan, Navoiy ijodiyotining haqiqiy muxlisi va obʼektiv tadqiqotchisi boʻlmish Zahiriddin Muhammad Bobur «Boburnoma»da shoir adabiy merosiga umumiy baho bergan boʻlsa, aruz haqidagi asarida oʻrni-oʻrni bilan uning poetik mahorati qirralarini taʼkidlab oʻtadi. Navoiyning bir qator gʻazallari lirik qahramon kechinmalari bilan aloqador voqeaning poetik tasviridan iborat.

Navoiyning ilk devoniga kiritilgan «Kecha kelgumdur debon ul sarvi gulroʻ kelmadi», «Havo xush erdiyu ollimda bir sadah mayi nob» misralari bilan boshlanuvchi ana shu tipdagi gʻazallari bu fazilat shoir ijodining dastlabki davrlaridayoq shakllanib yetganligidan dalolat qiladi. [2: 73]

Navoiy gʻazallari uchun xos yaxlitlik, poetik lavha tarzidagi xususiyatlar uning peyzaj xarakteridagi sheʼrlarida ham oʻziga xos ravishda namoyon boʻladi. Lekin bunday sheʼrlarda muayyan syujet koʻrinmaydi, balki tabiat manzarasining izchil tasviridan shoir oʻz muddaosi bayoni uchun oʻziga xos fon sifatida foydalanadi va maqsadning izchilligi sheʼriy uslubda ham oʻz ifodasini topadi.

Maʼlumki, Navoiy gʻazaliyotiga xos yaxlitlik, mantiqiy izchillikni taʼminlagan omillardan yana biri har bir gʻazalga konkret bir fikr, detal yoxud obrazning (keng maʼnoda) asos qilib olinishi va tasviriy imkoniyatlarning barchasi tasvir obʼektining toʻliq va izchil ifodasi uchun safarbar etilishidan iboratdir.

Maqsad – gʻoyaning aniq boʻlishi hamda tasvirdagi qatʼiy izchillik kompozitsiyaning mukammalligi va sheʼrdagi dinamikaning tabiiyligini taʼmin etgan. Bu xususiyatning yuzaga kelishi esa har bir sheʼrda, tasvir obʼektining xarakteri bilan bogʻliq holda, xilma-xil

yoʻsinda koʻrinadi (bir gʻazalda yagona predmet bilan bogʻliq xususiyatlarning izchil tasviri, boshqa birida esa biror voqea-hodisaning tub mohiyatini koʻrsatish uchun bogʻliq hodisalarning bayoni va hokazo).

Shuni eslatish kerakki, Navoiy devonidagi poetik usullarning bir qismi Navoiyga qadar boʻlgan oʻzbek lirikasida mavjud boʻlsa, ayrimlari boshlangʻich holda boʻlgan, baʼzilari esa mutlaqo boʻlmagan va oʻzbek sheʼriyati uchun yangilik hisoblanadi. Biz xuddi shunga yaqinroq manzarani poetik obrazlar va iboralarda ham mushohada etishimiz mumkin.

Maʼlumki, Navoiyga qadar boʻlgan oʻzbek lirikasida barcha janrlar toʻliq shakllanmagan edi. Gʻazal, qasida, masnaviy, tuyuqlarning esa oʻz qolipi mavjud edi. Umumiy xulosa shundan iboratki, Navoiyning janrlar masalasida mavjud qolipga munosabati mutlaqo ijodiy va ayrim masalalarda tanqidiy xususiyatga ega («Badoyeʼ ul-bidoya» debochasida keltirilgan) [1: 30]. U janr strukturasi xos umumiy yoki asosiy belgilardan eng muhimlarini – gʻoyaning badiiy inkishofi uchun monelik qilmaydiganlarini saqlab qolgani holda asar strukturasi yangiliklar olib kirdi. Natijada, janrlarning mavjud qoidalari Navoiy uchun qatʼiy chegara emas, balki yanada yuksaklikka parvoz qilish maydoni hisoblanadi. Shuning uchun ham Navoiy gʻazal, soqiy-noma kabi janrlarning yangicha, mukammal modelini yaratdi. Shuningdek, oʻzbek adabiyotida boshlangʻich davrlarda boʻlgan ayrim janrlar rivojlantirildi va ular ichki tugallikka erishdi.

Demak, Navoiy lirikasi Sharq lirikasi tarixida (faqat janrlar yuzasidan olib qaraganda ham) mutlaqo yangi va yuqori bosqich hisoblanadi. Binobarin, Oʻrta asr Sharq adabiyoti haqida umumiy hukm chiqargan paytda faqat Hofiz yoki bir nechta arab va fors shoirlari merosiga tayanishning oʻzi yetarli emas. YO atamaning maʼnosini chegaralash (izoh bilan), yo boʻlmasa turkiy poeziyaning yuqori choʻqqisigina emas, ayni zamonda Sharq sheʼriyatining ulkan yutugʻi boʻlmish Navoiy lirikasini, albatta, nazarda tutmoq lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar toʻplami. 20 jildlik. Xazoyin ulmaoniy. - Toshkent: Fan, 1997. – B.550.
3. Mallayev N.M. Oʻzbek adabiyoti tarixi. Birinchi kitob. – Toshkent: Oʻqituvchi, 1976. –B. 336.
4. Oʻzbek adabiyoti tarixi. Besh jildlik. – Toshkent: Fan, 1977. – B. 243.

5. Hayitmetov A. Ilk Navoiyshunoslar // Navoiyga armug'on. K.2. – Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi, 2000. – B. 200.
 6. Valixo'jayev B. Mumtoz siymolar. – Toshkent: Meros, 2003. – B. 400.
 7. Boltaboyev H. Mumtoz so'z qadri. Adabiy-ilmiy maqolalar. – Toshkent: Adolat, 2004. – B. 368.
 8. Navoiyning ijod olami. Maqolalar to'plami. – Toshkent: Fan, 2001. – B. 356.
 9. Qayumov A. Asarlar. J.3. – Toshkent: 2009. – B. 247.
-

QURBONBOYEVA Zebiniso,
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti talabasi

HUSAYNIY G'AZALLARIDA FE'LLAR SEMANTIKASI

XV asr Hirot – markazlashgan Temuriylar saltanati poytaxtida ilm-fan, adabiyot va san'atni rivojlantirgan hukmdor Husayn Boyqaroning (h. y. 1469–1506) faoliyatida bosh vazir – Alisher Navoiyning (1441–1501) hissasi beqiyosdir. Navoiy davlat ishlaridagina emas, ijodda ham

So'z va uning lug'aviy hamda grammatik ma'nolarini o'rganish semantikaning asosiy vazifalaridan biridir. Shu o'rinda fe'l so'z turkumiga to'xtaladigan bo'lsak, undagi so'zlarni semantik tahlil qilish orqali tilning qanchalik boyligini, tarixiyligini va ahamiyatli ekanligini bilib olishimiz mumkin. Chunki ko'pchilikka ma'lumki, fe'l bilan tilshunoslikda ko'plab va turli xil jihatdan tadqiqotlar qilingan.

O'zbek tilshunosligida sintaktik semantikasi tadqiq etish 1970-yillardan boshlandi³⁰. I.Qo'chqortoyev "O'zbek tili va adabiyoti" jurnalida chiqqan maqolasi bilan o'zbek tilshunosligida dastlabki qadamni tashladi³¹. Keyinchalik 1974-yilda R.Yunusov bitishuv bog'lanishli birikmalar semantikasi haqida o'z dissertatsiyasida to'xtalib o'tadi³². Yuqoridagilardan tashqari V.Karimjonovanning "O'zbek tilida

³⁰ Mirzakarimova Z.D. Fe'l boshqaruvidagi bilan ko'makchili birikmalar semantikasi. Filol. f. dokt. ... diss. 2009. – 10 b.

³¹ Qo'chqortoyev I. So'z valentligi haqida //O'zbek tili va adabiyoti. –Toshkent, 1973. -№3. – B. 34-39.

³² Юнусов Р. Полисемия и синонимия имен существительных места в современном узбекском литературном языке: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент. 1974. – 24 с.

o‘rin kelishikli birikmalar semantikasi” nomli yoqlagan dissertatsiyasida o‘rin kelishikli fe‘l boshqaruvidagi birikmalarning yuza, makon, vosita va holat klassemalari haqida aynan to‘xtalgan³³.

Husayn Boyqaro tartib bergan “Devon”idagi g‘azallarda ko‘rish, so‘zlashuv va yeb-ichish bilan bog‘liq bo‘lgan fe‘llarini semantik tahlil qilish orqali shoirning mahoratini, uning til boyligi qanchalik yuksak darajada ekanligini bilib olishimiz mumkin.

“Devon”da g‘azallar asosiy o‘rin egallaydi. Bu g‘azallarda turli xil ma‘nodagi fe‘llar qatnashgan bo‘lib, ulardan bir turi – bu ko‘rish bilan bog‘liq fe‘llardir. Ko‘rish bilan bog‘liq fe‘llar turiga, masalan, “boqmoq” leksemasini olishimiz mumkin. “Boqmoq” fe‘li “Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati”da 7 ta ma‘nosi (tikilmoq, ko‘z solmoq, ko‘rmoq; e‘tibor bermoq; qaramoq, nazar solmoq; intilmoq, yolbormoq, iltijo qilmoq; o‘qimoq; intizor bo‘lmoq; qidirmoq, izlamoq),³⁴ O‘zbek tili izohli lug‘atida berilgan bo‘lib, “nazar tashlamoq, nazar solmoq, qaramoq”³⁵ kabi ma‘nolari keltirilgan. Quyidagi misrallarda “qaramoq” ma‘nosida qo‘llangan fe‘l misolida ko‘rishimiz mumkin:

Vaslida ko‘z goh yig‘lar, goh *boqar* ruxsorig‘a,
Bordi ko‘nglum o‘truvu jonimg‘a tushti iztirob. (H.D.4)³⁶

Yoki:

Gar Husayniy desangiz sho‘roba to‘kkay talx-talx,
Xo‘blar, gohi anga *boqib* shakarxand aylangiz. (H.D.8)

Yoki:

Jonu ko‘nglum birla bag‘rim kuydi bu uch o‘t bila,
Yaxshi *boqsam* yuz tamug‘cha har birining bor o‘ti. (H.D.22)

Xulosa qilib aytganda, Husayniy lirikasida “boqmoq” fe‘li unchalik ko‘p o‘rinlarda, polisemik tarzda qo‘llanilmagan bo‘lsa-da, ammo o‘z o‘rnida g‘azalning ravon o‘qilishida, har qanday o‘quvcha o‘qigan

³³ Karimjonova V. O‘zbek tilida o‘rin kelishikli birikmalar semantikasi: Filol. f. dokt. ... diss. avtoreferati. Toshkent. 1994. – 24 b.

³⁴ Alisher Navoiy izohli lug‘ati. To‘rt tomlik. -Toshkent: O‘zbekiston SSR Fan, 1983. -324 b.

³⁵ O‘TIL, 5 jildli, 1-jild, 348 b.

³⁶ G‘ani qizi S. Jamolingdin ko‘zum ravshan. – Toshkent: G‘afur G‘ulom. 1991. – B. 26. (Keyingi o‘rinlarda keluvchi barcha g‘azallar ham ushbu devondan olingan)

taqdirida ham, ya'ni yoshi yoki bilimidan qat'iy nazar she'rning asl ma'nosini tushunish qiyin emas.

Yuqoridagi fe'l guruhiga kiruvchi yana bir leksema – bu “ko'rmoq” bo'lib, Husayniy lirikasida keng ko'lamda uchratishimiz mumkin. O'TILda bu fe'lning 16 ta ma'nosi keltirilgan bo'lib, “ko'rish qobiliyatiga ega bo'lmoq; ko'z bilan ilg'amoq; tanishish; biror to'xtamga kelish; uchratmoq; hol-ahvol so'rab yo'qlamoq; boshdan kechirmoq; biror kimsa yoki narsaga erishmoq; tomosha qilmoq; sinab bilmoq; payqab olmoq; biror narsani ta'kidlash; ... deb hisoblamoq, ... deb o'ylamoq;”³⁷ kabilardan iboratdir. Quyidagi misralarda o'zining bosh ma'nosida, ya'ni “ko'rish qobiliyatiga ega bo'lmoq” ma'nosida kelgan:

Har kishi *ko'rsa* parilar ichra sen ko'z mardumin,
Bir parini jilva qilg'on sog'inur inson aro. (H.D.2)

Yoki:

Oncha qon to'kti ko'zumm hajringda, ey qon to'kkuchi,
Emdi ko'z ochsam *ko'rarmen*, olmedur qon aro. (H.D.2)

Yoki:

To'kub qonim, tarahhum qilmading hech,
Ko'rub holim, tabassum qilmading hech. (H.D.5)

“Ko'rmak” fe'li “boshdan kechirmoq, boshdan o'tkazmoq” ma'nosida kelgan o'rinlarni ham ko'rishimiz mumkin. Masalan:

Husayniy, hajrida afg'ondin o'zga
Ko'rub mehnat, tana'um qilmading hech. (H.D.5)

Bundan tashqari “ko'rmoq” leksemasi ayrim so'zlar bilan birikib, shu so'z bildirgan ish-harakatni amalga oshirmoq ma'nosini bildiradi. Bunday ma'noda kelgan fe'lni Husayniy lirikasida ham uchratishimiz mumkin:

Vasl umidi birla ishq *oson ko'rundi*, voykim,
Anda har dam bor ekanini muncha shiddat bilmadim. (H.D.13)

³⁷ O'TIL. 2-jild, 470 b.

Husayniy gʻazallarida bu feʻlning “payqamoq, ilgʻamoq” maʼnolarida kelgan oʻrinlari ham bor. Masalan:

Jon berurmen hajrida, zaʻfindim el *koʻrmas* meni,
Ishq aro har necha dermenkim, oʻzumni koʻrsatay. (H.D.19)

“Koʻrmoq” feʻli biror narsani taʻkidlash va unga diqqat eʻtiborni jalb qilish uchun ham qoʻllaniladi, buni Husayniy lirikasida ham kuzatishimiz mumkin:

Bu balo barki, ul ofat doʻzaxi, *koʻr*, turfakim,
Tez etar bu ikkini bir xotiri afgor oʻti. (H.D.22)

Koʻrinadiki, Husayniy gʻazaliyotida “koʻrmoq” feʻlining asosiy yetakchi maʼnosi boʻlgan “koʻrish qobiliyatiga ega boʻlmoq” maʼnosi keng qoʻllangan.

Koʻrish bilan bogʻliq feʻllarga yana “nazzora qilmoq” feʻlini ham keltirishimiz mumkin. Husayniy ham gʻazallarida bu leksemadan foydalangan:

Qatl etib ovora koʻnglumni buzugʻ jismim aro,
Vax, bilib bilmasga sol, ey jon, kelib *nazzora qil*. (H.D.11)

Xulosa qilib aytganda, Husayniy lirikasida “boqmoq, koʻrmoq, nazzora qilmoq” kabi koʻrish bilan bogʻliq feʻllar qoʻlanilgan boʻlib, turli xil oʻrinlarda turli oʻz maʼnosida va koʻchma maʼnolarda qoʻllangan. Bu feʻllarning oʻz oʻrnida va mahorat bilan qoʻllanilishi Husayniy gʻazallarining badiiy goʻzalligini yanada oshirgan.

Husayniy gʻazallarida soʻzlashuv bilan bogʻliq feʻllar keng qoʻllanilgan. Masalan, “demoq, aytmoq, takallum aylamoq” kabi feʻllarni uchratishimiz mumkin.

Bularning orasidan “demoq” feʻlini oladigan boʻlsak, bu leksema OʻTILda “oʻz fikrini ogʻzaki yoki yozma ravishda ifoda qilmoq, aytmoq; biror tovush yoki un chiqarmoq”³⁸ kabi maʼnolari berilgan.

Quyidagi misralarda “demoq” feʻlining asosiy semasi boʻlgan “aytmoq” maʼnosida kelganini koʻrishimiz mumkin:

³⁸ OʻTIL., 1- jild, 595 b.

Vahki, so‘rg‘ach holini tinmay to‘kub *dedi* sirishk,
Yeti gardundin fig‘onu o‘tlug‘ ohin o‘tkorib.

Yoki:

Dedim: “O‘qing tegsa dardim tog‘iga o‘t chokilur”

Dedi: “ Suv o‘rnig‘a bermish charx paykonimg‘a o‘t”.

(H.D.5)

Yoki:

Charx *degandur* ayiray gulruhundin gul chog‘i,

Ey Husayniy, bu firoy u va‘daning buljoridur. (H.D.5)

Quyidagi baytda “demoq” fe‘lining ikki o‘rinda ikki xil ma‘noda kelganining guvohi bo‘lishimiz mumkin:

Qani bir mahvash anga so‘z-u gudozimni *desam*,

Qani bir mushfiyki, bir dam anga rozimni *desam*. (H.D.12)

Birinchi misrada “biror narsani atamoq, baxsh etmoq” ma‘nosida kelgan bo‘lsa, ikkinchi misrada esa “so‘zlab bermoq, hikoya qilib bermoq” ma‘nolarida kelgan.

Ayrim o‘rinlarda “deb, debon” shaklida kelib “biror kimsa yoki narsa, ish-harakat va hodisa *uchun, ataylab* “, ya‘ni masalan, “ko‘rsin deb, yozsin deb, yor deb” ma‘nolarida kelgan g‘azallarni Husayniy lirikasida ko‘rishimiz mumkin:

Istagach majruh ko‘nglumdin o‘qini rashkdin

Topmasun *deb* yoshurubmen siynai baryon aro. (H.D.2)

Yoki:

Men dag‘i to‘zmay aning istab Vatan *deb* kuymakin,

Yuz tuman taklif ila kelturdim oni yolborib. (H.D.4)

“Demoq” fe‘lini “atamoq, ... deb atamoq” ma‘nolarida Husayniy g‘azallarida qo‘llagan bo‘lib, ularni quyidagi baytlardan bilsak va tahlil qilsak bo‘ladi:

Ey Husayniy, yor har dam g‘oyib o‘lg‘ach kech kelur,

Sahv emish ul nuktakim, el umr ishini *derlar* shitob. (H.D.4)

Yoki:

Ul ne qomatdurki, barcha rostlar aylab duo,

Derki, bu gulshan aro ul sarv bo‘lsun sarfarozi. (H.D.8)

Yoki:

Ishq aro Majnunni *dermenki*, o‘zimga o‘xshatay,
Hushini zoliy qilib devonalig‘ni o‘rgatay. (H.D.19)

Husayniy g‘azallarida yana bu fe‘lning “... deb hisoblamoq, ... deb o‘ylamoq” ma‘nolarida kelgan o‘rinlarni ham ko‘rishimiz mumkin. Masalan:

Anda ham qo‘ymay topib devonadur *deb* bog‘labon,
Sudrab eltur bo‘lsalar xalqi sitamkor, ey ko‘ngul. (H.D.12)

Yoki:

Otashin xil‘at *dema* jismim uza, ey dilbarim –
Kim, erur ishqing o‘ti birla tutashqon paykarim.

Yo erur siymobi *deb* qilma gumonkim, ishq o‘ti
O‘rtadi majruh jismimni erur xokistarim. (H.D.14)

“Demoq” fe‘li Husayniy lirikasida “ta‘kidlash, iror narsani uqtirish” ma‘nosida kelgan o‘rinlar ham bor bo‘lib, masalan:

Necha dersenkim, Husayniy qolmadi joning sening,
Ey nasihatgo‘y, netay bu yorsiz jonimni men. (H.D.15)

Bulardan tashqari ayrim o‘rinlarda “xabar yetkazmoq” ma‘nosida ham kelganini guvohi bo‘lamiz:

Ey sabo, yetsang musofir oyima zinhorkim,
Hajr zindonida onsiz tiyra holimni *degil*. (H.D.11)

Quyidagi baytda “javob bermoq” ma‘nosida kelgan:

Degaysen, ey noma eltur payk, zoru xastadur,
Gar Husayniy holidin so‘rsa diloromim mening. (H.D.10)

Husayniy devonida yana bu fe‘lning “uqtirish, ta‘kidlash” ma‘nosida kelgan o‘rinlari ham bor:

Necha *dersenkim*, Husayniy qolmadi joning sening,
Ey nasihatgo‘, netay bu yorsiz jonimni men. (H.D.15)

Xulosa qilib aytganda, Husayniy gʻazallarida “demoq” fe’li keng koʻlamda qoʻllangan boʻlib, faqatgina asosiy maʼnosida yaʼni, “aytmoq” maʼnosida qoʻllabgina qolmay, balki koʻchma maʼnolarda ham ham qoʻllagan.

Soʻzlashuv guruhiga kiruvchi yana bir feʼl boʻlgan “soʻzlamok” leksemasidan ham Husayniy gʻazallarida qoʻllagan. Bu feʼlning OʻTILda quyidagi maʼnolari berilgan: “ogʻzaki ravishda fikr bayon etmoq; gapirmok; nutq maʼruza qilmoq, gapirmok; koʻchma maʼnoda – ifodalamoq, namoyon etmoq”.

Quyidagi misralarda “bayon etmoq, soʻzlab bermok” maʼnosida kelgan oʻrinini koʻrishimiz mumkin:

Yo sanga yoʻq rahm, yo paygʻomim *ayturda* sabo
Qilmadi zohir mening holimni, ey dilbar sanga. (H.D.3)

Yoki:

Oshkora jon laʼling soʻzini *aytur*, valek
Yoshurun gʻunchang bila koʻnglumni bordur oʻzga roz. (H.D.8)

“Aytmoq” soʻzlashuv bilan bogʻliq feʼli ayrim oʻrinlarda “ifodalamoq, tasvirlamoq” maʼnosida kelgan. Masalan:

Kavsari laʼlinmu *aytay*, yoʻqsa xattidin aning,
Tegrasida sabzai jannat namudorinmu dey? (H.D.21)

Yoki:

Rishtai jon birla hayvon suyidin soʻrding xabar,
Belining torinmu *aytay*, laʼli guftorinmu dey? (H.D.21)

Xulosa oʻrnida shuni aytishimiz mumkinki, yuqoridagi baytlar misolida Husayniy gʻazallarida “aytmoq” feʼli keng koʻlamda qoʻllanmagan boʻlsada, ammo shoirning mahoarti bilan oʻz oʻrnida oʻquvchiga badiiy zavq beradigan tarzda qoʻllangan.

Soʻzlashuv bilan bogʻliq feʼllar guruhi kiruvchi yana bir feʼl bor boʻlib, uni Husayniy gʻazallarida uchratishimiz mumkin, yaʼni bu feʼl “takallum aylamoq” leksemasi boʻlib, quyidagi baytda “soʻzlamok” maʼnosida kelganini koʻrishimiz mumkin:

Buki laʼling tircizur elni *takallum aylabon*.

Man bilurman ushbu muxliq gʻamniyu jonim mening. (H.D.25)

Yuqoridagi semantik tahlillarimiz orqali shuni xulosa o'rnida aytishimiz mumkinki, Husayniy g'azallarida so'zlashuv bilan bog'liq fe'llar, "demoq, aytmoq, takallum aylamoq" leksemalar qo'llangan. Bu fe'llar ayrim o'rinlarda guvohi bo'lganimizdek o'zining asosiy ma'nosida va ko'chma ma'nolarda ham unumli qo'llangan. Ammo Husayniy g'azallarida "Husayniy Devoni" dan kelib chiqib aytadigan bo'lsam, "so'zlamoq" va "gapirmoq" kabi fe'llar uchramaydi.

Yeb ichish bilan bog'liq fe'llar Husayniy g'azallarida ko'p qo'llamagan bo'lsada, "yemoq, ichmoq, xo'rdan, sipqormoq" fe'llarini ko'rishimiz mumkin.

Bular orasidan "yemoq" fe'li quyidagi g'azalda o'zining asl ma'nosi, ya'ni "tanavvul qilish" ma'nosida emas, balki "g'am" so'zi bilan birga kelib, "g'am chekmoq" ma'nosida kelgan:

Ey Husayniy, uyqu bexudlik, *yemak g'amdur* menga,
To ne to'lg'ay oqibat xolim bu xobu xo'rd ila. (H.D.17)

Bu guruhga kiruvchi "ichmoq" va "sipqormoq" fe'llari Husayniy g'azallarida o'z ma'nosida kelgan (Husayniy Devonida). Masalan:

Ey Husayniy, boda *ichsam* yor alidin teng durur,
Bo'lsa obi Xizru umri jovidon yo bo'lmasa.

Yoki:

Ey Husayniy, ul kelib tutg'ach visoli jur'asin,
Tindurub ko'nglumni men ham *ichtim sipqorib*. (H.D.4)

Turkiy so'zlardan tashqari Husayniy forsiy so'zlardan ham g'azallarda keng qo'llagan. Buning misoli sifatida quyidagi baytda "xo'rdan" fe'lini ko'rishimiz mumkin:

Ne dame dardu ga'mingdin bore di orom-u sabr,
Ne zamone dog'i hajringdin bor erdi *xo'rd-u xob*.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Husayniy g'azallarida yeb-ichish bilan bog'liq fe'llar o'z ma'nosida kelganini ko'proq ko'rishimiz mumkin. Shoir ijodida "tamshimoq, simirmoq" kabi fe'llar uchramaydi.

Shoirning ijodini kuzatar ekanmiz, gʻazallarida qoʻllagan turli xil guruhlarga mansub feʼllarning qoʻllanilishi uning soʻz boyligi qanchalik keng ekanidan dalolat beradi. Husayniy gʻazallarida ishlatilgan koʻrish, soʻzlashuv va yeb-ichish bilan bogʻliq feʼllar koʻlami jihatidan va maʼno-mazmuni jihatidan keng qoʻllanilganligini hisobga oladigan boʻlsak, guvohi boʻlganimizdek, shoirning mahorati va soʻz boyligi juda yuqori. Yuqorida koʻrgan feʼllarimizni hozirgi kunda qoʻllamsak-da, taʼkidlash joiz, biz bugungi kunda foydalanadigan yuqoridagi feʼllar guruhiga kiruvchi ayrim soʻzlarni Husayniy ham oʻz gʻazallarida qoʻllamagan. Shu sababli, ushbu feʼllarni tahlil qilish orqali hozirda isteʼmolda boʻlmagan leksemalarning maʼnolarini bilishimizga koʻmaklashadi va qadimdan turkiy lirika qanchalik boy va sermazmun ekaniga ishora etadi. Ushbu guruhlarga kiruvchi feʼllar faqatgina turkiy boʻlibgina qolmasdan, balki forsiy va arabiy soʻzlaridan ham foydalangan. Bu esa gʻazallarga badiiylik bagʻishlagan. Oʻquvchiga mutolaa vaqtida estetik zavq beradi, bu esa shoirning yutugʻidan darak beradi.

RIZAYEVA Sitora,

Toshkent davlat oʻzbek tili va adabiyoti universiteti talabasi

RUBOIY TADQIQIDA MAʼRIFIY MAʼNO TALQINI

Oʻzining sermahsul ijodi, keng dunyoqarashi bilan tanilgan Ibrohim Haqqul adabiyotimizning yetuk dargʻalaridan hisoblanadi. Ibrohim Haqqul – yurtimizdagi eng yetuk tasavvufshunos, oʻzbek adabiyotining tadqiqotchisi va munaqqidi, oʻziga xos ilmiy maktab yaratgan navoiyshunosdir. Alisher Navoiy ijodini mustaqillik yillarida yangi, toza talqinlar bilan tahlil qilish, shoir ijodi zamiridagi chuqur maʼno koʻlamini keng ilm ahliga tanitish, targʻib qilish olim ijodining asosini tashkil qiladi. Ayniqsa, tasavvuf va Alisher Navoiy ijodi masalasi ayni olimning tadqiqotlarida atroflicha ochib berilgani bugungi navoiyshunoslar uchun ibrat, namuna maktabidir.

I.Haqqulov janrdan mazmunga, shakldan mohiyatga qarab borgan olimdir. Oʻz davrida Alisher Navoiyning kichik janrdagi asarlari shakl va mazmun jihatidan tahlil qilingani fanda katta yangilik boʻlgan edi

va hozirgacha ham bu borada asosiy qo‘llanma bo‘lib xizmat qilmoqda. Inson dunyoga kelibdimi, ma‘lum bir maqsad yo‘lida intilib izlanish olib boradi. Uni keng ommaga targ‘ib qilishga astoydil harakat qiladi. Shuningdek, Ibrohim Haqqul ijodidagi bosh g‘oya ham Navoiyni chuqur bilish va merosini o‘quvchilarga tushunarli qilib yetkazib berishdan iborat. Navoiyning she‘rlarini ko‘p o‘qigan kishi uning ma‘no mohiyatini anglaydigan, fikr-mulohazasidan o‘zi rohatlanadigan bo‘ladi. Undagi tuban fikrlar, qahrli tuyg‘ular, noo‘rin xayollar chekina boshlaydi. Navoiy ijodi insonni komillik sari yetaklaydi, qalb pokligiga imkon yaratadi. Shuni aytish kerakki, sho‘ro davri adabiyotshunosligida Navoiy she‘rlaridagi tasavvufiy tushunchalar noto‘g‘ri talqin qilinib, undagi yot g‘oyalarni xalqqa singdirishga intilingan. Ibrohim Haqqul fikricha, Navoiyning aksariyat she‘rlarida tasavvufning yo ziyosi, yo safosi, yo ma‘nosi yoki istiloh va timsoli erkin o‘rin egallagan. Buni ham inkor etib bo‘lmaydi. Faqat ishq, faqat haqiqatda emas, axloq-odob, ruh, tafakkur, ma‘rifat, shaxs tarbiyasi va dunyoda munosabat masalalarida ham tasavvuf Navoiy dunyoqarashini mash‘alday yoritib turgan.

Olim she‘riyat dunyosiga kirganda, undagi shaklga emas, uning ma‘no – mazmuniga e‘tibor beradi. Har qanday qofiyaga solingan so‘zlarni she‘r deyish mantiqqa to‘g‘ri kelmaydi. Agar she‘r shoirning sof tuyg‘ularidan yaralgan haqiqiy san‘at asari bo‘lsa, unda qofiya bo‘lmasa ham inson ko‘nglidan joy oladi. “She‘r haqiqiy zavq, yuksak ilhom mahsuli o‘laroq tug‘ilsa, xotirada, albatta, saqlanib qoladi. Nafsoniy mayllardan paydo bo‘lgan qofiyali misralar esa deyarli hech kimning yodida qolmaydi” [3, 2007: 23]. Haqiqatan, Navoiyning san‘atxonasiga qadam bosgan ijodkorlar she‘rlarida go‘zallik va nafosat, ruh va qalb teranliklari sezilib turadi. Ibrohim Haqqulning Navoiy haqidagi tadqiqotlari, uning bir qator g‘azallari, ruboiylari, qit‘alari, fardlariga bergan tahlillari, tasavvuf borasidagi izlanishlari oldingi o‘rinlarga olib chiqdi.

Ibrohim Haqqul Navoiyning ruboiy janridagi ijodini o‘rganishda katta hissa qo‘shdi. U shoir devonlaridagi ruboiylar sonini taqsimlab chiqadi. Shoirning “Xazoyin ul-maoniy” devonining debochasidagi 30 ta, “Munshaot”dagi 60 ga yaqin to‘rtlik ruboiy janridadir. Bundan tashqari shoirning “Xamsat ul-mutahayyirin”, “Holoti Sayid Hasan Ardasher” kabi asarlarida ham ruboiy janrining mukammal namunalari ko‘rishimiz mumkin. “Me‘zon ul-avzon”, “Mahbub ul-qulb”

“Majolis un-nafois” asarlaridagi o‘ttiz ruboiy ana shu talablarga to‘liq javob beradi.

“Ruboiy yaratish – qatrada dengiz, uchqunda quyoshni akslantirish san’ati deyilgan” [5, 1981: 34]. Darhaqiqat, xuddi shunday. Ruboiy, eng avvalo, ana shu jihatdan she’riyatning dovrug‘dor shakliga aylangan. Ruboiy Sharq she’riyatining “vohid quyoshi” deya ta’riflaydi Ibrohim Haqqulov. Navoiy ruboiylari ilmda endi tadqiq qilinayotgani yo‘q. Bu sohada navoiyshunos olimlarimiz ko‘pgina ishlarni amalga oshirgan. Ruboiy janrining Navoiy she’riyatida tutgan o‘rni, shoir to‘rtliklarining tematikasi, poetikasi bilan bo‘g‘liq bir qator masalarga prof. H.Zaripov, A.Hayitmetov, Y.Is’hoqov, N.Mallayev, R.Orzibekov, L.Serikovalar darslik, maqola, monografiyalarida to‘xtalib o‘tganlar. Shular qatori Ibrohim Haqqul ham Navoiyning buyuk san’atkorlik mahoratini ruboiy janrini tahlil qilish asosida yoritib beradi.

Ibrohim Haqqul ruboiy tahlilida inson ichki olamida his qilayotgan tuyg‘ular, kechinmalar nuqtayi nazaridan talqin qilinadi. Navoiy merosidagi hayotga tatbiq etish joiz bo‘lgan, insonlarni fikr olami kengayishiga zamin yaratadigan ruboiylarini tanlaydi. Masalan, “G‘amu dard – ishq shavqi”, “Sabr garchi kishiga ranj afzun aylar”, “Gar qilsa kishi qilib gunohi tavba”, “Kim bo‘lsa bir motamkadadek”, “Ollimda tabibi chorasozim ham yo‘q” kabi. “G‘am dard – ishq shavqi” degan ruboiy quyidagicha tahlil qilinadi.

*Ko‘nglumni g‘amu dard ila qon ayladi ishq,
Ko‘z yo‘lidin ul qonni ravon ayladi ishq.
Har qatrani bilmadim qayon ayladi ishq,
Bedil ekanim buyla ayon ayladi ishq.*

Navoiy ruboiylarini tahlil qilishda, avvalo mumtoz adabiyotimizdagi ishq turlarini ajratib olishimiz kerak. Ibrohim Haqqul ishq turlarini quyidagilarga bo‘ladi: majoziy, ruhoni, ilohiy ishq. Shundan kelib chiqsak, ruboiy mazmuniga qarab Navoiyning yuqoridagi ruboiysida ilohiy ishq haqida so‘z borganini anglashimiz mumkin. Navoiy asarlaridagi ishq bahslarga sabab bo‘ladi. Darhaqiqat, ishq kalimasiga asoslanib qaysi bir tadqiqotchi Navoiyni faqat majoziy muhabbat kuychisi o‘laroq tanitishga urinsa, boshqa birlari uni sufiy shoirlar davrasiga qo‘shishga harakat qiladi. Ibrohim Haqqul bahslar-

ga javob bo‘luvchi asoslarni keltiradi. “Lison ut-tayr” dostonidagi bir baytda navoiyshunoslikda shoirning shaxsiy hayoti bilan bog‘lab talqin qilinadi.

*Bir necha kun umrdin topsam omon
Sharqi ishqim nazm etay bir doston.*

Baytdagi “ishqim” so‘zini aryim olimlarning fikr-mulohazalari bilan solishtirib hikoyatlar, xalq tasavvurlari bilan boyitadi. Ba’zilar Navoiy “Lison ut-tayr”dagi ishqim so‘zini Navoiy ham bir qizni sevgan, ayni shayx San‘on hikoyatining oxirroq‘ida o‘zining ishq tarixidan hikoya qiluvchi bir doston yaratishni aytgan, degan xulosaga kelgan, ba’zilar balki Gulining hayotdagi asli (prototipi) bo‘lgandir?. Yana kimdir “Lison ut-tayr”da “ishqim” so‘zi o‘zining birorta qizga muhabbatini emas aksincha ma’naviy, ya’ni keng ma’nodagi ishqni, yanada aniqroq qilib aytsam, Haqqa – Tangriga ishqini ko‘zda tutgan. Ibrohim Haqqul bu fikrlarni rad etmagan holda, o‘zining qarashlarini bayon etadi. Hazrat Navoiyning ishq haqidagi quyidagi misolini keltiradi. “Ishq agar komildurur, oshiq qilur ma’shuqni” [3, 2007: 28]. Bundan bilishimiz mumkinki, baytda ruhoniylar sevgi ifodalangan. Ruhoniylar sevgi majoziy muhabbatdan balandga yuksalish va haqiqiy ishqqa yaqinlashish martabasi hisoblanadi. Bunday ishq ruhiy kamolot va ko‘ngil pokligining garovidir. “Layli va Majnun”ning ishq ruhiy ishqqa misol qilib keltirilgan.

Ibrohim Haqqul Navoiyning ruboiylari tahlilini o‘zining hayotiy tajribasi jihatdan tushuntirishga harakat qiladi. Navoiyshunoslar bor, lekin hammaning ichki olami Navoiy she’rlari kayfiyatiga to‘g‘ri kelishi qiyin. She’rlaridagi so‘z sehri, uning botiniylar ma’nosi ochib berilmasa, yuzakilik she’rxonni aldab qo‘yadi. Ibrohim Haqqul talqinidagi Navoiy ruboiylari tahliliga e’tibor qaratamiz.

*Sabr archi kishiga ranj afzun aylar,
Oxir kishi falini humoyun aylar.
Sabr nechakim ko‘ngulni mahzun aylar,
Ham sabr seni zafarga makrun aylar.*

Kishi boshiga neki kun kelsa, Alloh dandir. Sabr qilish iymon mustahkamligidan dalolatdir. Ibrohim Haqqul tahlilda islom nuqtai

nazardan yondashgan. Muqaddas Qur’oni Karimda to‘qsondan ortiq o‘rinlarda sabr haqida zikr etilgan. Zero, Sabr mo‘min va musulmalarga jannat eshiklarini ochuvchi bir kalitdir. “Sod” surasidagi “Albatta Alloh sobirlar bilan birgadir” degan ilohiy e’tirofni misol qilib keltiradi. Sabr haqida so‘zlash har kimning qo‘lidan keladi. Sabrli bo‘lish esa ma’naviyati yuksak aql zakovat sohiblariga xos. Olim Alisher Navoiyning “Nasoyim ul-muhabbat”idan hikoyat keltiradi: “naql qilishlaricha, Sirri Saqatiy muridlariga sabr haqida so‘zlar ekan, bir chayon kelib unga nish sancha boshlabdi. “Aytдилarkim: nechun uni o‘ldirmaysiz?” Aytдикim: Uyaldim, chun sabr xususida so‘zlayotgan edim” [4, 2011: 45]. Haqiqatan, sabrda so‘z va amal bir-biriga munosib bo‘lishi kerak. Dili boshqa tili boshqalar sabr haqida tanbeh berishga loyiq ko‘rilmaydi. Ibrohim Haqqul “tasavvufda sabrning tamali nafsga qarshi borish”ligini aytadi. Tog‘ri, nafsga mag‘lub kishi sabr qiluvchilardan bo‘la olmaydi. Nafs insonning qanoatini, toqatini yengadi. Uni yomon illatlarini yuzaga chiqaradi.

*Gar qilsa kishi qilib gunohe, tavba,
Ul jurmg‘a bo‘lsa uzrxohi tavba.
Qilmoq necha goh jurmu gohe tavba,
Bu jurm ila tavbadin, ilohi, tavba.*

Gunoh inson qalbining kirlanishidan sodir bo‘ladi. U iymondan uzoqlashdimi, vujudi gunoh qilishga moyil bo‘ladi. Iymon kishini razilliklardan, shaytoniy mayllardan xolos qiladi. Nafs borki hech shaksiz gunoh xavfi bo‘ladi. Ammo vijdon degan tuyg‘u insonni gunoh changalidan qutulishga chorlaydi. Choralarning chorasi esa mehribon Alloh tomonidan belgilangan - tavba. Tavba-tazarru inson tanasining botinan tozalaydigan bir holat. Biroq inson chin ko‘ngilgan poklanmadimi unda yana gunoh qilishga qaytish kuzatiladi. Bu holatni ko‘p ko‘rgan Navoiy ruboiyda: *Bu jurm ila tavbadin, ilohi, tavba,* – degan bir qiziqtiruvchi fikrni aytadi. Bu holatga olim quyidagicha misol keltiradi. “Zunnun Misriyning ta’kidlashicha, xalqning tavbasi ayb va gunohdan, avliyoni g‘aflatdan, nabiyning tavbasi o‘zgalar qo‘lga kiritgan narsalarga erishmoqdan ojiz ekanliklarini ko‘rishdan hosil bo‘lar ekan” [4, 2011: 45]. Demak, Navoiy ruboiyda xaloyiqqa xos tavbani nazarda tutgan.

Ibrohim Haqqul ruboiyni tahlil qilishda mashhur shayxlarning fikr-mulohazalariga tayangan holda tahlil qiladi. Birgina shu ruboiyni tahlil qilishda insonning diniy, dunyoviy tasavvufiy tasavvurlari keng shakllangan bo‘lishi kerak. Yo‘q ma‘no mazmuni bo‘rttirib ko‘rsatish shart emas, borini tushunarli qilib yetkazib berish ham bu katta mahorat emas.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alisher Navoiy. G‘azallar. Sharhlar. – Toshkent: Kamalak, 1991. -136 b.
2. Alisher Navoiy: qomusiy lug‘at. 1-2-jildlar. Mas‘ul muharrir Sh.Sirojiddinov. – Toshkent: Sharq, 2016.
3. Haqqul I. Navoiyga qaytish. 1-kitob. –Toshkent, 2007. – 33 b.
4. Haqqul I. Navoiyga qaytish. 2-kitob. –Toshkent, 2011. – 200 b.
5. Хаққулов И. Ўзбек адабиётида рубоий. Тошкент, 1981. – 100 б.

SODIQOV Mirjalol,

Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti talabasi

“MAJOLIS UN-NAFOIS”NING BIRINCHI MAJLISIDA KELTIRILGAN SHE'RIY PARCHALARNING JANRIY TARKIBI

Adabiyotshunoslik orqali ma‘lumki, Alisher Navoiyning "Majolis un-nafois" asari turkiy adabiyotdagi tazkira yo‘nalishining ilk namunasi bo‘lib, unda XV asrda yashab, faoliyat yuritgan 459 ta ijodkor haqida ma‘lumot beriladi va ularning ijodlaridan namunalar keltiriladi. Navoiy ushbu asar orqali XV asr Xuroson va Movarounnahrdagi adabiy muhitni muayyan tarzda ochib berishga muvaffaq bo‘lgan. Asar 8 qism (“majlis”)dan iborat bo‘lib, Navoiy tazkiraning muqaddimasida asarning tarkibiy qismi va nomlanishi haqida shunday yozadi: “...*chun bu maqsudg‘a yetildi, oni sekkiz qism etildi, har qismi bir majlisg‘a mavsum bo‘ldi va majmuig‘a “Majolis un-nafois” ot qo‘yildi*”³⁹. Asar bo‘yicha S.G‘anieva, R.Vohidov, R.Qodirova, I.Nosirov, Z. Isaqovalarning tadqiqotlari mavjud⁴⁰.

³⁹ Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. МАТ. 20 жилдлик. Т., 1997, 13-ж. – Б. (Bundan keyingi misollar shu manbadan olinadi).

⁴⁰ Ганиева С. “Маджалис-ун-нафаис” Алишера Навои (литературно-исторический анализ и критический текст III и IV маджлисов): к.ф.н., Л., 1956; Qodirova P.B. Туркий

Biz ushbu maqolamizda tazkiraning 1-majlisida keltirilgan she'riy parchalarning janr xususiyatlariga to'xtalib o'tmoqchimiz. Ma'lumki, tazkiradagi shoirlar majlis, ya'ni qismlarga quyidagicha taqsimlangan: 1-majlisda 46 nafar, 2-majlisda 91 nafar, 3-majlisda 175 nafar, 4-majlisda 72 nafar, 5-majlisda 21 nafar, 6-majlisda 31 nafar, 7-majlisda 22 nafar shoir, 8-majlisda esa Husayn Boyqaro b-n bog'liq ma'lumotlar keltirilgan. Tazkiraning birinchi majlisiga "Jamoati maxodim va azizlar zikridakim, bu faqir alarning sharif zamonining oxirida erdim va mulozimatlari sharafiga musharraf bo'lmadim" degan sarlavha biz bundan Navoiy ushbu majlisdagi ijodkorlar bilan uchrashishga muyassar bo'lmaganligi, chunki ular XV asrning birinchi yarmida faoliyat yuritganlarini bilib olamiz. Ushbu majlisdagi shoirlarni o'rganish jarayonida Navoiygacha bo'lgan 46 ijodkorning she'rlaridan keltirilgan parchalar jami 8 xil janrda yozilganligi ma'lum bo'ldi. Ushbu janrlar quyidagilar: g'azal, qasida, muammo, qit'a, ruboiy, masnaviy, tarji'band, fard. Alisher Navoiy ushbu qismga turli xil ijodkorlardan jami 154 misra keltiradi. Shoir aksariyat o'rinlarda o'zi keltirayotgan parchaning janrini aytib ketadi, xususan, *qit'a*, *muammo*, *masnaviy*, *qasida* kabi she'riy janrlarni Navoiyning o'z ishorasi orqali topish mumkin. Ayrim baytlar, xususan, beshta o'rinda kelgan baytlarning janrini aniqlashning imkoni bo'lmadi. Bu parchalar Sayid Ali Hoshimiy, Mavlono Qudsiy, Mavlono Ali Ohiy, Mavlono Zohidiy, Muhammad Ali Shug'oniy kabi shoirlar bilan bog'liq faslda keltirilgan.

Birinchi majlisda keltirilgan she'riy parchalarning janr xususiyatlari va miqdorini quyidagi jadvalda ko'rish mumkin:

| T.r. | She'riy parcha janri | Miqdori | Hajmi |
|-------------|-----------------------------|----------------|--------------|
| 1. | G'azal | 49 ta | 102 misra |
| 2. | Qasida | 4 ta | 7 misra |
| 3. | Muammo | 2 ta | 4 misra |
| 4. | Qit'a | 1 ta | 4 misra |

тилли адабиётда Алишер Навоий "Мажолис ун-нафоис" асари анъаналари (Содиқбек Содиқийнинг "Мажма ул-навос" тазкираси материаллари асосида): ф.ф.н., Т., 1979; Носиров И. Алишер Навоий "Мажолис ун-нафоис" асарининг лексикаси: ф.ф.н., Т., 1980; Исақова З.М. Алишер Навоийнинг "Мажолис ун-нафоис" асаридаги ижтимоий-сиёсий лексика: ф.ф.н., Т., 2010.

| | | | |
|----|------------------------|------|----------|
| 5. | Ruboiy | 3 ta | 12 misra |
| 6. | Masnaviy | 5 ta | 11 misra |
| 7. | Tarji'band | 1 ta | 2 misra |
| 8. | Fard | 1 ta | 2 misra |
| 9. | Janri noma'lum baytlar | 5 ta | 10 misra |

Birinchi majlis tasavvuf shayxlaridan bo'lmish Xoja Qosim Anvor zikri bilan boshlanadi. Unda berilishicha, yosh Alisher o'qigan va yod olgan ilk she'r ham Qosim Anvor qalamiga mansub quyidagi matla' edi:

*Rindemu oshiqemu jahonso 'zu joma chok,
Bo davlati g'ami tu zi fikri jahon chi bok.*

(Mazmuni: Rindmiz, oshiqmiz, olamga o't qo'yuvchi benavolarmiz, Sening g'aming davlatidan olam fikridan yiroqmiz).

Asarda Qosim Anvor qalamiga mansub 4 ta she'riy parcha keltirilgan bo'lib, ulardan ikkitasi g'azal janri matla'si, biri "Anisul oshiq" masnaviysidan bir misra hamda shoirning tarji'bandining vosila (takrorlanuvchi) baytidir. Ayrim o'rinlarda Navoiy o'zi keltirayotgani she'riy parchalarning vaznini ham aytib ketadi. Xususan, Qosim Anvorning masnaviysi haqida ma'lumot berar ekan, shunday yozadi: "...masnaviylari hazrati mavlono Jaloliddin Rumi (quddisa sirruhu) masnaviylarining vaznidakim «ramali musaddas» derlar voqye' bo'lubtur, bu misra'kim:

Bud dar Tabriz sayyidzodae (Ma'nosi: Tabrizda bir sayyidzoda bor edi) andindur, go'yoki maqsad o'zlaridur..." Navoiyning ushbu ma'lumotidan masnaviyda tilga olingan sayyidzoda so'zi orqali Qosim Anvorning o'ziga ishora borligini sezish mumkin.

Mazkur majlisda muayyan shoirning ta'rifi keltirilar ekan, aksariyat hollarda ushbu shoirning tab'i nazmi haqida kitobxonda yaxshiroq tasavvur hosil bo'lishi uchun uning turli janr va yo'nalishlarda bitilgan she'r va dostonlaridan parchalar keltiriladi. Xususan, Mavlono Kotibiy bilan bog'liq faslda unga "zamonasining benaziri" deb ta'rif berilar ekan, she'riyatning qaysi janrida qalam tebratmasin, ular ajoyib ma'nolari bilan ajralib turishi, xususan, qasidachilikka ko'p yangiliklar olib kirgani, she'rning barcha turida unga teng keladigan iste'dod sohibi yo'qligi haqida ma'lumot beradi. "Majolis un-

nafois”da Kotibiyning to‘rt xil yo‘nalishdagi she‘rlari: g‘azal, qasida, masnaviy, qit‘adan parcha berilgan. Xususan, g‘azalidan quyidagi matla' keltirilgan:

*Zi chashmu dil badani xokiyam dar otashu ob ast,
Ba chashm binu ba dil rahm kunki, kor xarob ast”.*

(Mazmuni: Bu tuproqdan yaratilgan tanim ko‘zu dil dastidan suvu o‘t ichra qoldi. Ko‘zing ko‘rib, ko‘ngling rahm etmasa, holim xarobdir).

“Majolis un-nafois”ning birinchi majlisida o‘sha davrda yashagan ba‘zi ayol shoirlar haqida ham ma‘lumot keltirilgan. Garchi nomlari tazkirada alohida keltirilmagan bo‘lsa ham, shoirning ular haqidagi qaydlari ad-tshunoslik uchun nihoyatda muhimdir. Alisher Navoiy tazkiraning shoir Shayxzoda Ansoriyga bag‘ishlangan faslida “andoq zohir bo‘lurkim, volidasi ham xushtab'dur va Bediliy taxallus qilur” degan ma‘lumotni keltirsa, Mavlono Sulaymoniy haqidagi faslda Hofiz Sheroziy g‘azaliga nazira tariqasida yozilgan va Mavlono Sulaymoniyniki deb hisoblangan she‘r haqida “*Va mashhuri mundoqdururkim, bu abyot Mavlono Hakim tabibning xotini Mehriningdur*” deb yozadi⁴¹. Ushbu she‘r quyidagicha:

*Guftam az madrasa pursam sababi hurmati may,
Dari har kaski, zadam bexudu loya'qil bud*

(Mazmuni: Mayning haromligini madrasa ahlidan so‘ray deb kimning eshigini qoqsam, (u yerdagilar) bexush va alast bo‘lib yotgan edi).

Diqqatga sazovor tomoni, ushbu majlisda ayrim turkigo‘y shoirlar haqida ham ma‘lumotlar keltirilgan. Ularning soni 4 ta bo‘lib, quyidagilardir: Mavlono Amiriy, Mavlono Hoji Abulhasan, Mavlono Qutbiy, Mavlono Naimiy. Majlisda ularning har biridan bir bayt turkiy she‘r, jami 4 bayt misol keltirilgan.

Masalan, asarda Mavlono Amiriyning quyidagi bayti keltirilgan:

*Ne yemakdin, ne uyqudin solib so‘z,
Yemakdin to‘yub uyqudin yumub ko‘z.*

⁴¹ Sirojiddinov Sh., Yusupova D. Navoiyshunoslik. –Toshkent: TAMADDUN, 2019. -B. 207.

Bizga ma'lumki, mavlono Amiriy zullisonayn shoir bo'lib, u Shohrux Mirzo va uning o'g'li Boysung'ur saroyida xizmat qilgan. Turkiy va forsiy tillarda ijod qilgan. Turkiy devoni qasida, g'azal, tuyuq va masnaviy janridagi namunalardan iborat. U turkiy adabiyotida eng ko'p tuyuq yozgan shoirlardan sanaladi. G'azalnavislikda Kamol Xo'jandiyga payravlik qilgan. Uning Xorazmiy ta'sirida yozgan "Dahnoma" ("O'n noma") masnaviysi va Ubayd Zokoniya ergashib bitgan "Bang va Chog'ir" munozarasi mashhur⁴².

Xulosa qilib aytganda, "Majolis un-nafois"ning birinchi majlisida keltirilgan she'riy parchalarning janr xususiyatlarini o'rganish 15 asr madaniy hayoti, shoirlarning she'r yaratish iqtidori, adabiy muhit haqidagi tasavvurlarimizni kengaytiradi. Shuningdek, tazkiraning ushbu majlisi Navoiyning hayoti va faoliyatini o'rganishda ham muhim avtobiografik manba hisoblanadi. Majlis orqali shoirning ilk yodlagan she'ri, ma'naviy ustozlari, turkigo'y salafllari haqida ham ma'lumot olish mumkin. Ushbu majlisda nomlari tilga olingan ko'p shoirlarning asarlari bizgacha yetib kelmagan. Bu jihatdan ham tazkira g'oyat nodir manba bo'lib, adabiyotshunoslik uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. МАТ. 20 жилдлик. – Тошкент: Фан, 1997, 13-жилд.
2. Алишер Навоий: қомусий луғат. – Тошкент: Шарқ НМК, 2016. 1-жилд.
3. Ганиева С. "Маджалис-ун-нафаис" Алишера Навои (литературно-исторический анализ и критический текст III и IV маджлисов): Автореферат дисс. канд.фил.наук. – Ленинград, 1956.
4. Қодирова Р. В. Туркий тилли адабиётда Алишер Навоий "Мажолис ун-нафоис" асари анъаналари (Содиқбек Содиқийнинг "Мажма ул-ҳавос" тазкираси материаллари асосида): Филол.фан.номз. дисс. автореф. – Тошкент, 1979.
5. Sirojiddinov Sh., Yusupova D. Navoiyshunoslik. – Toshkent: TAMADDUN, 2019.

⁴² Алишер Навоий: қомусий луғат. – Тошкент: Шарқ НМК, 2016. 1-жилд.

*TASHTEMIROVA Zulfizar,
Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti magistranti*

ALISHER NAVOIYNING “HAYRAT UL-ABROR” DOSTONIDA QOFIYA SAN’ATLARI VA QOFIYADOSHLIK

Mumtoz adabiyotimizda qofiyadan foydalanish shoirning badiiy mahorati belgisi hisoblanadi. Chunki qofiya she’riy asarning ohangdorligi, serjiloligi va badiiy ta’sirchanligini ta’minlaydigan asosiy unsurlardan biridir. Qofiyaning ushbu xususiyatlarini yanada oshiradigan san’atlar ham mavjudki, ular Sharq she’riyatida asrlar davomida shakllangan va shoirlarning so‘z tanlash mahoratini ko‘rsatib turgan.

Alisher Navoiyning “Hayrat ul-abror” dostonida qofiya san’atlarini ko‘p uchratish mumkin. Shu jumladan, tarsi’ san’ati qofiya san’atlaridan biri bo‘lib, unda baytdagi so‘z yoki so‘z birikmalarining har biri o‘zaro qofiyadoshlik hosil qiladi. Quyida dostonidan olingan ba’zi baytlarni ko‘rib o‘tamiz.

*Ravzai jannatg‘a eshik “ro”lari,
G‘unchai vahdatg‘ä beshik “ho”lari.*

Ko‘rib turganimizdek, baytdagi har bir so‘z o‘zaro ohangdosh bo‘lib kelmoqda: *ravzai-g‘unchai, jannatg‘a-vahdatg‘a, eshik-beshik, “ro”lari-“ho”lari*. Tarsi’ san’atini qo‘llashning ahamiyati katta, chunki ushbu she’riy san’at vositasida, baytdagi ohang undan anglashilayotgan mazmunning ham ta’sirchanligini oshiradi. Quyidagi yana bir baytda *rishta-shu’la, anga-anga, tori-nuri, inoyat-hidoyat* so‘zlari o‘zaro qofiyadosh bo‘lib kelgan:

*Rishta anga tori inoyat bo‘lub,
Shu’la anga nuri hidoyat bo‘lub.*

Bir qarashda *rishta* va *shu’la* so‘zlari qofiyadosh emasdek tuyulishi mumkin. Buning sababi ushbu so‘zlardagi ba’zi tovushlarning, ya’ni *i-u, sh-’, t-l* larning o‘zaro uyg‘unlik kasb etmaganligidir. Qofiya raviy harfiga asoslanishini hisobga oladigan bo‘lsak, har ikkala so‘zlardagi raviy harfi “a” bo‘ladi. Qofiyadagi ohangdoshlik raviy-

doshlikka asoslangani uchun yuqoridagi baytda *rishta-shu'la* soʻzlari qofiyadosh hisoblanadi.

*Ne boʻlub avvalda bidoyat sanga,
Ne kelib oxirda nihoyat sanga.*

Bu baytni tahlil qiladigan boʻlsak, *ne boʻlub-ne kelib, avvalda-oxirda, bidoyat-nihoyat* soʻzlari oʻzaro qofiyalangan, *sanga-sanga* soʻzi esa radif ekanligini koʻrishimiz mumkin.

*Avj tutub shuʻlai jabborliq,
Mavj urub lujjai qahhorliq.*

Ushbu baytda *avj-mavj, tutub-urub, shuʻlai-lujjai, jabborliq-qahhorliq* soʻzlari oʻzaro qofiyalanib tarsiʻ sanʻatini yuzaga keltirgan.

Navoiy soʻzlardan shu qadar ustalik va mahorat bilan foydalan-ganki, ular ham bayt mazmunidagi, ham uning shaklidagi, qolaversa, baytning musiqiyligidagi nozik qirralarni-da oʻquvchi qalbining tub-tubigacha yetkazib bergan. Quyidagi “Hayrat ul-abror”dan olingan yana bir

*Ham mutafakkir boʻlubon avliyo,
Ham mutahayyir qolibon anbiyo.*

baytida ham tarsiʻ sanʻati goʻzal ohangni yuzaga keltirgan: *ham-ham, mutafakkir-mutahayyir, boʻlubon-qolibon, avliyo-anbiyo*

“Hayrat ul-abror” dostonida qoʻllangan yana bir qofiya sanʻati zulqofiyatayndir. Zulqofiyatayn istilohi “qoʻsh qofiya” degan maʼnoni bildirib, misrada bir emas ikkita soʻz qofiya boʻlib keladi.

*Shavqida koʻksumni shikof ayladim,
Jildigʻa koʻnglumni gʻilof ayladim.*

Bu baytni koʻzdan kechiradigan boʻlsak, Navoiy unda ikkita soʻzni qofiyadosh qilib keltirgan: *koʻksumni-koʻnglumni, shikof-gʻilof* va natijada zulqofiyatayn sanʻati yuzaga kelgan.

Zulqofiyatayn san'ati ikki turli bo'ladi. Birinchisi, **mutakarrin qofiya**- misradagi har ikkila qofiya bo'lib kelayotgan so'z ketma-ket keladi.

Masjidi qandili sipehri asir
Shu'la bu qandil aro mehri munir

baytida *sipehri-mehri, asir-munir* so'zlari o'zaro qofiyadosh bo'lib kelgani holda *sipehri asir* hamda *mehri munir* so'zlari ketma-ket joylashgan.

Borcha jahon ahlig'a zoti nihon,
Mazhari asmou sifoti jahon.

Bu baytda ham *zoti nihon* va *sifoti jahon* birikmalari zulqofiyataynni ifodalaydi.

Mutakarrin qofiya faqat misralarning oxirida emas, balki misra o'rtasida ham kelishi mumkin:

To'rt sadaf gavharining durji ul,
Yetti falak axtarining burji ul.

Keltirilgan baytda *gavharining durji* qofiyalari va *axtarining burji* qofiyalari ketma-ket joylashgan. Har ikkala misrada ham qofiya bo'lib kelayotgan so'zlardan keyin *ul-ul* radifi kelgan va qofiya bo'lib kelayotgan so'zlardan oldin ham *To'rt sadaf* va *Yetti falak* so'zlari kelgan. Demak, bu yerda zulqofiyatayn misralarning o'rtasida joylashgan.

Zulqofiyataynning ikkinchi turida qofiyadosh ikki so'z misralarda yonma-yon emas, balki ikki o'rinda keladi, ular **mahjub qofiya** deyiladi.

Doirani juz bu sifat tuzmayin,
Silsilani bir-biridin uzmayin

baytida *doirani-silsilani* qofiyalari zulqofiyatayndagi qo'sh qofiyaning birinchisi bo'lib, ular misralarning boshida kelgan. Ikkinchi qofiya *tuzmayin-uzmayin* so'zlari esa misralarning oxirida joylashgan. Bundan ko'rishimiz mumkinki, ushbu baytda mahjub qofiya qo'llanilgan. Zulqofiyataynning mahjub turini mukammalroq tushuntirish maqsadida yana bir baytni ko'rib chiqamiz.

***Bir-birig‘a bo‘yla tuzub marhala,
Silsilag‘a bog‘lanibon silsila.***

Bu baytdagi *bir-birig‘a- silsilag‘a* so‘zlari misralar boshida qofiyadosh bo‘lib kelayotgan bo‘lsa, *marhala-silsila* so‘zlari misralar oxiridagi qofiyani tashkil etgan. Ko‘rib turganimizdek, baytda mahjubi zulqofiyatayn yuzaga kelgan.

Qofiya san‘atlaridan yana biri zulqavofiy deb nomlanadi. Zulqavofiy san‘atida qofiya bo‘lib kelayotgan so‘zlarning soni ikkitadan ortiq bo‘lishi talab etiladi. Agar ikkita qofiya qo‘llansa, zulqofiyatayn bo‘lishini ko‘rib o‘tgan edik. Demak zulqavofiyda uchta va undan ortiq so‘zlar qofiya bo‘lib kelishi kerak.

***Shahr aro po‘ya urdi ko‘y bako‘y,
Telba yanglig‘ yugurdi so‘y baso‘y.***

Bu baytda *urdi-yugurdi, ko‘y-so‘y, bako‘y-baso‘y* so‘zlari qofiya bo‘lib kelgan. Qofiya ikkitadan ortiq bo‘lganligi uchun zulqavofiydir.

Shayx Ahmad Taroziy “Funun ul-balog‘a” asarida zulqofiyatayn san‘atini zulqavofiy san‘atining ichida ekanligini aytib o‘tadi. Aslida ham ikkala san‘at o‘rtasida u qadar katta farq ko‘zga tashlanmaydi. Ammo qofiya san‘atlari shaklga asoslanganligi uchun ham qofiya bo‘lib kelayotgan so‘zlarning soni katta ahamiyat kasb etadi. Shuni hisobga oladigan bo‘lsak zulqavofiy san‘ati zulqofiyatayndan kengroq. Zulqavofiyning ichida zulqofiyatayn mavjud bo‘lishi mumkin, lekin zulqofiyataynning ichida zulqavofiy bo‘lishi mumkin emas. Shu jihatdan Taroziyning ushbu san‘atlar xususidagi fikri asoslidir.

Zulqavofiy san‘ati ham zulqofiyatayn kabi mutakarrin – ketma-ket yoki mahjub – turli o‘rinlarda joylashgan bo‘lishi mumkin.

***Bo‘ldi risolat durining maxzani,
Balki nubuvvat gulining gulshani.***

Ushbu baytda qofiya bo‘lib kelayotgan har uchala so‘z ketma-ket joylashgan bo‘lib, mutakarrini zulqavofiy hosil bo‘lgan. Quyidagi baytlarda esa bu holatning aksini ko‘rishimiz mumkin. Ya‘ni qofiya bo‘lib kelayotgan so‘zlar ketma-ket joylashmagan.

*Ham uchurib zuhdu vara' xirmanin,
Ham sovurub sabru sukun maskanin.*

*Ham to'quz aflokni chekting rafe',
Ham kurai xokni yoyding vase'.*

Keltirilgan baytlarda qofiya bo'lib kelayotgan so'zlar misralarining turli o'rinlarida joylashgan. Bu hodisa mahjubi zulqavofiy deb nomlanadi.

Alisher Navoiy "Hayrat ul-abror" dostonida qofiya san'atlaridan unumli foydalanganligi bilan bir qatorda qofiyadoshlikni hosil qilishda ham mazmun va shaklning uyg'un bo'lishiga katta e'tibor qaratgani sir emas. Shu o'rinda qofiyadoshlik yuzaga kelishi uchun qanday usullardan foydalanish mumkinligiga ham to'xtalib o'tsak. Qofiya hosil bo'lishi uchun misra oxiridagi yoki radifdan oldingi so'zlar qofiyadosh bo'lishi kerak. Qofiyadoshlik quyidagi turlarga bo'linadi:

1) o'zak + o'zak

*Kimki g'animat uchun aylar g'azo
Man'i shahodat anga basdur jazo.*

*Borcha jahon ahlig'a zoti nihon,
Mazhari asmou sifoti jahon.*

Birinchi misrada kelayotgan *g'azo-jazo* yoki ikkinchi misrada kelayotgan *zoti nihon-sifoti jahon* so'zlari o'zagida qofiyadoshlik yuzaga kelgan.

2) o'zak + qo'shimcha

*Amr bo'lub tavba desa chin durur
Gar oni hifz etmasalar sindurur.*

*Lillah esa yaxshiroq eldin qiroq,
Haq chu bilur, bilmasa el yaxshiroq.*

Ikkinchi usulda o'zak va qo'shimcha o'rtasida qofiyadoshlik shakllangan bo'lishi kerak, xuddi keltirilgan baytlardagi kabi: ***durur-sindurur, qiroq-yaxshiroq.***

3) qo'shimcha + qo'shimcha

Shod ani bil dahrda kim g'am yemas

Dah rishi chun g'am yegali arzimas.

*Bir-birig'a bo'yla tuzub marhala,
Silsilag'a bog'lanibon silsila.*

Uchinchi usulda qofiyadoshlik har ikkala soʻzning oʻzagida emas, balki qoʻshimchalarida boʻlishi kerak. Birinchi baytdagi *yemas-arzimas* qofiyalarida qoʻshimchalar oʻrtasida qofiyadoshlik mavjud. Ikkinchi baytda *bir-birig'a-silsilag'a* soʻzlarida ham qoʻshimchalar qofiyadosh boʻlib kelmoqda.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, qofiya sanʼatlari doston yoki sheʼriy asarlarning gʻoyaviy-badiiy xususiyatlarini ochishda va mazmun va shaklning uygʻunligida katta ahamiyat kasb etadi. Qofiyadoshlik turlaridan unumli foydalanish va qofiya sanʼatlarini qoʻllash ijodkor asarining yanada ohangdor va ulugʻvor boʻlishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alisher Navoiy. Hayrat ul-abror (toʻplab nashrga tayyorlovchi A.Qayumov). –Toshkent: Gʻafur Gʻulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2006.
2. Ҳоҗиаҳмедов А. Шеърӣ санъатлар ва мумтоз қофия. –Тошкен: Шарқ, 1998.– 160 б.
3. Рустамов А. Навоийнинг бадий маҳорати. – Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1979. – 216 б.
4. Sirojiddinov Sh., Yusupova D., Davlatov O. Navoiyshunoslik. – Toshkent: “TAMADDUN”, 2018. – 520 b.

ALIYEV Farxodbek,

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti magistranti

SHARQ MUMTOZ ADABIYOTI VA NAVOIY IJODIDA QUR'ON OYATLARINING O'RNI

Islom madaniyatining Makkasi va barcha mustaslam xalqlarning nurafshon ramzi Qur'oni Karim oʻzining 14 asrlik tarixi davomida qanchadan-qancha mamalakatlar va allomalar taqdirida tutgan oʻrni, badiiy taʼsir sarchashmalari va nufuzi tufayli chuqur ilmiy diniy taxlil va tadqiqotlarga sazovordir. Qur'on mavzulari Islom dinini qabul

etgan xalqlar adabiyotiga singib, mahalliy diniy va adabiy aqidayu an'analar bilan uzviy ravishda bog'lanadi. Islom dini va mahalliy urf-odatlar to'qimasi asosida o'zbek adabiyoti ilmining shoh asarlari yaratildi.

Qur'oniy mavzularning jahon va alalxusus o'zbek adabiyotiga singib o'tishi faqat diniy nuqtai nazardangina ibratli bo'lib qolmay, balki, Sharq adabiyotining biz uchun mavhum qirralarini biz uchun oydinlashtirib, turli adabiy mavzularning sarchashmalarini ochgan va hozirgi zamon o'zbek adabiyotining islom adabiyoti shajaraviy, moziydan uzilmas aloqalarini tiklashga ham madad bergan bo'lardi. Natijada Qur'on ko'zglasining nurida o'zbek adabiyotiga xos tarixiy-adabiy qatlamlarning vujudga kelishi va rivoji to'g'ri tushunilgan bo'lardi.⁴³

Sharq milliy an'analarining rivoji o'ziga xosligi islom adabiyotining avval arab, keyin fors va nihoyat turk jumaladan o'zbek tilidagi rivojida namoyon bo'ladi.

Arab va noarab (asosan forsiy va turkiyzabon) adabiy oqimlarining to'qnashuvi, o'zaro singib borishi va o'zaro ta'siri jarayonida musulmon adabiyotlar aro mushtaraklik vujudga keladi va jahon adabiyoti matnida o'ziga xos va G'arb adabiyotiga ham tasir o'tkazuvchi mavqe'ini shakllantiradi.

Arab, fors va turkiy tillarda yaratilgan islom adabiyotida qay biri ustun degan savol noo'rindir. Har bir tilda yaratilgan milliy adabiyot o'ziga xos qirralarga molik bo'lib, muayyan davrda yuksalishi davlat tili maqomiga ko'tarilishiga ham bog'liq bo'lgan. Ammo bu adabiyotlar uchun umumislom bo'lmish Qur'oni Karim tilida ijod etish va Qur'on mavzularidan keng foydalanish xosdir⁴⁴.

Musulmon adiblari qay millat vakili bo'lishidan qat'iy nazar, avvalambor yagona ummat a'zolari edi. Shu nuqtai nazardan ularning ijodida milliy xususiyatlar Qur'onda o'z ifodasini topgan umumislom va umuminsoniy bashoratalar bilan chambarchas bog'liq holda namoyon bo'ladi.

X asrda arab xalifaligi hududularida barpo etilgan turli tildagi adabiyotlarda milliy ohanglar kuchayishi tabiiy hol edi. Ammo mazkur davlatlar islom bayrog'ini tuban tutmaganligi va diniy e'tiqod xalq

⁴³ Хамидулла Кароматов. «Қуръон ва ўзбек адабиёти», Т.: ЎзР ФА Фан, 1993. – Б.4

⁴⁴ О'sha kitob, – В.5

orasiga singib bo'lgani tufayli islom yo'nalishi sayozlashmadi, aksincha to'siqlarni yengib, kuchayib bordi. Hozirgi kun intilishlari bunga yorqin misol. Shu sabab arab xalifaligi yemirila boshlagandan keyin ham yagona islom madaniyati va adabiyoti nihoyasiga yetmadi, balki yangi tarmoqlar sari rivojlanib, Qur'oniy ohanglar kuchayib bordi. Alohida olingan milliy adabiyotlar ravnaqi islom adabiyotining hayotbaxshligini ta'minladi. Sharq va keng ko'lamda jahon adabiyoti tarkibida o'zbek adabiyoti ham Qur'onni asrlar davomida turlicha o'zlashtirgan va uning mavzulari asosida turfa asarlar yaratilgan. Qur'onning matni 14 asr davomida o'zgargani yo'q, o'zgarmaydi ham. Aksincha undagi iboralar turli tillarga singib o'tib, o'ziga xos Qur'oniy iboralar sifatida turli xalqlarning maqol va matallariga asos soldi. Bir so'z bilangina olam-olam ma'noni ifodalovchi iboralar jilolanib tarix nafasi jonlandi⁴⁵.

Qur'on matni o'zgarmagan, islom dinini qabul etgan xalqlar tarixi zamon zayli bilan o'zgarib borgan. Qur'on matni zamon va makonda mahalliy tarixiy muhit bilan muttasir bo'lib, har bir xalq taraqqiyotining muayyan davrida o'ziga tegishli xulosalar chiqargan, Qur'oniy mavzularni adabiy asarlarga kiritgan. Mazkur jarayon natijasida milliy adabiyotining Qur'on matni bilan sintezi asosida badiiy va diniy-didaktik asarlar yaratilgan.

Diniy, falasafiy va umuminsoniy haqiqatlarni ifodalagan Qur'oniy mavzular va diniy mafkura ramzlarining Alisher Navoiy ijodidan muhim o'rin olgani bunga yorqin dalildir.

Alisher Navoiy o'zbek mumtoz adabiyotining deyarli barcha janrlari va mavzularida samarali ijod qilgan. Navoiyning irfoniyligini adabiyotimizga qo'shgan hissasi beqiyosdir. Davlatshoh Samarqandiy Navoiyni "Mir Nizomiddin", ya'ni "dinning nizomi - qonuni" deb bejiz ulug'lamagan.

Navoiy Qur'onni juda yaxshi bilgan shaxs bo'lgan. Navoiy Qur'onni shu qadar yaxshi o'zlashtirgan ediki, Qur'on uning borlig'iga va ijodiga singib ketgan edi. U yaratgan har bir asarda bevosita va bilvosita Qur'onning ta'siri bilinib turadi. Ba'zi o'rinlarda Qur'on oyatlari aynan berilgan bo'lsa, bazi o'rinlarda ularga ishora bilan, yani oyatlarining ma'nolarini nazarda tutuvchi gaplar bilan beriladi. Birgina "Tarixi anbiyo va hukamo" asarini tahrir qiladigan bo'lsak,

⁴⁵ Хамидулла Кароматов. «Куръон ва ўзбек адабиёти», Т.: ЎзР ФА Фан, 1993. - Б.6

asarda yetmish olti o‘rinda Qur‘on oyatlari berilganini ko‘rishimiz mumkin.

Ahamiyatli jihati shundaki Navoiy Qur‘on oyatlaridan shu qadar mohirlik bilan foydalanganki, asarning ma‘nosi va tasir kuchi oshgan.

Quyidagi misollar orqali Qur‘on oyatlarini qay darajada mohirlik bilan ishlatilganini ko‘rishimiz mumkin:

1. Chun inson kisvatin odamg‘a kiydurdilar haq subhonahu va taolo asmoi husnini anga o‘rgattikim «va allama odamaal asmoa kullaho» va maloyikayi muqarrab aning ilmig‘a mu‘tarif bo‘ldilar va tangri taolo hukmi bila anga sajda qildilar⁴⁶

Ma‘nosi: Va u zot Odamga barcha narsalarning ismlarni o‘rgatdi... («Baqara» surasi, 31-oyat).

2. Va aning zamonida olam xaloyiqi butparast bo‘lub erdilar. To‘quz yuz ellik yil elni o‘z dinig‘a da‘vat qildi. Sekson kishidin ortuq qabul qilmadilar. Kuffordin anga izolar tegar erdi. Ul so‘z aytsa, eshitmoli deb qulog‘larin tutar erdilar. Haddin o‘tkondin so‘ng, Nuh duo qildi: «Rabbi lotazarni alal arzi minal kafirina dayyoro» duosi mustajob bo‘ldi.⁴⁷

Ma‘nosi: Parvardigorim, yer yuzida kofirlardan biron hovli-joy egasini qoldirmagin («Nuh» – 26).

3. “Yusuf a. s. bani odam jinsining jamilrog‘idur. Bir kun o‘z yuzin ko‘zguda ko‘rub, andoqki husn istig‘noyu g‘ururg‘a muqtazodur, ko‘ngliga kechtikim, oyo agar men qul bo‘lsam erdi, mening bahomni kim bera olg‘ay erdi. Chun bu xiyol dalolat bemislikka qilur, ulkim «laysa kamislihi shay‘un va huvas-sami‘ul-basir», aning sha‘nidadur. Haq taolo g‘ayrat ko‘rguzub, andoq qildikim, og‘olari Yusufni o‘n yeti qalb diramg‘a sottilar⁴⁸.

Ma‘nosi: Biron narsa U zotga o‘xshash emasdur. U eshitguvchi va ko‘rib turguvchidir («Sho‘ro» – 11).

4. Muso a. s. qavmidin ranja bo‘lub, sajda qilib ayttikim, «Rabbi inni lo amliku illo nafsi va axi, fafrug baynano va baynal qavmil fosiqin».⁴⁹

⁴⁶ Алишер Навоий. «Мукаммал асарлар тўплами», Йигирма жилдлик, 16-жилд, Тошкент: ЎзР ФА Фан, 2000. - Б.98.

⁴⁷ О‘sha kitob, – В.103.

⁴⁸ О‘sha kitob, – В.120.

⁴⁹ О‘sha kitob, – В.141

Ma'nosi: «... Parvardigorim, men faqat o'zimga va birodarim (Horun)ga egaman, xolos. Bas, o'zing biz bilan bu itoatsiz qavmning orasini ajratgin...» («Moida» – 25).

5. Va chun Yahyo a. s. mutavallid bo'ldi, oz vaqtdin so'ngra Tengri taolo muborak ko'nglin vahiy nuzulidin munavvar qildikim. «Yo Yahyo huzil kitoba biquvvaten va otaynohul-hukma sabiyyan».⁵⁰

Ma'nosi: (Biz unga): «E Yahyo, Kitobni (ya'ni Tavrotni) mahkam ushlagin, (dedik) va unga go'daklik chog'idayoq hikmat – ma'rifat ato etdik»

6. Bani Isroil havoriyung'a dedilarkim, agar Iso a. s. duo qilsakim, Tengri taolo osmondin moida yiborsakim, taomg'a muhtoj xaloyiq andin bahra topsalar va Tengri taolo vujudi va Iso a. s. nubuvvatig'a tainlari bo'lsa, deb havoriyun arz qilg'och, Iso a. s. tazarru' qilib dedikim, «rabbano anzil aylayna moidatan minas-samoi takunulano i'ydandan li avvalina va oxirina va oyatan minka varzuqno va antaxay-rur-roziqin».⁵¹

Ma'nosi: «... Ey tangrim, Parvardigor, bizga osmondan bir dasturxon nozil qilgilki, u avvalu oxirimiz uchun bayram va sening oyat – mo'jizang bo'lib qoladi. Bizni (shu ne'matdan) bahramand qilgil. O'zing eng yaxshi rizq berguvchisan...» («Moida» – 114).

Qur'oni Karim oyatlarining ma'nolari Alouddin Mansur tarjimasidan olindi.

Yuqorida keltirilgan misollardan shuni anglash mumkinki, Navoiy Qur'on oyatlaridan har safar juda samarali foydalangan. Ma'lumki, «Tarixi anbiyo va hukamo» asari payg'ambarlar va hakim zotlar tarixini bayon qiladigan asar bo'lib, ixtilof bo'lmasligi uchun undagi har bir ma'lumot ayniqsa payg'ambarlar haqidagi ma'lumotlar asosli va ishonchli bo'lishi kerak. Navoiy ushbu asosni Qur'on oyatlariga murojat qilgan holda mustahkamladi va shu bilan birga asarining ma'no va ta'sir kuchini oshirdi. Umuman olganda Navoiy deyarli har bir asarida Qur'on oyatlariga, Payg'ambarimiz hadislariga va turli duolarga murojaat qiladi va samarali foydalanadi.

Bundan Navoiyning diniy ilmimlarni va shu bilan birga arab tilini ham mukammal bilgani namoyon bo'ladi. Chunki har bir asarda

⁵⁰ O'sha kitob, – B.171

⁵¹ Алишер Навоий. «Мукаммал асарлар тўплами», Йигирма жилдлик, 16-жилд, Тошкент: ЎзР ФА Фан, 2000. – Б.176.

Qur'on oyatlari, hadislar va duolardan foydalanish uchun adib ushbu ilmlarni va arab tilini mukammal bilishi kerak.

Ma'lumki Navoiyni ikki tilda, ya'ni turkiy va forsiy tillarda ijod qilgan adib sifatida bilamiz. Tadqiqotlarimiz natijasida ma'lum bo'ldiki, Navoiyni qisman uch tilda, ya'ni turkiy, fors va arab tillarida ijod qilgan desak ham bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Хамидулла Кароматов. «Қуръон ва ўзбек адабиёти», Т.: ЎзР ФА Фан, 1993.

2. Алишер Навоий. «Мукаммал асарлар тўплами», Йигирма жилдлик, 16-жилд, Тошкент: ЎзР ФА Фан, 2000.

ALMARDONOVA Aziza,

Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti magistranti

NAVOIY G'AZALLARIDA MIFOLOGIK OBRAZLAR

O'zbek xalq og'zaki ijodi asrlar osha avloddan avlodga o'tib yashab kelmoqda. Folklor asarlarida xalqimizning asrlar osha shakllangan ma'naviy qiyofasi, donoligi o'z aksini topgan. Ana shunday xalq og'zaki ijodi namunalarini o'rganish, kelgusi avlodga yetkazish hozirgi kunning dolzarb vazifalaridan biridir. Zero, xalq og'zaki ijodi namunalarini yaxshi bilgan odamga hech qanday yovuz g'oyalar tahdid sola olmaydi. Xalq og'zaki ijodi namunalarini yaxshi o'rgangan insonlar o'z zamonining eng ilg'or kishilari, shoir va yozuvchilari bo'lib yetishgani tarixdan ma'lum. O'zbek xalq og'zaki ijodi asarlari o'ziga xos obrazlar tizimiga ega bo'lib, shundaylar sirasiga mifologik obrazlar kiradi.

Insoniyatga so'z san'ati namunalarini yetkazib berishda mifologik obrazlar alohida ahamiyatga ega bo'lgan. Sababi, ibtidoiy odamlar o'zlariga sirli ko'ringan tabiatni bilishi natijasida dastlabki mif va afsonalar yuzaga kelgan. Miflarda yaxshilik va yomonlik haqidagi tasavvurlar mujassamlashgan. Shuning uchun ko'pgina mifologik obrazlar ezgulik va yovuzlik o'rtasidagi kurash fonida gavdalanadi. Mifologik obrazlarning taraqqiyotida qadimgi odamlarning turmush tarzi, urf-odat va marosimlari muhim rol o'ynagan. Miflarning rivoj-

lanishi natijasida, turli obrazlar adabiyotga ko‘chib o‘ta boshladi. Chunki xalq hayoti va ijodidan olingan ilhomgina badiiy mahoratning yanada jozibalibroq bo‘lishini ta‘minlay oladi. Ana shuning uchun ham mumtoz adiblarimiz asosiy g‘oyani oydinlashtirish, yanada chuqurlashtirish maqsadida mifologiyadan, an‘anaviy qadriyatlardan keng foydalanishgan. Shoirlarimiz lirik qahramon ruhiy olamini kashf etishda folklor va yozma adabiyotda faol qo‘llaniladigan mifologik obrazlarga murojaat qilishgan.

Mumtoz san‘atkorlar asarlarida mifologik obrazlar oshiq va ma‘shuq xarakteri, sifatleri, kechinmalarini yoritishda vosita, asos bo‘lishdan tashqari she‘riyatning xalqchil ruhi va xalq qalbiga hamohang bo‘lishini ta‘minlashga xizmat qilgan. So‘z mulkingning sultoni Mir Alisher Navoiy ijodida ham mifologiyaning qahramonlarini ko‘rishimiz mumkin. Xususan, “Xamsa” dostonlarida va “Xazoyin ul-maoniy” kulliyotidagi g‘azallar tarkibida ham mifik obrazlarga duch kelamiz. Bu obrazlarni “Navodir ush-shabob” devoni misolida ko‘rib o‘tamiz. Navoiy g‘azallarida faol qo‘llangan mifik obrazlardan biri Xizrdir. Bizga ma‘lumki, Xizr obrazi o‘zining barhayotligi, donoligi va tiriklik suvining egasi ekanligi bilan alohida ahamiyatga ega. O‘rta Osiyo xalqlari orasida keng tarqalgan tasavvurlarga ko‘ra, u nuroniy chol sifatida gaudalanadi. Xizrga yo‘liqqan kishi go‘yo bir umr baxtli bo‘ladi. Xalq uni Xo‘jai Xizr, Xizr bobo, Xazrati Xizr deb ham ataydi:

*Menga do‘st kerak, ey Xizr, yutarmen qon,
Sengaki umrdurur kom obihayvon yut.*

Bu baytda Navoiy nido san‘ati orqali Xizrga murojaat qilib, qiyin ahvolga tushganda, dardlarini eshitishi uchun, menga do‘st kerak deydi. Ikkinchi misrada Xizrning ishi umrboqiylik ekaniga ishora qilib, o‘zi barcha dardlarni yutsa-da, unga obihayvonni yutishini ta‘kidlaydi. Navoiy g‘azallarini kuzatar ekanmiz uning so‘z qo‘llash mahoratiga va bir narsani unga aloqasi bo‘lmagan boshqa jismga qiyoslaganiga qoyil qolmasdan iloj yo‘q. Sababi, Navoiy o‘xshatishlarni shunday jonli yaratganki, “bo‘lishi mumkinmas” deya olmay qolasiz. Quyida ana shunday baytlardan birini ko‘ramiz:

La‘li labingda ter bo‘lub obi hayot qatrası,

Yoki Xizr suyi labing, qatra bo‘lub hubob anga.

Navoiy yor labidagi terni tashbeh, ya'ni o'xshatish san'ati orqali obi hayot qatrasiga qiyoslaydi. Yoki Xizrning umrboqiy suvi sening labingda va qatra bo'lib, barchaga obi hayotning zarrasidek tomadi deydi. Boshqa bir baytda yor yuzidagi xat, ya'ni tuklarini Xizrga o'xshatadi:

*Xatingni Xizr demonkim, bu sabza gar giyohi,
Xizrdurur labing obi hayot damsozi.*

Navoiy yoriga murojaat qilib, xatingni Xizr deganimning boisi, u yangi chiqqan maysadek, dardga davo bo'luvchi giyoh. Xizr aslida sening labingdir va shu bois u obi hayotga yaqindir deydi. Bu bilan Navoiy yuqoridagi baytda ifodalagan fikrlariga yana qaytadi. Xizr obrazi boshqa ijodkorlarning she'rlarida ham uchraydi. Ammo Hazrat Navoiydek yorning jamolini ta'riflashda qo'llamaydilar.

Hazrat Navoiy she'rlarini kuzatsak, deyarli barcha g'azallarida mifologik obrazlarni ko'rishimiz mumkin. Bu obrazlar ko'proq yorning husnini maqtashda qo'llanadi. Biroq shoir ijodida shunday obraz borki, Navoiy uni yoriga tenglashtiradi. Xo'sh u qaysi obraz deysizmi? Bu qahramon, ertaklarda Ko'hi Qof yoki Bog'i Eramda yashovchi parilardir. Tadqiqotchi O.Karimovning fikricha, pari haqidagi afsonalarning paydo bo'lishi zardushtiylik diniga bog'lanadi. O.Qayumov xalqimiz orasida pari haqida mavjud tasavvurlarga ko'ra ularning 170 mingdan ortiqligi va har biri muayyan vazifani bajarishini ta'kidlaydi. Rabg'uziy o'zining "Qissasi Rabg'uziy" asarida farishta va parilarni farqlab beradi. Uning fikriga ko'ra, farishta (o'tning yorug'ligidan), pari (o'tning yolidan) yaralgan bo'lib, nurdan yaralgan malak – farishta ko'kda makon tutsa, o'tning yolidan yaralgan jin-pari yerda yashaydi. Navoiy she'riyatida uchratganimiz o'tning yolidan yaralgan – paridir:

*Ul pari paykarki bo'lmish insu jondin xo'broq,
Bor aningdek xo'bkim, mumkin yo'q andin xo'broq.*

Bu baytda Navoiy bitta xo'b so'zi orqali tajnis san'tidan mahorat bilan foydalanadi. "Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati"

kitobida, “xo‘b” so‘zining uchta ma’nosi beriladi: 1) yaxshi, durust, ma’qul; 2) chiroyli, go‘zal; 3) afzal. Fikrimizcha, Navoiy bu so‘zning uchta ma’nosini ham baytda qo‘llagan. “Paykar” so‘zi chiroyli, go‘zal ma’nosida ishlatiladi. Navoiy parini ya’ni yorini barchadan go‘zal ekanligini ta’riflab, birinchi xo‘bning “chiroyli” ma’nosini keltiradi. Ikkinchisida esa pari paykar kabi yaxshilar ko‘pligini aytadi. Va nihoyat, uchinchi xo‘bning “afzal” ma’nosini ishlatib, yoridek yaxshilar ko‘p-u, ammo undan afzali, ustuni yo‘qligiga yana bir bora amin bo‘ladi. Baytni to‘liqligicha tabdil qilsak:

U pari go‘zallikda insu jondin, ya’ni barcha yaratiqlardan go‘zalligini ta’kidlaydi. Keyingi misrada esa, paridek yaxshilar ko‘p, ammo undan afzali yo‘qligini shu bir baytda ifodalaydi.

Mifologiyada yana bir obraz borki, u ko‘proq yovuzlik ma’nosida keladi. Bu ertaklarda ham el-u yurtga turli ofatlarni olib keluvchi devdir. Bu obraz ham zardushtiylik orqali kirib kelgan bo‘lib, turli yovuzliklar qilishga qodir bo‘ladi. Ammo Navoiy oshiq-ma’shuqa ta’rifini aytib, yorini pariga va o‘zini devga mengzaydi:

*Ul pariy ishqida men devona erman, devman,
Ishq vodiysida har ohim erur bir devbod.*

Navoiy pariy ishqida o‘zini aql-u hushidan ozgan oshiq sifatida tasvirlab, devman deydi. Ya’ni dev “afsonaviy bahaybat qo‘rqinchli maxluq”, ammo uning mug‘ombir, balo, dahshat, chopqir kabi ma’no-lari ham bor. Biroq shoir so‘zning birinchi ma’nosini qo‘llaydi. Ikkinchi misrada fikri oydinlashadi. Pari ishqida devligidan, ishq vodiysida har bir tortgan ohim bir devbod, ya’ni girdobdir deydi. Ana shu tortgan ohlari uchun ham Navoiy o‘zini dev sifatida tasvirlaydi.

Xalq og‘zaki ijodi namunalari zamonlar oshishi bilan yo‘qolib borayotgan bo‘lsa-da, ayrim so‘zlar yoki mifologik qahramonlar tafakkurimizda yaxshi saqlanib qolgan:

*Maqom etsa tufroq uza – taxti Jamshid,
Safoliki ul may ichar jomi Jamdur.*

Yuqoridagi baytga e’tibor bersak, unda shoh Jamshid obrazi keltirilgan. Afsonalarga ko‘ra, Jamshid Ajam shohlaridan biri bo‘lgan. U shunday bir jom, ya’ni qadah ixtiro qilbdiki, uning ichidagi sharob

tugamas va u olamni o‘zida aks ettirib turar ekan. Shunday qilib, “jomi Jam” – tuganmas boylik va ishrat, shukuhu saltanat ramzi. Demak, jomi Jamni mifologik obraz sifatida tasvirlay olamiz. Boisi u faqat afsonalarda mavjud. Yendi bayt tahliliga o‘tsak, baytdagi so‘zlarni izohlab olamiz. Maqom etsa – makon tutsa; safolik – tozalik, poklik, tiniqlik; jomi Jam – tuganmas boylik va ishrat ramzidir. Jamshid taxti tuproq uzra makon tutsa, ya’ni qancha yerda bo‘lsa, uning ichadigan mayi ham shuncha toza bo‘ladi va u o‘zida olamni aks ettiradigan tiniq may ichadi. Jomi Jam obrazi Navoiy she’riyatida juda ko‘p uchraydi. Chunki shoir tasavvufiy jihatdan ham fikrlarini, aynan, shu qahramon orqali bayon qiladi. Quyidagi baytni ana shunday talqin qilishimiz mumkin:

*Ishq dayri bazmining sing‘an safoli ichra may
Kim ichar, Jamshid jomin tanlamas himmat anga.*

Baytdagi “ishq dayri” jumlasiga e’tibor bersak, dayr – butxona otashparastlar ibodatgohi bo‘lib, tasavvuf istilohida oriflar majlisi; sing‘an safol – sopol idish; himmat – biror ishga qattiq urinish; saxovat, olijanoblik; baxtiyorlik. Ikki misradagi so‘zlar bilan tanishdik. E’tibor bersak, Navoiy ikki narsani, ya’ni jomi Jam bilan sing‘an safolni bir-biriga qiyoslaydi. Bu so‘zlarning tasavvufiy istilohlariga ko‘proq e’tibor qaratadi. Yuqorida aytganimizdek, jomi Jam – tuganmas boylik va ishrat, shukuhu saltanat ramzi bo‘lsa, sing‘an safol — kambag‘allik, kamtarlik belgisidir. Shu ikki obraz orqali Navoiy “yashirin tazod” san’atini mahorat bilan qo‘llaydi. Tabdilni esa quyidagicha berishga harakat qildik. Oriflar yig‘ilgan butxonadagi bazmda ular oddiy sopol idishda may ichadilar. Lekin ular Jamshid jomida may ichishni baxtiyorlik sanamaydilar. Bizga ma’lumki, darveshlar va oriflar baxtlarini g‘ariblikdan topadilar. Ular qalandarlik yo‘lini tanlab, Yaratganga yaqin bo‘lishni istaydi. Shu bois ham ular butun olamni aks ettiradigan jomdan emas, balki oddiy singan sopol idishdan hikmat topadilar. Tasavvuf ilmidan ma’lumki, Navoiy naqshbandiya tariqatiga amal qilib, hayot kechirgan. G‘azallariga ham shu tariqat g‘oyalarini singdiradi:

*Iting sing‘an safolida may ichsam,
Ne tong ilgimga jomi Jam tushuptur.*

Baytni to‘g‘ridan-to‘g‘ri tarjima qilsak, itingni singan sopol idishida may ichsam ham, menga xuddi Jamshid jomida ichgandek tuyuladi. Bu baytda ham tasavvufiy ma‘noni uchratamiz. Navoiy orif kishilar tilidan misralarni bitib, sing‘on safolda may ichganini ta‘kidlaydi. Ya‘ni u kambag‘allikda, g‘ariblikda yashaydi. U ishqdan shunchalar sarmastki, oddiylik ham unga mukammallik bo‘lib ko‘rinadi. Go‘yo oddiy sopol idish Jamshid jomi bo‘lib ko‘ringani kabi. Navoiyning baytlarini ko‘rib, qanchalar tasavvufga yaqinligini payqash qiyin emas.

Xulosa qilib aytganda, Alisher Navoiy ijodi poyoni yo‘q sirli ummondir. Uni ichiga kirib borganingiz sari sizni o‘ziga ohanrabodek tortuvchi mo‘jizalarga guvoh bo‘lasiz. Mifologik obrazlar ham ana shu mo‘jizalardan biridir. Ularni o‘rganib, tahlil qilsak, yo‘qolib bora-yotgan mifologiya unsurlarini qayta kashf eta olamiz. Bu esa bugungi folklorshunoslarning va adabiyotshunoslarning oldida turgan vazifalardan eng asosiysidir.

Fodalanilgan adabiyotlar:

1. Навоий А. Наводир уш-шабоб. 4 том. – Тошкент: Тамаддун, 2012. – 645 б.
2. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. 4 жилд – Тошкент: Фан, 1984. – 636 б.
3. Рабғузий. Қиссаси Рабғузий. 2 жилд – Тошкент: Халқ мероси, 1991. – Б. 269.

*KARIMOVA Shahnoza,
Jizzax davlat pedagogika instituti magistranti*

SAFAR ZAHMATI GARCHI DUSHVOR ERUR...

Muazzam Sharq adabiyoti daholari singari Alisher Navoiy ijodida ham safar motivi muhim o‘rin tutadi. Ayniqsa “Xamsa” dostonlarini mutoalaa etar ekanmiz, bunga ishonchimiz komil bo‘ladi.

“Hayrat ul-abror” dostonida ramziy ma‘noda bosh qahramon bo‘lgan, Xoja nomi bilan atalgan ko‘ngilning uch manzil-makonga azimat qilgani va bundan behad hayratga tushganini ko‘ramiz. Bular farishtalar olami, mulk olami va badan olami edi. Uch olamdagi behad

go‘zalliklarni, mu‘jizalarni ko‘rgan ko‘ngil hayratlar orasida o‘zligini anglaydi va Yaratganning halifasi darajasiga erishadi.⁵²

Doston hikoyatlarida ham safar madh etiladi. Hikoyat qahramonlari turli maqsad va sabablar bilan safar qilishadi. Jumladan, Ibrohim Adham va Robiya Adaviya haqidagi hikoyatda har ikki ulug‘ insonning hajga safari haqida so‘z boradi. Ibrohim Adham har qadamda ikki rikatdan namoz o‘qib, Makkaga yetib boradi. Qarasa, Ka‘batulloh Robiya Adaviyani tavof etayotgan ekan. Uning bu darajada ehtiromning sababini so‘rganida, Robiya Adaviya:

Bo‘ldi ishing arzi namoz aylamok,

Sheva manga arzi niyoz aylamak.

Sanga samar berdi namozu riyo,

Bizga bu bar berdi niyozu fano,

deb javob beradi.

Ya‘ni: *sening ishing nomoz o‘qish, mening maqsadim esa niyoz qilish, ya‘ni astoydil o‘tinib, tavallo qilish bo‘ldi. Senga riyokorlarcha o‘qigan nomozing ko‘rganingday “foйда”sini bergan bo‘lsa, meni yurakdan qilingan arzu niyozim bu martabaga yetkazdi.*

Bu so‘z bilan Navoiy insonga qaerga qarab borish emas, u safardan maqsadi nimaligi muhim, demoqda.

“Qanoat bobidakim...” deb nomlangan yettinchi maqolotga ilova tarzida keltirilgan hikoyatda ham safar haqida so‘z boradi. Hikoyatda tasvirlanishicha, bir qanoatli va bir qanoatsiz ikki hamroh Forsdan Chin mulkiga safar qilishibdi. Yo‘lda bir toshga “Kimki tosh tagini kavlasa, hazina topadi”, degan yozuv bitilgan ekan. Qanoatsiz tekin topilajak hazina dardida toshni qazishga tushib ketadi. Qanoatli yo‘lovchi esa yo‘lida davom etadi. Yo‘lda bir shaharga yetadi va darvozadan tasodifan birinchi bo‘lib kiradi. Undagi odatga binoan hukmdor vafotidan keyin shaharga birinchi bo‘lib kim kirsa, o‘shani shoh qilishar edi. Qanoatli yigit o‘z sabri natijasida va safar vositasida mana shunday davlatga erishadi. Toshni ag‘dargan qanoatsiz esa “Xomtamaning nasibasi ranjdir” degan yozuvga ko‘zi tushadi.

Bu hikoyat bilan Navoiy faoliyatsizlikni ulug‘lamaydi, aksincha bo‘lar-bo‘lmasga chiranib, “tosh tagidan hazina qidirgan xomta’ma-

⁵² Bu haqda qarang: Mamadaliyev Z. Xoja obrazi genizesi. Toshkent: 2019.

lar” ustidan kuladi. Ushbu hikoyatda ham maqsadga safar orqali erishiladi.

Adolat vayronni obod va aksincha g‘aflat va zulm obodni vayron etishi haqidagi o‘n to‘qqizinchi maqolotga ilova tarzida keltirilgan hikoyatda shoh Bahrom o‘zining g‘aflatda ekanini va davlat a‘yonlari bu g‘aflatdan foydalangan holda elga zulm qilishayotganini safar paytida tasodifan kirib qolgan bir vayrona bog‘ning egasidan eshitadi. Bu so‘z qattiq ta‘sir qilib, g‘aflatdan uyg‘ongan shoh zolimlar zulmiga barham berib, el-yurtini adolat bilan obod qiladi. Ushbu hikoyatda safar haqiqatni oydanlashtirishga xizmat qiladi.

“Farhod va Shirin” dostonida esa bosh qahramon Farhod maqsadga yetish uchun sabab bo‘lgan oynai jahaonnamoning sirini ochish uchun ilmu hikmat maskani yunon mulkiga safar qilib, Ahraman dev, ajdaho, temir paykar odam kabi xatarlarni yengib, Suqrot hakim bilan uchrashadi. Maqsadga yetish, ya‘ni Shirinni vasliga erishish uchun ham safarga chiqadi.

“Sab‘ai sayyor” dostoni, uning nomidan ham ma‘lumki, safar madh etilgan asosiy doston hisoblanadi. Dostonda tasvirlangan yetti hikoyatda ham, albatta, safar amalga oshadi. Hikoyat qahramonlari sayru sayyohat orqali o‘z maqsadlariga erishadilar. Sayyohatchilardan hikoyat eshitgan Bahrom ham ramziy ravishda o‘zligiga safar uyushtiradi. O‘z-o‘zini tarbiyalab, kamolot kasb etadi. Bu bilan Navoiy sayyoralarning tinimsiz harakatiga, shu bilan birgalikda insonning o‘z maqsadiga yetish yo‘lidagi harakatiga ishora qilib, maqsadga yetish uchun inson sa‘y-ko‘shish qilmog‘i darkor, degan fikrni yana bir bor olg‘a suradi.

“Saddi Iskandariy” dostonida ham bosh qahramon – Iskandar doston boshidan oxirigacha safar qiladi. U ham safar bilan barcha maqsadlariga erishadi. Yetti iqlimni zabt etgan fotih jahongir, yetti dengiz va suv osti dunyosini o‘rgangan orif inson bo‘lib kamolga yetadi. Dostonda Navoiy “Safar madhi” borasida maxsus bob kiritadi. Unda safar inson hayoti uchun muhim hodisa ekanligini aytadi:

*Safar zahmati garchi dushvor erur,
Tengiz qa'rida durri shohvor erur.*

*Muhit ichra cho'mmay nechukkim nahang,
Kishi ursa bo'lg'aymu gavharg'a chang.*

Ya'ni: Safar azobi qiyin bo'lsa ham, dengiz qa'rida shohona dur bo'lgani kabi (uning foydasi tayindir. Axir) dengizning ichiga nahang kabi cho'mmasdan turib, kishi gavharga qo'l uzatishi mumkinmi?!

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Navoiy ham safarga nafaqat o'z ma'nosida qaragan, balki ulug' Sharq donishmandlari kabi insonni ulug'lovchi, uni asl maqsadga yetkazuvchi o'zligiga qilingan ma'naviy sayyohat talqinida e'tibor bergan va o'z kitobxonini mana shunday ulug'vor safarga chiqishga da'vat etgan.

MAMASHIKUROV Beknazar,
Samarqand Hadis ilmi maktabi o'qituvchisi

MUTAFAKKIR SHAYX, SHOIR NAZRULLOHXON ESHON G'ARIBIY

Mustaqillik sharofati bilan uzoq va yaqin o'tmishda o'tgan ulug' zotlarning hayoti va ularning ilmiy faoliyatlari o'rganilib, ularning meroslari tadqiqotchilar tomonidan ilmiy ishlar olib borilmoqda.

Muhaddislar sultoni Imom Buxoriy, fiqh ilmi bilimdoni Burhoniddin al-Marg'inoniy, kalom ilmi asoschisi Abu Mansur al-Moturidiy kabi ajdodlarimizning ilmiy meroslari chuqur tadqiqi etila boshlandi. So'ngi yillarda bir qator ilmiy-tadqiqot markazlari ochilishi buning yaqqol misolidir.

Imon-e'tiqodini, jonini asrash uchun xorijga hijrat qilgan, yoki o'z yurtida g'arib bo'lib umr o'tkazgan minglab olim va tasaffuf murshidlaridan biri G'aribiy domladir. Nazrullohxon Eshon G'aribiy (1908-1986) Samarqandning Xatirchi tumanida tug'ilib, Forish tumanining Norvon qishlog'ida yashab o'tgan. Umrining aksar qismini quvg'inda o'tkazgan, davrining nohaq jabru sitamlariga uchragan aziz inson. O'zbek, arab va fors tillarida "G'aribiy" tahallusi bilan ijod qilgan murshidi komil, kalom ilmi olimi edi⁵³.

Nazrullohxon Nizomiddinxon o'g'li 1908-yilda Xatirchi tumani-dagi "Eshon qishlog'i"da diniy oilada tavallud topgan. Onalari Fayzullo Xo'jaevning ammalri bo'lgan. Otalari Nizomiddinxon o'qi-

⁵³ Sayfiddin Sayfulloh. Shayx Nazrullohxon (G'aribiy)ning "Kasidai AMoliy" sharhi va tavhid manzumi (she'riy). Toshkent universiteti nashriyoti, 2008 yil.

mishli kishi bo'lgan. O'g'li Nazrullohxonga uyda muallim yollab o'qitadi. Nazrullohxon arab va fors tillarini mukammal o'rganadi. Yoshlikdan Qur'on, hadis, ilmi kalom va tasavvufni o'rganadi. 1925 yilda Otalari Nizomiddinxon va birozdan keyin onalari vafot etadi. Bu orada Buxoro amirligi qulab, rus istilochilari kirib kelgan edi. Diniy ulamolarni qamash, surgun qilish, otish ommaviy tus oladi. Otalari-ning sodiq muridlaridan biri Nazrullohxonga: "Agar tez kunda chiqib ketmasangiz, silarni ham ushlab qamaydi", deydi. 17 yoshli Nazrullohxon ota-bobolaridan meros qolgan tegirmon, juvoz, ichki-sirtqi ikki-uch hovli, birmuncha mol-mulklarni qoldirib, opalari Sojidxon, singillari Roqiyaxon, ukalari Oftobxon va 2 yoshli ukasi Oppoxonlarni olib Qashqadaryo tarafga yo'l oladi⁵⁴.

Ular 1925-yildan to 1942-yilning kuzigacha Qashqadaryo va Samarqand viloyatlarining bir necha tumanlari qishloqlarida birovlar-ning uylarida sarson-sargardonlikda yashaydilar. 1942-yilning kuzida hozirgi Forish tumanidagi Norvon qishlog'iga ko'chib keladilar. Norvonga ko'chib kelganlaridan to 1953-1954-yillargacha o'zlarining xususiy uylari bo'lmagan.

Nazrullohxon Nizomiddinxon o'g'lining Islomiy ilmning eng muhim sohasi – aqida ilmiga diqqatini jalb etib, tolibi ilmlar uchun Usmon Ushiyning arabcha "Amoliy" qasidasini she'riy tilda mahorat bilan tarjima qilganligi alohida tahsinga sazovordir⁵⁵. Shayx Nazrullohxon "Amoliy" qasidasini oddiy tarjima qilgan emas, balki har bir baytdagi nozik ma'nolarni Qur'on va hadis asosida sharhlagan⁵⁶.

Shayx Nazrullohxon oltmish besh satrdan iborat "Tavhid" manzumasini bitgan. Aqida masalalarini yoritishga bag'ishlangan ushbu manzuma ham o'zining ilmiyligi va ta'sirchanligi bilan e'tiborga molik.

G'aribiy domla sunnatga amal qilib, zohiriy ilmlarni egallashi bilan birga botiniy ilmlarga ham katta ahamiyat bergan. Nazrullohxon yoshligidan Allohga bo'lgan muhabbati tufayli tasavvuf va ilmi kalom bilan shug'illanadi. Avvalo ustozlari sohibi karomat Sayidqul (Qizilbuloqiy)dan (20 yoshida) ta'lim oladi. So'ngra piru murshidi qarshilik

⁵⁴ O'roqxon G'aribiy. Muborak siymo. BXITM, Samarqand 2019. 14-17, bb.

⁵⁵ Sayfiddin Sayfulloh. Shayx Nazrullohxon (G'aribiy)ning "Kasidai Amoliy" sharhi va tavhid manzumasi (she'riy). Toshkent universiteti nashriyoti, 2008 yil.

⁵⁶ Uroqxon (Rafi'iddinxon hoji Shayx Nazrullohxon o'g'li). "Ibratli xayot gulshani". Movarounnahr, 2005

Habibullpxon xizmatida bo‘lib, pirlaridan irshod olib tariqat shayxi bo‘ladi⁵⁷. Eshoni G‘aribiy domla Abdulxoliq G‘ijduvoni, Bahouddin Naqshband va Xoja Ahrori Valiy kabi komil insonlarning yo‘lini munosib davom ettirgan piri komil edi. Bu so‘zimizga Shayx Narzilohxonning “Munojoti” yorqin misol bo‘la oladi, bu monojotda tariqat pirlarining davomchisi ekanli o‘z aksini topgan.

Munojot

Rabbano, yo Rabbano, yo Rabbano!
Lutf aylab, ko‘nglima bergil safo⁵⁸.
Bosti g‘aflat lashkari tan mulkini,
Bahri kuclon⁵⁹ ichra man subhi maso⁶⁰.
Nafsi shayton ilgida bo‘ldim asir,
Nafsi bad bo‘ldi misoli ajdaho.
Sen O‘zing lutfu inoyat qilmasang,
Rahating vo etmasang holimga vo.
G‘aflat ila ko‘p gunahlar ayladim,
Dilni mir‘oti⁶¹ anichundur qaro.
Ma‘siyat manda agarchi kuh-kuh⁶²,
Mag‘firat oldida yo‘q misli habo⁶³.
Kech G‘aribiyning gunohin o‘zing,
Shofi‘im qilgil Muhammad Mustaf⁶⁴.

G‘aribiyning munojotlari, nasihatnoma ruhidagi she‘rlari, muxammaslari va boshqa ijodlari domla ijodi na qadar serqirra va purma‘noligi haqida ma‘lumot beradi. Tom ma‘noda u ulug‘ zotlarning ilm, amal va ixlos yo‘lidagi vorislaridan bo‘lganlar.

Shayx Nazrullohxon Eshon salohiyatli shoir sifatida g‘azal, muxammas, muvashshah, ta‘rix, qit‘a, ruboiy kabi janrlarda muvaffaqiyatli ijod qilgan. Ayniqsa, Jomiy, Navoiy va Haziniy kabi shoirlar

⁵⁷ O‘roqxon G‘aribiy. Muborak siymo. BXITM, Samarqand, 2019. 43 - b.

⁵⁸ Safo - poklik

⁵⁹ Bahri kuclon – dangasalik dengizi

⁶⁰ Subhi maso – ertayu kech

⁶¹ Mir‘ot – oyna

⁶² Kuh-kuh – tog‘-tog‘

⁶³ Habo – gil tuproq

⁶⁴ O‘roqxon G‘aribiy. Muborak siymo. BXITM, Samarqand, 2019. 77, b.

gʻazallariga bogʻlagan muxammaslari nozik shoirona did sohibi ekanligidan dalolat beradi.

Shayx Nazrullohxonning Navoiyning gʻazallariga bir qancha muxammaslar yozgan boʻlib, biz qoʻyda Navoiyning gʻazallariga yozgan muxammasidan namuna keltirib oʻtamiz.

Navoiy gʻazaliga Gʻaribiyning muxammasi

Tut gʻanimat, boʻl magil sen vaqti mehmondin malul⁶⁵,
Andagʻi yetgan senga andak parishondin malul,
Xasta boʻlganlar boʻlodur dogʻi hijrondin malul,
Ey koʻngul, bu navʻ oʻlubman ahli davrondin malul,
Kim erurmen, kimki andin yaxshi yuq, andin malul.
Telbalar yangli erurmankim jahon netsun meni,
Yergʻa bagʻrimni beribman osmon netsun meni,
Yastanurman koʻyida ahli zamon netsun meni,
Hajr aro⁶⁶ bu davr netay men jonni, jon netsun mani,
Kim erur xar lahza mendin jon, men kondin malul.
Hasratim sonsiz erur vaxtim yetushmas bitkali,
Hayrat afzolikdaman oson emas berkitgali,
Boshima dushman malomatdin alamni tikkali,
Tangri xalq etmish mani goʻyo malomat chekkali,
Bir dami yoʻqkim emasmen ahli davrondin malul.
Har qayu amriga ikdom aylabon azm aylasang,
Har nechuk oʻzini bilmaslar soʻziga boʻlma tang,
Tegsa ham tiri malomat⁶⁷ aylab oʻzni misli sang⁶⁸,
Istasang maqsad qadam qoʻy taʻn nishidan ne tang?,
Kaʻba torti boʻl magʻan xori mugʻilondin⁶⁹ malul.
Yoʻlda qolgʻonsan hama ortiq koʻrar sendan oʻzin,
Uchrasang senga boqishdan or etib omgay kyzin,
Oʻltirish boʻlsang gafurmaslar senga soʻzlar soʻzin,
Ey koʻngul, fikringni qilkim, doʻsti dushmanlar yuzin,
Koʻrmas erdi boʻlmasa sen zori hayrondin malul.
Boʻl magil magʻmum koʻrgandin ulusdan koʻbu oz,

⁶⁵ Malul – malollanmoq, ozorlanmoq

⁶⁶ Hajr aro - ayriliqda

⁶⁷ Tiri malomat - malomat oʻqlari

⁶⁸ Sang - tosh

⁶⁹ Xori mugʻilon - Mugʻilon tikonlari

Yaxshi qullarga malomat eshigidur boz-boz,
Ey G‘aribiy, bil haqiqatni yo‘li ermish majoz⁷⁰.
Ey Navoiy, tuz Iroq ohangini ko‘rguz Hijoz⁷¹,
Kim Navoiy xotiri bo‘lmish Xurosondin malul.

G‘aribiyning hayotiy faoliyati, go‘zal siyrati, namunali xulqlari qanchalik ibratli bo‘lsa, u kishining yozib qoldirgan ilmiy, adabiy va ma‘rifiy asarlari ham shu qadar qimmatli va hikmatlidir. Bugungi yosh avlodni halollik va dinu diyonatga da‘vat qilishda bunday she‘rlarning samarali ta‘sir etishi ayni haqiqatdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘roqxon (Rafi‘iddinxon hoji Shayx Nazrulloxon o‘g‘li). “Ibratli xayot gulshani”. – Toshkent: Movarounnahr, 2005 y.
2. O‘roqxon G‘aribiy. Muborak siymo. BXITM, Samarqand, 2019.
3. Sayfiddin Sayfulloh (nashrga tayyorlovchi) Shayx Nazrulloxon (G‘aribiy)ning “Kasidai sharhi va tavhid manzumasi (she‘riy). Toshkent Islom universiteti nashriyoti, 2008 yil.
4. Sayfiddin Sayfulloh. «Sog‘lom e‘tikol najot», «Sharq» NMAK, 2014 yil.
5. Suyundik Mustafo Nurotaiy. «Turonzamin avliyolari va ulamolari tazkirasi», «Sano standar nashriyoti 2015 yil.
6. Suyundik Mustafo Nurotaiy. «Miyonko‘l yoxud Navoiy viloyati ulamolari». «Sano standart» nashriyoti 2016 yil.

QORAYEV Sherxon,

Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti tadqiqotchisi

SULTON BADIUZZAMON MIRZO MAJLISLARI VA ALISHER NAVOIY

O‘zbek adabiyoti tarixida Sulton Husayn Boyqaro (1438-1506) huzurida o‘tkazilgan “oliy majlislar”(Xurosonda she‘riy majlislar ana shunday deb nomlangan-muallif) kabi hukmdorning farzandlari saroylarida ham xuddi shunday she‘riyat kechalari tashkil etilgan. Navoiyshunos olimi Suyima G‘aniyev Husayn Boyqaro adabiy majlislarining “oliy majlislar” deb atalganligi va ularning mazmun-mohiyati to‘g‘ri-

⁷⁰ Majoz - ko‘chma

⁷¹ Hijoz - Madina

sida shunday yozgan: “Husayn Boyqaro huzurida, uning bevosita ishtirokidagi “Oliy majlis”larda asarlar, she’riyat namunalari muhokama qilinar, adabiy mavzularda qizg’in suhbatlar o‘tkazilardi”⁷². Badiuzzamon Mirzo (1458-1515) adabiy majlislari ham otasining yig‘inlaridek she’riyat va san’at ahli bilan gavjum bo‘lgan va ularda adabiy bahs-munozaralar olib borilgan. Sulton Badiuzzamon Mirzo Husayn Boyqaroning o‘g‘illari orasida eng oqili va salohiyatlisi bo‘lib, u doimo ilmu ma’rifat va hunar ahliga g‘amxo‘rlik qilgan. Shahzoda o‘z saroyiga olim, shoir, san’atkorlarni yig‘ib, adabiy anjumanlar o‘tkazib turishni xush ko‘rgan .

Buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy Badiuzzamon Mirzo adabiy yig‘inlarida ishtirok etgan hamda “Farhod va Shirin” dostonida “Ikkinchi bihisht” bog‘ida suhbat tuzgan Badiuzzamon Mirzo majlisini tasvirlagan:

*Tuzub suhbat “Bihishti soniy” ichra,
May ichsa “Bog‘i nav” ayvoni ichra.
Ani majlis dema, oliy sipehri,
Qadahdin davrida raxshanda mehri.
Dema mehr onikim, mehri sabukxez,
Ne andoq tezrav, ne ishratangez.
Nishotafzoyroq Nohiddin ko‘r,
Sarius-sayirroq xursheddin ko‘r.
Quyosh bir qatla har kun ko‘kni soyir,
Bu majlis charxin ul yuz qatla doyir...
Mug‘anniylar nishotafzo navodin,
Chekib Nohidni har dam havodin.
Zarofat holatida bazlago‘lar,
Atorudqa qilib har dam g‘ulular...
Berib yuz ganj yaxshi so‘zga bexost,
Yomon so‘zni qilib isloh ila rost.
Yomon men ayttim topib so‘zum rech,
Aning bazmida so‘z o‘tmay yomon hech⁷³.*

⁷² Хусайн Бойқаро. Жамолингдин кўзум равшан. Ғазаллар. (Нашрга тайёрловчи С.Ғаниева). Т. Ғофур Ғулом номидаги АСН, 1991-Б.7.

⁷³ Алишер Навоий. Муқаммал асарлар тўплами. Саккизинчи том. Т. Ған, 1991.-Б.59-60.

Ya'ni, yanada soddaroq qilib, nasriy bayon tili bilan aytganda, *“Badiuzzamon Mirzo “Ikkinchi bihisht” bog‘ida majlis tuzdi. Uni ma‘rakali bazm dema, yuksak osmondir. Uning davrasida porloq quyosh qadahi kezadi. Uni quyosh dema, quyosh uning tezyurarligi va sur‘atiga tenglasholmaydi. Nohiddin ortiqroq rohat baxsh va xurshiddan ko‘proq elkezardir. Quyosh har kuni bir marotaba osmonni sayr etsa, bu bazm osmonini yuz marta aylanadi.*

Agar quyosh ko‘kda sur‘at bilan sayr etib, bir parichehra uchun aylanib o‘rgilsa, bu bazm sozandalari rohatbaxsh kuylar chalib, ko‘kdan Nohidni tushiradilar.

Lutfkor qiziqchilar zariflikda Atorudni har lahza hayratda lol qoldiradilar.

Badiuzzamon Mirzo shodlik bilan qadah ko‘targanda, quvonchidan sarxush bo‘lsa, biror kutilmagan yaxshi so‘zga yuz xazina bag‘ishlab, yomon so‘zni isloh qilib tuzatadi.

So‘zim chuvalib men yaxshi fikr yuritilmadim. Uning bazmida biror yomon so‘z aytilmaydi”⁷⁴.

“Layli va Majnun” dostoni ham sozandayu qo‘shiqchi va shoirlar ishtirokida o‘tgan majlis haqidagi tasavvurimizni boyitadi⁷⁵. “Saddi Iskandariy” dostonida yana bir bor Sulton Badiuzzamon Mirzo bazmi tilga olinganini ko‘rishimiz mumkin⁷⁶:

*Qadah-bazmi ayshing aro zarnigor,
Javohir qilib ani gavharnigor.
To‘lub ul qadah la‘li raxshon bila,
Ne raxshanda la‘l, obi hayvon bila⁷⁷.*

Shuningdek, Bobur “Boburnoma”da Badiuzzamon Mirzo majlisi-ni shunday zikr etgan: *“Shayxiy Noyi...udni va g‘ijjakni xo‘b cholur ekandur. Bir navbat Badiuzzamon Mirzoning suhbat(majlisi)da bir ishni naydin xo‘b chiqarur, Qul Muhammad g‘ijjakta ul ishni chiqara olmas. Derkim g‘ijjak noqis sozdur. Shayxiy filhol Qul Muhammad-*

⁷⁴ Алишер Навоий. Хамса. Насрий баён. (Нашрга тайёрловчи: Ў. Йўлдошев).Т. Наврўз, 2019.-Б.146-147.

⁷⁵ Ко‘rsatilgan asar.-Б.307-308.

⁷⁶ Алишер Навоий. Садди Искандарий.(Насрий баёни билан). Т. Ғ.Ғулум номидаги НМБ, 1991.-Б.66-69.

⁷⁷ Ко‘rsatilgan asar. –Б.68.

ning iligidan g'ijjakni olib, ul ishni g'ijjakta xo'b va pokiza cholur"⁷⁸ va u bu bilan shahzodaning tahsiniga sazovor bo'lgan. Qolaversa Boburning o'zi ham shahzodaning badiiy kechalarida qatnashgan va bunday bazmlarni u chog'ir majlisi deb atagan: "Yana bir navbat Badiuzzamon Mirzo qoshig'a borg'onda namozi peshindan so'ng chog'ir majlisi bo'ldi. Badiuzzamon Mirzoning majlisini xeyli ta'rif qilurlar edi, filvoqi' beg'ilu g'ash va oromida majlis edi. Murg'ob yoqasida ekanda ikki-uch qatla mirzoning chog'ir majlisida hozir bo'ldum"⁷⁹. Ana shunday chog'ir majlislaridan birida Balx hokimi Darvish Ali Kitobdor (Alisher Navoiyning ukasi)ning xotini shoira Ofoq begim Jaloyir shahzodaga atab quyidagi she'rini o'qigan:

*Man agar tavba z-may kardaam, ey sarvi sihiy,
Tu xud in tavba nakardiki, maro may nadihi.*

(Mazmuni: Men may ichmaslikdan tavba qilgan, bo'lsam, ey sarv qomatli yigit, Sen esa tavba qilmagansan-ku, menga may tutmaysan)⁸⁰.

Badiuzzamon Mirzoning har bir adabiy majlisida shahzodaga bag'ishlangan qasidalar yangragan. Shunday bazmlardan birida benazir qasidanavis shoir Husayn Jaloyir Tufayliy shahzodaga bag'ishlangan qasidalarini o'qigan deyishimiz mumkin:

*Qaddingning naxli jilva aylagach sindi sanavbarlar,
Labing qilg'och tabassum bebaholig' o'ldi gavharlar.
Ko'zingning mardumi andog' xiradni tiyra aylabdur,
Balo ya'jujig'a sad bog'lag'on yanglig' Iskandarlar.
Qaddingning yodidin gulshan aro qum erur giryon,
Ki ohi sarsaridin uchdi chun bog' ichra ar'arlar,
Shahokim homii amni amon Badi'uzzamondursan,
Chu adling quvvatidin sindurub pushti sitamgarlar⁸¹.*

Shahzoda huzuridagi adabiy anjumanlarda mashhur shoirlar, fozillar va ziyolilar qatnashgan. Adabiy majlislar nadimi (suhbatdosh)

⁷⁸ Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. Т.Юлдузча, 1990.-Б.164.

⁷⁹ Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. Т. Шарқ НМАК БТ, 2002.-Б.143.

⁸⁰ Фаҳрий Ниравий. Жавоҳир ул-ажойиб. Т. Мумтоз сўз, 2014.-Б.158.

⁸¹ Мирзо Муҳаммад Найдар Аёзий. Тарихи Рашидий. Т. Ўзбекистон НМИУ, 2011.-Б.285-286.

Mavlono Zamoniyl Sulton Badiuzzamon Mirzo saroyi shoirlaridan biri bo'lgan. Shoir Zamoniyl haqida Navoiyl shunday degan: *“Mavlono Zamoniyl – “Vafoiyl” taxallus qilur erdi. Faqir iltimosi bila “Zamoniyl”g'a tag'yir berdi. Ikki jihatdin: bir jihat bukim, Sulton Badiuzzamon Mirzo mulozimi erdi”*.⁸² Shoir Osafiy ham Badiuzzamon Mirzo 1496-1506-yillarda Balxda hokimlik qilgan paytida xizmatida bo'lgan va majlislarida o'z she'rlarini o'qigan: *“Xoja Osafiy Xoja Sulton Abusa'id Mirzoning vaziri Naimiddin Ne'matulloh Qahistoniyning o'g'li edi. Hirotidan Balxda ketib, o'sha yerda yashab qoldi va Badiuzzamon Mirzoning nadimi bo'ldi”*⁸³. “Ul zot shuning uchun Osafiy taxallus qilgan ediki, Mavlono latofat va nozikta'blikda yagona, zehni o'tkirlik va idrokda tengsiz edi. Uning nazmi lafzlari javohir shodasidek tashqarida muntazam va ravshan, nasri iboratlari la'llari sho'xlikda Toyir nasri birla hamparvoz, yakgulshan. Masnaviy bo'stonida misra sarvlaridan ma'nolar shohidlarining chehrasini ochdi. G'azal gulistonida toza mazmunlardan beandoza rango-rang gullar ko'rguzdi. Uning tab'i ravon zilolidan chahorchaman nozuklikda va ochilgan gulzori olti jihatdan yetti iqlimda baland ovozalik maqomidadir”⁸⁴. Fors-tojik tilida ijod qilgan tabrizlik shoir va shayxzoda Mavlono Xalaf (15-16-asr) Hirotga kelib, shahzoda Badiuzzamonga mulozimlik va musohiblik qilgan, yaxshi she'riyl tab'ga ega bo'lgan”⁸⁵. Navoiyl ham “Majolis un-nafois”da shoir Mavlono Xalafning “sultonzodai zamon hazratida mulozim va musohib”⁸⁶ bo'lganini aytib o'tgan.

Badiuzzamonning o'zi ham Badiiy taxallusi bilan she'rlar yozgan. Aniqroq qilib, “Majolis un-nafois” tazkisasi iborasi bilan aytganda, “tab'i ham nazm uslubida muloyim” bo'lgan shahzoda yig'inlarda o'z she'rlaridan namunalar o'qigan:

*Mahi man, be guli ro'yat dilam xun gashta chun lola,
Jigar ham az g'ami hajrat shuda pargola-pargola.*⁸⁷

⁸² Алишер Навоий. Тўла асарлар тўплами. Тўққизинчи жилд. -Т. Ғ.Ғулом номидаги НМИУ, 2012.-Б. 359.

⁸³ Ғиёсиддин Хондамир. Макорим ул-ахлоқ. Т. Ғ.Ғулом номидаги НМИУ, 2015.-Б.189.

⁸⁴ Шарафуддин Роқимий. Тарихи томм. Т. Маънавият, 1998.-Б.74.

⁸⁵ Алишер Навоий. Қомусий луғат. Биринчи жилд. Т. Шарқ НМАК БТ, 2016.-Б.296.

⁸⁶ Алишер Навоий. Тўла асарлар тўплами. Тўққизинчи жилд. Т. Ғ.Ғулом номидаги НМИУ, 2012.-Б.400.

⁸⁷ Кўрсатилган асар, 2012.-Б.416.

(Tarjimasi: Ey oy (yuzli go‘zalim) gul yuzingsiz yuragim loladek qon bog‘ladi. Jigar ham hajring g‘amidan pora-pora bo‘ldi).

Muxtasar qilib aytganda, Badiuzzamon Mirzo tuzgan adabiy yig‘ilishlarda Alisher Navoiy singari o‘z zamonining mashhur shoir-lari ishtirok etgan va bahs-munozaraga kirishishgan. Bunday majlislar shoir-lar kamoloti hamda mumtoz adabiyotimiz taraqqiyotida muhim rol o‘ynagan, deyishimiz mumkin. Binobarin, kelgusida Badiuzzamon Mirzo she‘riyat kechalarini atroflicha tadqiq etish navoiyshunoslik ilmining yangi ma‘lumotlar bilan boyishiga xizmat qiladi.

UMAROV Sardorbek,

Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti o‘qituvchisi

FUTUVVAT G‘OYALARI VA RANGLAR UYG‘UNLIGI (Alisher Navoiyning “Sab‘ai sayyor” dostoni hikoyatlari misolida)

Futuvvat ilmi ko‘hna Sharq adabiyotida chuqur o‘rin olgan ta‘limotdir. Pok ilohiy ishq, Haq va haqiqat, sof insoniy xislatlar, kamolot kasb etish, ishq va inson konsepsiyalari, soflik, saxovat, himmat, axiylik, fatiylik kabi sifatlarini o‘zida jam etib adolat va haqiqat timsoli bo‘lmish Mutlaq ilohga muhabbat zavqi ushbu mo‘tabar ilmning asosini tashkil etadi. Zohiriy jihatdan futuvvatning asosini xalq ichida ma‘lum bir ijtimoiy guruhlarga uyushib, xalqning g‘amlari va qayg‘ulari, zolimlar zulmidan ezilgan xalqning manfaatlarini himoya qilguvchi mard, jasur yigitlar tashkil etgan bo‘lsa, botiniy jihatdan esa futuvvat qalbda Allohni nomini zikr qilishni qo‘ymaydigan, saxovat va himmatni o‘zining qalbiga jo qilgan, iymonli, diyonatli, mard, saxiy inson tushuniladi. Futuvvat ilmining ijod ahliga qattiq ta‘sir etishi va ijod ahlini o‘ziga maftun etishi tufayli futuvvat g‘oyalari badiiy ijod olamiga ham ta‘sir etdi.

Xususan, hozirgi kunda adabiyotshunosligimizning oldida turgan eng katta dolzarb masalalardan biri – futuvvat g‘oyalarining tasavvuf adabiyotida tutgan o‘rni, ahamiyati va g‘oyaviy-badiiy xususiyatlarini aniqlash masalasidir. Chunki bizning oldimizda daho so‘z san‘atkorlarining bizga qoldirgan boy adabiy meroslarini keng ko‘lamda o‘rganish, ularning tub zamirida yotgan badiiy-estetik,

didaktik qarashlarini topib kelajak avlodga yetkazishdek ulkan va hayrli vazifalar oldimizda turibdi. Ana shunday ulkan va hali to‘liq tadqiq etilmagan ishlardan biri bu Alisher Navoiy asarlarining tub zamiriga singib ketgan futuvvat g‘oyalarning adabiy-estetik qarashlarini nasriy va nazmiy asarlari orqali aniqlash, tahlil va talqin qilish vazifasidir.

Alisher Navoiyning barcha asarlarida futuvvat g‘oyalari ochiq aytib o‘tilmasada, umumiy asar mazmuniga singdirib yuborilgan. Masalan, “Sab’ai sayyor” dostonida keltirilgan yetti hikoyatda ham bu yaqqol ko‘zga tashlanadi.

Navoiy yetti hikoyatni umumiy bir mushtaraklik asosida bog‘lab yaxlit kompozisiya asosida bayon qiladi. Yetti hikoyatni umumiy mushtaraklik jihatidan futuvvat g‘oyalari bog‘lab turadi.

Dostondagi yettilik bilan bog‘liq tushunchalar asarning o‘ziga xos qirralarini ochib bergan. Masalan, yetti gumbaz, yetti hafta, yetti kun, yetti qasr, yetti musofir, yetti xil rang orqali dostonidagi voqealarni tabiatdagi jarayonlar bilan bir garmoniyada tasvirlaydi. Bu esa ijodkorning tabiat va inson bir butun uyg‘unlikda o‘ziga xos mohiyat ifodalanishini ko‘rsata olganligiga guvoh bo‘lamiz. Shu jihatdan ham olib qaraganda ham ranglar jilosi koinotdan pastga qarab harakatlanadi. Bu ranglar bir-biriga uyg‘un ravishda insonning ruhiy holati bilan bog‘lanib ketgan. Navoiy bu ranglar garmoniyasi orqali shoh Bahromni ruhiy holatlarini tasvirlaydi. Asardagi rang-tasvirlarni qo‘llashdan eng katta maqsad ham shoh Bahromning maishatbozlikdan voz kechib xalqqa yaqinlashtirishga qaratilgan edi. Shu sababli Navoiy adolat va raiyat masalasini futuvvat talablari bilan hamohang tarzda tasvirlashga harakat qiladi.

Dostonda alohida ahamiyat kasb etgan yetti hikoyatidagi ranglar tasviri haqida fikr bildirishdan avval ranglarning tasavvuf mohiyati haqida eslash zarur. Shoir hikoyatlarni yozishda ranglardagi ramziy qirralarni keng o‘rganadi. Ranglarning mohiyatini futuvvat g‘oyalari asosida tekshirib ko‘radi. Ranglar bilan bog‘liq tasavvurlarning ilk ildizlari folklor motivlariga, xalq og‘zaki ijodiga va diniy urf-odatlariga borib bog‘lanadi. Tasavvuf ilmida rang solih insonning ruhiy holatini va maqomlarini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, bu haqida Najmiddin Kubro so‘z yuritib, aqli avval ma’naviy ilm va g‘aybiy hisni topib, qalbdan ma’nolar zuhr etishi va ma’no manbai (qalb) da barham topguncha solih olti xil holatni

boshdan kechirishini ranglar orqali tushuntiradi: oq rang – islom, sariq rang – iymon, zangori rang – ehson va ko‘k rang – yaqin ishonch, qizil – irfonni, qora rang – hayratni (fano) belgisini bildirgan. [1. Komilov N. Najmiddin Kubro. B.22] Ruhning bir rang (bosqich) dan boshqa rangga tadrijiy ravishda o‘tishi uning takomilini anglatadi. “Favoyih ul-jamol” [2. Najmiddin Kubro. Tasavvufiy hayot. B. 12] asarida esa yetti rang ruhiy holat belgisi sifatida berilgan. Tasavvufda solihning ilk bosqich e’tiqod va iymoni, ko‘pincha, yashil, qizil va qora ranglar bilan izohlanadi. Yashil rang – qalbning barhayotligi ramzi, undan keyin keluvchi qizil – aqiq tosh ranggi esa aqli kabir (hikmat) ning rangidir. So‘fiylarning ruhiy holati aynan ranglar bilan bog‘liqdir. Ranglar solihning Alloh tomonga qo‘ygan qadamining bosqichlarini ifodalab turadi. Zangori rang – solikning tavba qilib tariqatga qadam qo‘yganini ifodalaydi. Sariq rang – solihning Alloh yodi bilan yashashini va iymonga erishishini anglatadi. Qizil rang esa solikning ruhi vujudidan ajrala boshlaganini va Haq ma‘rifatiga yaqinlashayotganini bildiradi. Oq rang – haqiqatni anglash va yurakning poklanishiga ishora qiladi. Yashil rang vahiylikdan darak beradi. U sirlarning siriga, g‘aybga oshnoligini bildiradi va solihning asl mohiyatga yetishganini ham anglatadi. Mazkur ranglar solihning Alloh tomon ruhiy safarini anglatadi, qora rang Allohdan xalq sari safarni bildiradi. Futuvvat ilmida qora rang sirlar xazinasini egallashni va hayratga g‘arq bo‘lishni ifodalaydi. Hayratdagi ruh shariatning mag‘zi – hikmatni yangidan idrok etib, qorong‘u bir dog‘ ranggiga o‘raladi. Nihoyat solih ruhi yana Alloh huzurida paydo bo‘ladi. Keyin u qora rangdan halos bo‘lib rangsiz holatga kiradi. U yakranglik orqali o‘z maqsadiga yetadi.

Navoiy o‘zining g‘oyaviy-badiiy maqsadini ifodalashda o‘zidan oldingi o‘tgan ustozlarning ranglar haqidagi tasavvufiy fikr-mulohazalarini inobatga olgan holda, uni falsafiy jihatdan boyitib hikoyatlarining mazmun-mohiyatiga singdirib yuboradi. Hikoyatlardagi musofirlar tomonidan aytilgan har bir hikoyatlar alohida rang tasvir bilan tasvirlanadi. Masalan, “Farrux va Axiy” hikoyatida qora rang ustuvorlik qiladi. Navoiy qora rangni futuvvat (fatiylik) bilan bog‘laydi. Qora rang juda ko‘p ma‘no qirralariga ega. U ijobiy va salbiy sifatlarni ham ifodalab keladi. Qora rangni salbiy rang sifatida qabul qilish insonning mistik (mifologik) tafakkuri bilan bevosita bog‘liqdir. Qora rang yoshlikni, buyuklikni ham ifoda etadi.

Qadimda qora rang turkiylar uchun buyuklik ma'nosida qo'llangan. Qora rang turli xil tashkilot va firqalarning ramziy belgisi sifatida ifodalangan. Masalan, salb yurishida qora rang ularda ramziy ma'no kasb yetgan va kiyimlarida bu rang o'z aksni topgan. Kichik Osiyodagi axiylar harakatida ham qora rang ramziy ma'no kasb etgan. Xuroson javonmardlarida ham qora rang yoshlik, navqironlik, mardlik sifatida qadrlangan. Navoiy ham ushbu hikoyat orqali saxovatning Allohdan kelishi va inson qo'lidan kelganicha Xalqqa yaxshilik qilish g'oyasini ilgari suradi. Xalqqa qancha yaxshilik qilinsa, insonning ruhiy dunyosi shunchalar Haq ma'rifatini anglashga tomon yuksalaveradi.

Ikkinchi hikoyatda sariq rang orqali insonning iymonga qarab harakatlanishi ifodalanadi. Masalan Zayd Zahhobning xatolarga yo'l qo'yib keyin avf etilishi, saxiylik ko'rsatishlari va "Lo Iloha illoh" kalimasini keltirishidan anglash mumkin. Demak, Navoiy sariq rang orqali zohiriy jihatdan qimmatbaho oltinni nazarda tutgan bo'lsa, botiniy jihatdan esa musulmon uchun oltindan ham aziz bo'lgan iymon masalasiga alohida diqqat qaratadi.

Uchinchi iqlim yo'lidan kelgan musofir hikoyatida esa yashil rang – ehsonni bildiradi. Navoiy ehson orqali saxovat va karam g'oyasini ilgari suradi. Hikoyatning kirish qismida Navoiy Sa'dning juda ko'p ehsonlar qilishini alohida tasvirlaydi. Futuvvat ilmining bir yo'nalishi bo'lgan javonmardlikda yashil rang saxovat va ehson ma'nosida qo'llanadi. [3. Boltoboyev H., Mahmudov M 212 b.] Yashil rang bundan tashqari solihning tavba qilib tariqatga qadam qo'yganini, asl mohiyatga qarab intilishini, sirli g'aybga talpinishini, donishmandlikni va qalbning barhayotlilikini ifodalab keladi. Hikoyatda Sa'd ham o'z qismatini bilishga intilishi va buning natijasida donishmand Faylaqusni uchratishi bu rang orqali yanada aniqroq ifodalanadi. Asarda Qoradan boshlangan ranglar asta sekinlikda ochiq ranglar tomon harakatlanadi. Natijada Bahromning ruhiy holati ham yaxshilana boshlaydi. Hikoyatlardagi ranglar ikki xil ma'noda qo'llangan. Birinchisi Bahromning ruhiy iztiroblarini ifodalasa, ikkinchi tomondan esa ranglar hikoyatlarning qatiga yashiringan ramziy ma'nolarni ifodalaydi. Ushbu yetti hikoyatni tahlil qilgan juda ko'plab olimlar ranglar orqali faqat Bahrom holati bilan bog'liq tomonlariga ko'proq urg'u berishadi. Vaholanki, ranglar faqat Bahrom holatinigina emas, balki u bilan birgalikda hikoyatlarning mazmun-

mohiyatini ham ifodalab keladi. (S.U) Chunki Navoiy “Sab’ai sayyor”dan “g‘araz yetti hikoyatdir”, deb bejizga aytmagan. [4. С.Хасанов “Сабъаи сайёп” 1991 3-бет] Shu sababli hikoyatlardagi rang-tasvir masalasini ikki jihatini uyg‘un holda o‘rganish dostonidagi hikoyatlar poetikasini to‘g‘ri anglashga yordam beradi.

To‘rtinchi iqlim yo‘lidan kelgan musofir hikoyatida ifodalangan gulgun qizil may ranggi irfonni anglatadi. Qizil rang solik insonning ruhi vujudidan ajrala boshlaganligini va Haq ma’rifatiga yaqinlashayotganini anglatadi. [5. Муллахўжаева К. 154-6] Hikoyatdagi shoh Jo‘na va Mas‘ud o‘zlarining adolati va himmatlari orqali irfon bosqichiga ko‘tarilgan solih obraz sifatida tasvirlanadi.

Beshinchi iqlim yo‘lidan kelgan musofir hikoyatida tilga olingan moviy ko‘k nilufar rang oshiq va mashuqning ruhiy holatini ifodalaydi. Ushbu rang tasavvuf adabiyotida ishonch ma’nosida qo‘llangan. Ranglardagi tovlanishlar koinotning qoraligidan boshlanib, yerga tomon intiladi.

Oltinchi iqlim yo‘lidan kelgan musofir hikoyatida sandal (jigarrang) rang ruhiy holat belgisini ifodalab kelgan. Sandal rang hikmat ma’nosida qo‘llansa, yettinchi iqlim yo‘lidan kelgan musofir hikoyatida esa oq (kofuriy) rang sifatida tasvirlanadi. Oq rang tasavvuf adabiyotida keksalik, donishmandlik, intiho, “badan mulki”ning tanazzulini bildiradi. “Sab’ai sayyor”dagi yettinchi hikoyat bunday ishora va ramzlardan butkul xoli emas. Hali hayot gulining o‘nidan biri ochilmagan Bahrom oq qasrda Dilorom haqidagi quvonchli mujdani eshitadi. Unda o‘likdan tirikka evrilish, hayotini tugagan joyidan qayta boshlash imkoniyati aynan oq qasrda paydo bo‘ladi. Ya’ni intiho nuqtasida ibtido tasvirlanadi. Navoiy “odina kuni” ta’rifi ostida, yigirma oltinchi bob boshidayoq, Bahrom hayotidagi tong, yangilanishga ishora qiladi. Ayni paytda, oq qasrda kutib olingan tong, ibtido, quvonch va o‘tkinchi farah bilan bir qatorda, ma’naviy intiho, tanazzul, qayg‘u-alamni ham ifodalab keladi. Zotan, zamin saodati, qanchalik farahbaxsh bo‘lmasin, o‘tkinchi va “quyi olam” tomon eltuvchi vositadir. Bahrom qismatining qon o‘p‘qoniga tushish bilan yakunlanishi bunday xulosa qilishimizga to‘la imkon beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Komilov N. Najmiddin Kubro. – Toshkent, 1995.

2. Шайх Нажмиддин Кубро. Тасаввуфий ҳаёт. Нашрга тайёрловчилар И.Ҳаққул, А.Бектош.-Тошкент: Мовороуннаҳр, 2004

3. Boltoboyev N., Mahmudov M. Adabiy-estetik tafakkur tarix. Monografiya. 2-jild. – Toshkent: "Mumtoz so'z", 2016.

4. Алишер Навоий. Сабаи сайёр. Нашрга тайёрловчи: С.Ҳасанов. – Тошкент: Гофур Гулом номидаги нашриёт матбаа бирлашаси, 1991.

5. Муллаҳўжаева К. Алишер Навоий ғазалётида тасаввуфий тимсол ва бадий санъатлар уйғунлиги. Тошкент: Академнашр, 2019.

MUNDARIJA

| | | |
|-------------------------|--|----------|
| So‘z boshi. | Navoiyshunoslarning yangi avlodini tarbiyalash yo‘lida..... | 3 |
| D.Abdujalilova | Alisher Navoiy va Toshlijali Yahyobey shaxsiyati: mushtarak va farqli jihatlar..... | 4 |
| Sh.Abdumannapova | Sharq mumtoz adabiyotida qofiyaning o‘rni (“Xamsa” tarkibidagi dostonlar misolida)..... | 8 |
| A.Abdurrohmanov | “Tarixi anbiyo va hukamo” asarining manbashunoslikda tutgan o‘rni..... | 13 |
| S.Fayzullayeva | Avaz O‘tar ijodida Alisher Navoiy an‘analari..... | 17 |
| M.Mamajonova | Navoiy she‘riyatiga xos ayrim juft so‘zlar xususida..... | 20 |
| M.Nafasova | “Saddi Iskandariy” dostonida qo‘llanilgan arabcha va fors-tojikcha o‘zlashmalar..... | 23 |
| O‘.Ne‘matova | “Sab‘ai sayyor” dostonida sinonimlar qo‘llash mahorati..... | 28 |
| M.Nutfullayeva | Navoiy lirikasida g‘azali musajja’..... | 34 |
| O.Olimjanov | Navoiy lirikasi - sharq lirikasining yangi bosqichi..... | 37 |
| Z.Qurbonboyeva | Husayniy g‘azallarida fe‘llar semantikasi..... | 40 |
| S.Rizayeva | Ruboiy tadqiqida ma‘rifiy ma‘no talqini..... | 48 |
| M.Sodiqov | “Majolis un-nafois”ning birinchi majlisida keltirilgan she‘riy parchalarning janriy tarkibi..... | 53 |
| Z.Tashtemirova | Alisher Navoiyning “Hayrat ul-abror” dostonida qofiya san‘atlari va qofiyadoshlik..... | 58 |
| F.Aliyev | Sharq mumtoz adabiyoti va Navoiy ijodida qur‘on oyatlarining o‘rni..... | 63 |
| A.Almardonova | Navoiy g‘azallarida mifologik obrazlar..... | 68 |
| Sh.Karimova | Safar zahmati garchi dushvor erur..... | 73 |
| B.Mamashikurov | Mutafakkir shayx, shoir Nazrullohxon Eshon G‘aribiy..... | 76 |
| Sh.Qorayev | Sulton Badiuzzamon Mirzo majlislari va Alisher Navoiy..... | 80 |
| S.Umarov | Futuvvat g‘oyalari va ranglar uyg‘unligi (Alisher Navoiyning “Sab‘ai sayyor” dostoni hikoyatlari misolida) | 85 |

«Yosh navoiyshunoslar»: maqolalar to‘plami. – Toshkent: TDSHU,
2021. – 92 b.

Mas‘ul muharrirlar:

Gulchehra Rixsiyeva, Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti rektori
Jaloliddin Jo‘rayev, filologiya fanlari doktori

Tahrir hay‘ati:

Qudratulla Omonov, filologiya fanlari doktori, professor
Dilnavoz Yusupova, filologiya fanlari doktori
Rixsitilla Alimuxamedov, filologiya fanlari doktori
Maryam Ishmuhamedova, filologiya fanlari nomzodi, dotsent
Otabek Jo‘raboyev, filologiya fanlari nomzodi, katta ilmiy xodim
Olim Davlatov, filologiya fanlari bo‘yicha PhD
Oysara Madaliyeva, stajyor o‘qituvchi, kichik ilmiy xodim
Nigora Xadjiyeva, stajyor o‘qituvchi

Taqrizchilar:

Qosimjon Sodiqov, filologiya fanlari doktori, professor
Salimaxon Eshonova, filologiya fanlari nomzodi

2021 yilning 3 mayida bosishga ruxsat etildi.

Bichimi: 60x84¹/16. 5,75 bosma taboq.

Soni 100 ta. Buyurtma № 50

© Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, 2021 yil.